Мамлакатимизда мустақиллик йилларида миллий истиқлол шарофати билан мамлакатимиз қонун ижодкорлиги жараёнида тамоман янги давр бошланди, илғор халқаро ва узоқ асрлик тарихий тажрибаларимиздан келиб чиқсан ҳолда, миллий қонун ижодкорлиги тизими шаклланди. Бу давр ичida Ўзбекистон Республикаси Парламенти - Олий Мажлис Қонунчилик палатаси ва Сенат-

¹ Абу Наср Форобий. Фозил одамлар шаҳри. – Т.: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси, 1993. – 24-б.

DAVLAT TILIDA QONUN IJODKORLIGI:
MUAMMO VA YECHIMLAR



дан иборат икки палатали тизим сифатида шаклланди. Улар томонидан 3000 дан ортиқ қонунлар қабул қилинди. Қонун ижодкорлиги фаолиятини тартибга солувчи “Қонун лойиҳаларини тайёрлаш ва уларни Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисингин Қонунчлик палатасига киритиш тартиби тўғрисида”¹, “Норматив-хуқуқий хужжатлар тўғрисида”², “Қонун лойиҳаларининг умумхалқ муҳокамаси тўғрисида”³, “Ўзбекистон Республикасининг давлат тили ҳақида”⁴, “Ўзбекистон Республикасининг халқаро шартномалари тўғрисида”⁵ ги қонунлар қабул қилинди. Бу қонунлар орқали миллий истиқлол ғояларига тўла жавоб берувчи қонун ижодкорлигининг энг муҳим принцип ва қоидалари норматив-хуқуқий базаси мақомини олди, ўзбек миллий қонун ижодкорлигининг хуқуқий асослари яратилди.

Шу билан бирга ҳозирги пайтда қонун ижодкорлиги амалиётида айрим муаммолар ҳам пайдо бўлмоқда. Шунинг учун ҳам 2017—2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегиясида қабул қилинаётган қонунларнинг ижтимоий-сиёсий, ижтимоий-иқтисодий ва суд-хуқуқ ислоҳотлари жараёнига таъсирини кучайтиришга йўналтирилган қонун ижодкорлиги фаолияти сифатини тубдан ошириш давлат ва жамият қурилиши тизимини такомиллаштиришнинг асосий вазифаларидан бири этиб белгиланди.

¹ “Қонун лойиҳаларини тайёрлаш ва уларни Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисингин Қонунчлик палатасига киритиш тартиби тўғрисида” қонун, Ўзбекистон Республикаси Қонун хужжатлари тўплами, 2006 й., 41-сон.

² “Норматив-хуқуқий хужжатлар тўғрисида”ги қонун, Ўзбекистон Республикаси қонун хужжатлари тўплами, 2012 й., 52-сон.

³ “Қонун лойиҳаларининг умумхалқ муҳокамаси тўғрисида”ги қонун, Ўзбекистон Республикаси Қонун хужжатлари тўплами, 2004 й., 51-сон.

⁴ “Ўзбекистон Республикасининг давлат тили ҳақида”ги қонун, Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисингин Ахборотномаси, 1995 йил, №12.

⁵ “Ўзбекистон Республикасининг халқаро шартномалари тўғрисида”ги қонун, Ўзбекистон Республикаси Қонун хужжатлари тўплами, 2005 й., 49-50-сон.



Бу вазифанинг ниҳоятда муҳимлиги ҳисобга олиниб, Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 8 августанда “Норма ижодкорлиги фаолиятини такомиллаштириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида”ги ПФ-5505-сон фармони қабул қилинди. Унда таъкидланадики, “белгиланган кенг кўламли ислоҳотларнинг муваффақиятли амалга оширилиши норма ижодкорлиги жараёни сифатига боғлиқ. Ушбу йўналишда мавжуд бўлган камчиликлар турли соҳалардаги ижтимоий муносабатларни тарқоқ ҳолда тартибга солиш салбий амалиётининг давом этишига олиб келмоқда, **бу эса хуқукий коллизиялар, хуқуқни қўллашда турлича талқин қилиш ва мураккабликлар юзага келишига сабаб бўлмоқда**”.

Шундан келиб чиқсан ҳолда, норма ижодкорлиги фаолиятини такомиллаштириш концепциясини амалга ошириш бўйича Олий Мажлиснинг Қонунчилик палатаси Спикери Н.Исмоилов раҳбарлигида маҳсус комиссия тузилиб, норма ижодкорлиги фаолиятини такомиллаштириш концепциясини амалга ошириш бўйича амалий чора-тадбирлар режаси ишлаб чиқилди, “норматив-хуқукий ҳужжатларни ишлаб чиқиши ва қабул қилиш жараёнлари сифатини ошириш, шунингдек, уларнинг ижроси мониторингини такомиллаштириш; норма ижодкорлиги жараёнига замонавий ахборот-коммуникация технологияларини жорий этиш; норма ижодкорлигига «ақлли тартибга солиш» модели элементларини қўллаш; норма ижодкорлиги фаолиятининг институционал асосларини такомиллаштириш” кабилар устувор вазифалар юклатилди.

Бироқ, бу вазифа шундай мураккаб жараёнки, уни чуқур илмий-назарий жиҳатдан таҳлил этмасдан ҳамда ўзбек юридик тилини такомиллаштиришнинг илмий асосларини ишлаб чиқмасдан, энг асосийси, қонунчилик услуби масалаларига эътибор бермасдан туриб, уни амалга ошириш анча мураккабдир. Чунки норматив хуқукий ҳужжатларнинг



аниқ ва равон ишлаб чиқилишида қонунчилик услуби алоҳида ўрин тутади. Чунки ҳар қандай қонун ўз мазмун ва моҳияти билан жамиятдаги ижтимоий, иқтисодий, сиёсий ва маданий муносабатларни тартибга солишга, уларнинг нозик қирраларини ҳал этишга қаратилади.

Шунга кўра қонун ҳажми, тузилиши бўйича мураккаб мазмунга эга бўлади. Буларнинг ҳаммаси эса бу ҳуқуқ нормаларининг қандай ҳолатда ва тартибда, қай усулда ифода этилиши билан боғлиқ. Агар уларнинг ифода этилиши усули жуда мураккаб, узундан-узун, ноаниқ тузилса, бу қонун ҳаётда ижобий самаралар бериш ўрнига жамиятда ҳуқуқбузарлик ва жиноятчилик миқдорининг ошишига сабаб бўлади.

Шунга кўра ҳуқуқий ҳужжат лойиҳаларининг ифода этилиш усули давлат фаолиятида ижтимоий-сиёсий аҳамиятга эга. Бу масалалар қонунчилик услубининг асосий вазифаси ҳисобланади. Унинг предмети ҳуқуқий нормаларни ифода этишининг халқчил, энг қулай, халқ манфаатини кўзловчи усулларини ишлаб чиқиш, уни қонун ижодкорлиги фаолиятида жорий этиш, умуман, ҳуқуқ тилининг маълум бир андозаларини ишлаб чиқиш ва уни жамият ривожи ва ҳуқуқ такомили билан уни ҳам ривожлантириб боришдан, ҳуқуқ тилининг ўзига хос хусусиятларини аниқлашдан иборат.

Бинобарин, қонун ижодкорлиги қонуншуносдан нафақат ҳуқуқий билимларни, балки қонунчилик соҳаси бўйича маҳсус билим, малака ва қўникмаларни эгаллашни, қонун ифода усулининг муносаб шаклларини ўйлаб топишни тақазо қиласди. Қонун қабул қилиш жуда катта куч талаб этадиган қонун ижодкорлиги фаолиятининг сўнгги босқичидир. Айрим кодекслар, қонунлар билан юзаки танишган, соҳадан бехабар кишига ҳаммаси жуда оддий туюлиши, бундай ҳар бир кишининг кўлидан келадигандек кўриниши мумкин. Лекин аслида, ундей



эмас. Тақиқлар, кўрсатмаларни ва талабларни қонунда ана шундай барчага тушунарли қилиб баён этиш қонун тайёрловчилардан узоқ вақт ва кўп меҳнат талаб қиласди.¹

У қонуншуносдан нафақат ҳуқуқий билимларни, балки қонунчилик соҳаси бўйича маҳсус билим, малака ва кўникумаларни эгаллашни, қонун ифода усулининг муносиб шаклларини ўйлаб топишни тақазо қиласди.

Шунинг учун ҳам бугунги кунда қонунларимизни давлат тилида қонунчилик техникаси талабалари даражасида мукаммал ишлаб чиқишида бир қанча муаммолар пайдо бўлмоқда. Аксарият қонунларимиз олдин рус тилида ишлаб чиқилиб, кейин давлат тилига таржима қилинмоқда. Бу эса қонунларимиз тилининг ғализ бўлишига, амалиётда фуқароларимиз томонидан уни тушунишда маълум қийинчиликларни келтириб чиқармоқда. Ҳатто айрим ўринларда эса битта қонун лойиҳасининг ўзбек ва рус тилидаги вариантларида мазмунан ўзаро бир бирига мос келмайдиган ҳолатлар учрамоқда. Бу эса юридик амалиётда кўпдан кўп муаммоларни юзага келтиряпти.

Аслида қонун ва норматив ҳуқуқий ҳужжатларимиз халқимизга тушунарли тилда, оддий ва равон ишлаб чиқилиши лозим. Акс ҳолда, қонун тилининг оғир ва мужмал тилда ишлаб чиқилганлиги фуқароларимизнинг ҳуқуқий онгги ва ҳуқуқий маданиятининг пасайишига олиб келади, уларни қонунлардан бездиради.

Бунинг асосий сабабларидан бири – мамлакатимизда қонун тили ва қонунчилик услуги масалаларининг етарли даражада ўрганилмаганлидир. Чунки қонунчилик услуги ҳам лингвистик, ҳам юридик фанлар доирасига тегишлигидир. Уни ўрганиш учун юрист бўлишнинг ўзи кифоя қилмайди. Юрист ҳуқуқий нормани қофозга тушириб ёзар экан, хоҳлайдими-йўқми лингвистик билимларга

¹ Тожиҳонов У. Агар қонун ишласа // Ҳуқуқий демократик ислоҳотлар.-Т.Ўзбекистон, -1997, Б. 49.



Эҳтиёж сезади. Тилшунос эса қонунчилик техникаси, қонун ижодкорлиги сингари маълум бир ҳуқуқий билимлардан хабардор бўлмай туриб, бу соҳани ўргана олмайди. Ўрганиши ҳам мумкин, фақат унинг тадқиқотлари лингвистик доирада, яъни тилнинг айрим лексик-грамматик қонун-қоидаларини аниқлашга қаратилади. Бундай тадқиқотда давлат ва жамият фаолияти учун энг муҳим ва зарур жиҳатлари очилмай қолади.

Ҳуқуқий нормаларни ифодалаш усулларини аниқлаш жуда ҳам мураккаб вазифа бўлиб, бунинг учун таъкидланганидек, ҳуқуқшунос бўлишнинг ўзи кифоя қилмайди. Бу соҳа билан шуғулланувчи мутахассис юридик билимлар билан бирга лингвистик ҳамда муҳаррирлик сирларини яхши ўзлаштирган бўлиши лозим.

Шу боис қонуншунос қонун лойиҳаларини тузатганда, биринчи навбатда, қонун тили талабларини мукаммал билиши ва шу талаблар асосида қонунларни ишлаб чиқиши зарур. Қонун тилига қўйиладиган асосий талаблар қўйидагилардан иборат:

1. Ҳар қандай норматив-ҳуқуқий ҳужжат матни расмий, қатъий ва, ўз навбатида, нейтрал ифодаланган бўлиши лозим;
2. Норматив-ҳуқуқий ҳужжат матни энг юқори даражада (максимал) аниқ ифодаланиши керак;
3. Норматив-ҳуқуқий ҳужжат матни мумкин қадар қисқа, содда ва лўнда бўлиши зарур;
4. Норматив-ҳуқуқий ҳужжатда ифодаланаётган фикрлар мантиқий кетма-кетлик асосида изчил баён этилиши лозим;
5. Норматив-ҳуқуқий ҳужжат матни ҳам ҳуқуқшунос мутахассислар яхши тушуниши нуқтаи назаридан, ҳам барча фуқароларнинг идрок этиш имконидан келиб чиқиб тузилиши керак.

Қонун тилини бу талаблар асосида мукаммал тузиш қонуншуносдан катта билим ва салоҳиятни тақозо қиласади. У

DAVLAT TILIDA QONUN IJODKORLIGI:
MUAMMO VA YECHIMLAR



бу талабларнинг мазмун ва моҳияти ва уни амалга ошириш усулларини мукаммал ўзлаштирган бўлиши лозим.

Шундай қилиб, ҳар қандай қонун ўз мазмун ва моҳияти билан жамиятдаги ижтимоий, иқтисодий, сиёсий ва маданий муносабатларни тартибга солишга, уларнинг нозик қирраларини ҳал этишга қаратилади.

Шунинг учун жамиятнинг, ҳуқуқнинг ривожланиши билан бир вақтда қонунчилик услуби ҳам таомиллаштириб, ҳуқуқнинг ҳар даврига нисбатан илмий-назарий жиҳатдан ўрганиб борилиши зарур. Бунда иш бермаётган, ҳуқуқнинг ривожига тўсқинлик қилаётган, эски ифода усулларидан воз кечилиши, уларнинг ўрнига ҳуқуқнинг мазмунини тўла очадиган, халқимизга яқин ва тушунарли бўлган янги-янги ифода усулларини қидириб топиш мақсадга мувофиқ. Шунга кўра, қонунчилик услубини ҳам ҳуқуқ билан қадамбақадам ривожлантириб бориш зарур.

Ҳуқуқ мазмун моҳияти жиҳатидан қанчалик халқчил, халқаро меъёрлар даражасида бўлмасин, қонун хужжатлари матнида бу ҳуқуқ нормаларини ифодалашда энг қулай ифода усуллари топилмас ёки у эски, “ноаниқ” тилда ифодаланар экан, бу фуқароларда ҳуқуққа, шу қонуни нисбатан меҳру муҳаббатни сўндиради. Фуқароларнинг ҳуқуқий маданиятсизлигига олиб келади. Фуқароларни қонунлардан бездиради. Чунки фуқаро қонун матнини бир неча марта ўқиб ҳам тушунмаса, бу фуқаронинг ҳуқуқий саводсизлигига ва ҳуқуқий маданиятсизлигига сабаб бўлади.

Бундан ташқари, қонунни турли-туман шарҳлашга кенг йўл очилади, натижада жамиятда турли салбий ҳолатлар, жиноятчилик ва ҳуқуқбузарликнинг авж олишига туртки бўлади. Коррупциянинг кучайишига сабаб бўлади.

Демак, қонунчилик услубияти қонуншуноснинг тилини, нутқини илмий-назарий жиҳатдан таҳлил этиши, қонунчилик услубининг услубий хусусиятларини



аниқлаши, қонун тили, унинг ўзига хос жиҳатларини белгилаши лозим.

Қонун тили ҳуқуқ мазмунининг, моҳиятиниң шаклий ифодаси бўлса, қонунчилик услубияти эса бу ифода этилиш усулининг илмий-назарий жиҳатларини ўрганади.

Шундай қилиб, қонунчилик услубиятини ҳуқуқ-шуноснинг ёзма сўз усталиги ҳақидаги илм деб аташ мумкин. Бу усталикнинг ҳам ўзига хос қоидалари, хусусиятлари мавжуд бўлиб, у юристга ҳуқуқий нормаларни ифодалашда гап қандай усулларда қурилса, ҳуқуқнинг моҳияти янада яққолроқ очилади каби масалаларни ўрганиш имконини беради. У амалий аҳамиятга эга бўлиб, қонуншуносга ўзи ишлаётган ҳуқуқий грамматик қолип (конструкция) ва гапларнинг мавжуд талабларга қанчалик жавоб бериши ёки бермаслигини аниқлаш имконини яратади. У қонуншуносни қонунда ифодалаётган ҳар бир сўзга ниҳоятда эҳтиёт билан ёндашишга ундейди. Қонун лойиҳаларининг ниҳоятда мукаммал тузилишига, унинг юксак санъат асари даражасига кўтарилишига имкон беради. Ҳуқуқнинг янада равнақ топиши учун энг муҳим асосий восита бўлиб хизмат қиласи.

Шу нуқтаи назардан бугунги кунда юрист кадрларни тайёрлаш тизимида уларнинг тил тайёргарлигига алоҳида эътибор бериш лозим. Айниқса, қонун ижодкорлик фаолияти билан шуғулланиш учун юрист бўлишнинг ўзи кифоя қилмайди. Ҳар қандай юрист ҳам қонунларни ёза олмайди. Чунки бу тор доирадаги мутахассислик фаолияти ҳисобланади. Қонун ёзувчи мутахассис бир нечта фанлар: ҳуқуқшунослик, тилшунослик, муҳаррирлик каби билимларнинг интеграциялашган доир маҳсус фанларни мукаммал билишни тақозо этади. Шу боис бунда мутахассисларни маҳсус дастур асосида тайёрлашни йўлга қўйиш зарур. Уларга “Қонунчилик техникаси”, “Юрислингвистика”, “Юристнинг ёзма нутқи”, “Амалий



ўзбек тили”, “Юридик ёзув”, “Юридик тил лексикаси”, “Юридик фаолиятда ёзма нутқ қўникмалари” сингари фанлар жорий этилиши керак.

Мамлакатимизда юридик тил ва юридик нутқ масалаларини узлуксиз равища такомиллаштириш, бу соҳада маълум бир билимларни изчил ривожлантириш, юридик тил ва юридик нутқ назарияси билан боғлиқ илмий тадқиқот ишларини рағбатлантириш ва шу соҳада етук малакали кадрлар тайёрлаш мақсадида Ўзбекистон ҳуқуқшунослик ва тилшунослик фанлари тизимида хорижий мамлакатлар тажрибасидан келиб чиқсан ҳолда “Юрислингвистика” деб номланган янги илмий йўналишни йўлга қўйиш мақсадга мувофиқ.

Бу илмий йўналишнинг ўрганиш обьекти қуйидаги масалаларни қамраб олиши лозим:

юридик тил, қонунчилик лингвистикаси ва қонунчилик услугиятига доир назарияни муттасил такомиллаштириб бориш;

юридик тил ва унинг таркибий қисмларини чуқур илмий-назарий таҳлил этиш асосида юридик тилнинг моделини яратиш;

юридик атамашунослик муаммоларини чуқур илмий асосда ўрганиш;

амалиётда ҳуқуқнинг ривожига тўсқинлик қилаётган, қонунни қўллаш учун қийинчилик туғдираётган ифода усусларини аниқлаш;

ҳуқуқий нормаларни ифодалашнинг методологик асосларини ишлаб чиқиш;

қонун таржимашунослиги муаммолари билан шуғулланиш;

юридик нутқ назариясини илмий-назарий таҳлил этиш;

ҳуқуқшунос кадрнинг касбий фаолияти билан боғлиқ “Суд нотиқлиги”, “Ижтимоий нутқий алоқа”, “Судда нутқ сўзлаш ва ҳақиқат муаммолари”, “Юриспруденцияда сўз

DAVLAT TILIDA QONUN IJODKORLIGI:
MUAMMO VA YECHIMLAR



санъати” каби ўкув курсларининг илмий асосларини белгилаш.

Уумуман, мамлакатда миллий юридик тилни такомиллаштириш шундай мураккаб жараёнки, бу соҳада узоқ келажакка мўлжалланган истиқболли стратегик йўналишларни, унинг илмий-назарий методологик асосини белгиламасдан туриб, бу соҳадаги муаммоларни ҳал этиб бўлмайди. Шу боис давлат томонидан айнан шу масалага алоҳида эътибор қаратилиши, қонун ижодкорлиги жараёни бўйича давлат миқёсида узоқ келажакка мўлжалланган чора-тадбирлар режаси ишлаб чиқилиши зарур. Бу истиқболли режа босқичма-босқич ҳаётга татбиқ этилиши лозим.

Nodir Ramazonov,
Toshkent davlat yuridik universiteti
O'zbek tili va adabiyoti kafedrasи mudiri,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

IRAC USULI VA HUQUQIY MATN

Bugungi kundagi yuridik ta'limda til ta'limining dolzARB masalasi – tilshunoslik va huquq fanlarining chuqur integratsiyasi hisoblanadi. Huquq va tilshunoslik fanlari integratsiyaning tabiatи va qonuniyatlarini tadqiq etishda bir qator metodologik muammolarni hal qilish katta ahamiyatga ega. Ushbu integratsiya jarayonida huquqning mohiyati va tilning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olish muhim.

IRAC – bu *muammoni aniqlash, uni tegishli qoida* (yoki *qonun* normasi) asosida tahlil qilish va xulosa chiqarish (muammoli vaziyatga huquqiy baho berish) uchun ishlataladigan tahlil va uning natijalarini yozma ifodalash usuli.

Uilyam H.Putman IRACni “muammoni hal qilishga tizimi yondashuv” sifatida ta'riflaydi. Dastlab “huquqiy memorandumlarni tayyorlashda foydalanilgan IRAC usuli tez fursatda huquqiy masalalarni tahlil qilishga kompleks yondashuv sifatida tan olindi va u kazusdagi mavzularni aniq, uzviy aloqadorlikda tahlil qilish imkonini berishi” tufayli keng shuhrat qozondi (William H. Putman, Jennifer Albright. Legal Research, Analysis, and Writing, 3rd Edition).

IRAC – bu oddiy mexanik formula emas, balki huquqiy muammolarni tahlil qilishning eng mantiqiy usulidir. Talaba huquqiy masalani tahlil qilishdan oldin, albatta, u muammoning nima ekanligini anglab yetishi kerak. Shunday qilib, IRAC metodologiyasi bo'yicha birinchi qadam – muammoni (*Issue*) aniqlash (I); ikkinchi bosqich muammoni hal qilishda qo'llaniladigan tegishli qonun normalarini (*Role*) ko'rsatish (R); uchinchi bosqich – ushbu qoidani huquqiy muammo bilan



bog'liqlikda tahlil qilish (*Application*), ya'ni qonun normasini tushunish, talqin qilish va ushbu masalani yechishda qo'llash, tatbiq etish (A); va nihoyat to'rtinchi bosqich – masalaning yechimini, xulosasini (*Conclusion*) bayon qilishdir (C).

Talabalar tomonidan huquqiy kazusga IRAC (Issues, Rules, Application, Conclusion) usulida javob yozish namunasi.

Kazus:

Fuqaro N. hamkasbi A.ga o'zining chet elga xizmat safariga ketayotganligini aytib, Moskva-Toshkent poyezdi 12-vagon provodnigidan 1 polietilen paketni olib, Chilonzor 10-daha, 7-uy, 48-xonadonda istiqomat qiluvchi Z. ismli fuqaroga yetkazib berishni iltimos qildi. Fuqaro A. o'z hamkasbi iltimosini bajarib, ichida nima borligi noma'lum paketni fuqaro Z.ga olib borib berdi. Oradan bir kun o'tgach fuqaro Z.ning narkotik moddalar peredozirovkasidan vafot etganligi ma'lum bo'ldi va A.ni gumonlanuvchi sifatida tergovga chaqirishdi. A. tomonidan olib borib berilgan paketda narkotik moddalarning bir qismi bor edi, qo'ni-qo'shnilar ham o'sha kuni Z.ning uyiga kelgan odam aynan A. ekanligini tasdiqlashdi.

Fuqaro A.ning xatti-harakatlariga IRAC usulida huquqiy baho bering.

IRAC usulida javob:

I – issue / muammo. Yuqoridagi muammoli vaziyatga huquqiy baho berish uchun, avvalambor, oldimizga bir qancha vazifalarni qo'yib olishimiz hamda ularni huquqiy tahlil qilishimiz lozim bo'ladi.

Birinchidan, fuqaro A. o'zi hamkasbi N.ning iltimosini bajarishida, ya'ni uning sodir etgan qilmishida jinoyat alomatlari bormi, agar mavjud bo'lsa, u qanday kvalifikatsiya qilinadi?

Ikkinchidan, ijtimoiy xavfli qilmish ishtirokchilikda sodir etilganmi yoki yakka holdami?

Uchinchidan, fuqaro A.ning qilmishi va ijtimoiy xavfli oqibat bo'lgan Z.ning o'limi o'rtaida sababiy bog'liqlik bormi?



R - rule / qoida, qonun. Ushbu vaziflarni hal qilish uchun asosiy normativ-huquqiy hujjat hisoblangan Jinoyat kodeksiga tayanamiz. Yuqoridagi muammoli vaziyatdan anglashiladiki, fuqaro A. o'z harakatlari oqibatlarini anglamasdan ijtimoiy xavfli qilmish sodir etdi, ya'ni jinoyat. Uning qilmishini jinoyat deb topish va kvalifikatsiya qilish uchun jinoyat tarkibini aniqlash lozim bo'ladi. Fuqaro A. sodir etgan qilmish o'zida Jinoyat kodeksi 276-moddasi belgilarini mujassam etmoqda.

A - application / qo'llash, tahlil. Buni isbotlash uchun jinoyatning to'rt tarkibiy qismini tahlil qilamiz. Birinchisi – subyekt. Bunda fuqaro A. JK 17-moddasiga ko'ra, jinoyat sodir etgunga qadar o'n olti yoshga to'lgan, aqli raso jismoniy shaxslar jinoyat subyekti bo'la oladi, degan qoidani ko'rishimiz mumkin. Ikkinchisi – obyekt. U ijtimoiy xavfli qilmish qaratilgan jamiyat va davlat manfaatlari va insonlar xavfsizligi sanaladi. Keyingisi – subyektiv tomom. Bu qasd yoki ehtiyyotsizlik shaklida namoyon bo'ladi. Modda dispozitsiyasida to'g'ridan-to'g'ri "o'tkazish maqsadini ko'zlamay" deb belgilanganligi tufayli, ehtiyyotsizlik deb qabul qilamiz. Oxirgisi – obyektiv tomom. Bu sodir etilish usuli, shakli, vaqtini o'z ichiga oladi. Bundan anglashiladiki, A.ning qilmishi JK 276-modddasi tarkibini beradi. Bundan tashqari sodir etilgan qilmish va Z.ning o'limi o'rtasida sababiy bog'liqlikning bo'lishi A.ning zimmasiga boshqa jinoyatni ham qo'yishga olib kelishi mumkin. Bu shuni anglatadiki, agar fuqaro A. paketda narkotik modda borligini bilsayu va bu modda Z.ning o'limiga sababchi bo'lishi mumkinligini oldindan anglagan bo'lsa, JK ning qo'shimcha moddalarini ham kiritish mumkin bo'ladi.

C - conclusion / xulosa. Keltirilganlar asosida xulosa qilishmiz mumkinki, JK 276-moddasi qoidalariga ko'ra, fuqaro A.ning qilmishi jinoyat deb topiladi.

Huquqiy matnlarni IRAC usuli asosida modellashtirish jarayonining yana bir afzalligi shundaki, u asosiy huquqiy tezis/g'oyani yozish va notiqlik mahoratini rivojlantirishga yordam beradi. IRACning bu tomoni juda ham muhim, chunki har qanday

DAVLAT TILIDA QONUN IJODKORLIGI:
MUAMMO VA YECHIMLAR



huquqiy tadqiqot jarayonining mavzusi tor (aniq belgilangan faktlar bilan bog'liqligi sababli), olingan amaliy ko'nikmalar esa, aksincha, universal va keyinchalik har qanday huquqshunoslik sohasida faoliyat yuritganda foydali bo'ladi.

IRAC usulini bir so'z bilan huquqiy jarayon ishtirokchilari uchun argumentlarni eng ishonchli tarzda yozish qobiliyatini rivojlantirish sifatida belgilash mumkin. Talabalar huquq jarayonlarida ishtirok etishga jalb qilinganda mantiqiy, savodli va qonun normalari doirasida ishonchli matn yaratish muammosiga duch keladilar. Argumentlarni taqdim etish uchun esa IRAC metodi yaxshi vositadir. Bunda asosiy diqqat har qanday pozitsiyani yozma asoslashda izchillika: birinchi navbatda tezis, keyin qoida, qoidaning qo'llanilishi va nihoyat, xulosaga qaratiladi. Diqqat qilinsa, ma'lum bo'ladiki, bu qonuniyatga rioya qilish o'z fikrlarini muayyan qolip asosida qurishning mutlaqo tabiiy usulidir. Shu sababli ham IRAC klassik sillogizm deb ham yuritiladi, unda katta asos (argument) huquqiy qoida, kichik asos esa qoida tatbiq etiladigan faktlardir. Muayyan tezisni belgilash, qonun ustuvorligini shakllantirish, so'ngra tegishli faktik holatlarni isbotlash va umumlashtirish – bu o'quvchi tomonidan eng oson o'zlashtiriladigan va uni muallif nuqtayi nazarining to'g'rilingiga ishontiradigan sxema. IRACning huquqiy matnlarni oson "hazm" qilinishiga sabab bo'lishi tufayli unga nisbatan ingliz tilida maxsus – "reader-friendly" sifati qo'llaniladi (bu "o'quvchiga qulay" yoki so'zma-so'z "o'quvchiga do'stona" degan ma'noni anglatadi).

IRAC huquqiy g'oya/tezis, argument va unga mutanosib huquqiy matnni modellashtirish jarayoni bo'lgani sababli bilvosita og'zaki nutq ko'nikmalarini ham rivojlantiradi. Sud va huquqiy muhokama jarayonining har qanday ishtirokchisi asosiy (va, ehtimol, yagona) maqsad – sudni o'zining haqligiga ishontirish uchun har qanday ma'ruzachi amal qilishi kerak bo'lgan butun "oltin qoidalari"ni IRAC orqali bermalol o'zlashtirishi mumkin. Sillogizmning asos qoidasi "tezis-argument" juftligi



bunda maksimal darajada ishlaydi. Ba'zilar buni sud notiqligining ixtiyoriy belgilari deb o'ylab, e'tiborsiz qoldirishi mumkin, ammo sanab o'tilgan qoidalarga rioya qilish (yoki ularga rioya qilmaslik) ko'pincha ish taqdirini oldindan belgilab beradi.

Nazariya va amaliyotning o'ziga xos uyg'unligi, yozish va nutq qobiliyatlari, huquqni tadqiq etish va uni tahliliy qayta ko'rib chiqish hamda xulosalarni yetkazish samarador usuli sifatida IRAC anchadan buyon dunyoning turli mamlakatlarida huquqiy ta'limning ajralmas qismiga aylangan. Albatta, birinchi navbatda, IRAC anglo-sakson huquqiy oilasi mamlakatlarida mashhur va, ehtimol, buning eng aniq sababi jonli tarzda o'tadigan sud amaliyotining kuchli ta'siri bilan belgilansa ehtimol. Ko'pgina AQSh huquq maktablarida huquqiy yozuv va advokatlik kabi kurslar majburiy bo'lib, namunaviy sud jarayonlari shu qadar muntazam ravishda o'tkaziladiki, ular uchun maxsus auditoriyalar ajratiladi va bunda tayyorgarlik jarayonlari ko'p hollarda IRAC metodi asosida olib boriladi. Bularning barchasi huquqiy muammoni IRAC usulida modellashtirish ta'lim va tarbiyaning chinakam umumjahon shakliga aylanib borayotganini qayd etishga imkon beradi. Shunisi e'tiborga loyiqliki, IRAC formati nafaqat universitetda, balki undan tashqarida ham qo'llaniladi: amerikalik huquqshunoslar uchun yetakchi amaliy qo'llanma mualliflari haqiqiy sud jarayonida ishtirot etishga tayyorgarlikning majburiy elementi sifatida huquqiy muammoni IRAC usuli asosida modellashtirish namunaviy sud majlislarini o'tkazishning muhim tarkibiy qismi ekanligini eslatib o'tishadi.

Huquqshunosning huquqiy matnlarni rasmiy uslubda maqsadga yo'naltirilgan, asosli, ishonchli yozuv tarzida yoza olishi alohida qobiliyat, hatto aytish mumkinki san'at hisoblanadi. Huquqshunos faoliyatining asosini funksional yozishmalar tashkil etadi. Butun dunyo huquq maktablarida huquqiy yozuv uslubi va qobiliyatini rivojlantirish uchun "Academic Legal Writing" moduli o'qitiladi. Ushbu modul 2021-2022-o'quv yilidan e'tiboran TDYUda ham majburiy fanlar qatoriga kiritildi.

DAVLAT TILIDA QONUN IJODKORLIGI:
MUAMMO VA YECHIMLAR



Ammo, hozircha ushbu fan uchun o'zbek tili materiallari va O'zbekiston qonunchiligi bilan bog'liq huquqiy matnlar asosida yozilgan o'quv qo'llanma hamda darsliklar juda oz va ushbu bo'shliqni to'ldirish galadagi vazifalarimizdandir.

Г.Ө. Танабаева,

М.Әуезов атындағы Оңтүстік Қазақстан университеті,
ф.ғ.к., доцент, Қазақстан, Шымкент

ЛАТЫН ГРАФИКАСЫНЫҢ ҚОЛДАНУ ТАРИХЫ

Қазақстан Республикасының Президенті Нұрсұлтан Әбішұлы Назарбаевтың 2017 жылды 12 сәуірде «Болашаққа бағдар: рухани жаңғыру» мақаласында: «Біріншіден, қазақ тілін біртіндеп латын әліпбіне көшіру жұмыстарын бастауымыз керек. Біз бұл мәселеге неғұрлым дәйектілік қажеттігін терең түсініп, байыппен қарап келеміз және оған кірісуге Тәуелсіздік алғаннан бері мүқият дайындалдық» деп айтқан еді. 1929 жылғы 7 тамызда КСРО Орталық Атқару Комитеті мен КСРО Халық Комиссарлары Кеңесінің Президиумы латынданырылған жаңа әліпби – «Біртұтас түркі алфавитін» енгізу туралы қауалы қабылдады.

Қазақ жазуы бірнеше рет өзгеріске ұшырады, жазу тарихында қазақ тілінің әліпбі жүйесі бірнеше тарихи кезеңдерді басынан өткізіп, ұлттық әліпбі деңгейіне жеткен. 1929 жылға дейін Қазақстанда араб жазуы пайдаланылды. XX ғасырдың басында Ахмет Байтұрсынұлы ұсынысымен қазақ фонетикасының ерекшеліктері ескеріліп жасалған, араб графикасына негізделген «төте жазу» пайдаланылған. 1929-40 жылдар аралығында латын графикасына негізделген әліпбиді жазу жүйесіне енгізіп, 1940 жылдан бері қарай кирилл графикасы әліпбін қолданып келеді. Мысалы, айта кетсек, Қазақ тілі үшін әр кезеңдерде және әр аймақтарда келесі жүйелер Қазақстан Республикасында - кирилл жазуы негізінде, реңми түрде Қазақстанның бүкіл жерінде және Монголияның Баян-Өлгей аймағында пайдаланылған. Тағы да көршілес Қырғызстан, Ресей, Түркменстан және Өзбекстан елдерін бірыңғай мекендейген қазақ жұрты пайдаланады, сонымен бірге басқа



ыдыраған КСРО республикаларында да пайдаланылады. Сонымен қатар Түркия, Германия, АҚШ т.б. батыс елдерінде қазақ диаспорасы әртүрлі қалыпты емес латын жазуын пайдаланады.

Ағартушы-педагог ғалым Ахмет Байтұрсынұлы айтып кеткендей, «Ұлттың сақталуына да, жоғалуына да себеп болатын нәрсенің ең қуаттысы – тілі» деген. Алаш қайраткерлері де латын әліпбін жазу-сызуда қолданды. Бұл бізге таңсық дүние емес. Латын әліпбін әлемде кеңінен қолданылады. Латын әліпбіні 6.3.б. VII ғасырда Римде грек және этрус әліпбінің тармағы ретінде пайда болып, б.з. I ғасырда қалыптасқан. Орта ғасырда латын әліпбін Еуропаға тарады. Африка, Америка және Азия халықтары пайдаланды. Қазіргі латын әліпбіндегі 25 әріп бар. Дауысты дыбыстар е әрпі созылыңқы және қысқа айтылуына байланысты мысалы: Liber - тәуелсіз, Liber – кітап сөздердің мағыналары өзгереді.

Түркияның ғалымы Әбдіуақап Қара өзінің «Латын әліпбі қазақ тілін еркіндікке шығарады» атты мақаласында Түркия халқы латынға 1928 жылы өткенімен онда бар-жоғы 29 әріп бар. Олардан бірқатар дауыстылар ескерілмегенін бүгінгі ғалымдар айтып отыр. Негізі түркі тілдерін 34 таңбамен белгілеуге болады. Бүгін түркі латын әліпбіндегі 5 әріп кем болып отырғанын айтады. Тіл ғалымдары, солардың ішінде ең ұтымды алфавиттің Қазақстан қолданған кирилл әліпбін екенін айтуда. Мәселен, түркі ғалымы Хатиже Ширин Ұсер қазақ-кирилл әліпбін өзге түркі-кирилл алфавитіне қарағанда, таңбаның графикалық және фонетикалық түрғыдан бір-бірімен байланысты болуы және бір дыбысқа бірден көп таңба берудің болмауына байланысты мүқият дайындалғанын айтады. Бұл түрғыда қазақ-кирилл әліпбін дайындаған тіл ғалымы С.А. Аманжоловтың рөлінің зор екендігін атап өтеді.

Бүгінгі күнге дейін Тіл саласының білікті мамандары латын қарпіне негізделген қазақ әліпбінің жобаларын



жасауда қызу талқылауда ойларын да айтып бөлісті. Айта кетсек, солардың бірі - филология ғылымдарының докторы, профессор Әлімхан Жұнісбектің пікірі: «Латын әліпбіне көшудің қыыншылығы қазіргі біздің қолданып жүрген әліпбіміз қазақтың төл әліпбі емес, орыс тілімен араласып кеткені, бізге өзге тілден енген дыбыстар араласып кетсе онда кедергілер туындастынын, латын әліпбіне төл дыбыстарымызды баптал, соның аясында көшуін және қазақ жазуына тек әліпби ауыстыру ғана емес, түбегейлі реформа керек екенін, ол реформа үш мәселені дыбыс, әліпби және емле ережені бірдей қамтиды – деп айтты. Эрине, ұлт үшін маңызды өзекті мәселелердің оңды шешілуіне қосып отырған кәсіби білікті мамандардың пікірлері ескеріліп, латын қарпіндегі қазақ әліпбін жасалу жолдарына қатысты өрбісе және басқа жоғарыда аталған елдердің тәжірибесіне қарап салыстыра отырып жасалса құба-құп болар еди.

Қазіргі уақытта үялды телефондарда жарнамалар, хабарламалар латын әліпбімен жазылуда. Сонымен қатар, интернет желісінде де латын әліпбіне аударатын транскрипция орнатылған, бірақ орыс графикасында ғана жасалған, болашақта қазақ графикасында жасалады деген ойдамыз. Латын әліпбіне көшуде осындағы бастапқы жұмыстар атқарылып отыр.

Жалпы, жазу, әліпби ауыстырудың үлкен саяси мәні бар мәселе. Екінші жағынан бұл тек қана саясат емес, бұл - тілдің таза лингвистикалық мәселелерді шешу үшін қажетті жағдай. Ең алдымен, отарсыздану бағытын дұрыс жүргізу үшін бұл жазу ауыстырудың әліпби ауыстырудың маңызы өте зор. Оны айтып отырғанымыз біздің көптеген тілдегі емле, ережелеріміз, тілге қабылдаған әліпбіміздегі таңбалар кирилл әліпбінен алынған. Кеңестік кезеңде солай алынғандықтан біздің қазақ тілінің төл дыбыстарын таңбаламайтын басы артық таңбалар тілімізде қалып



қойды. Осы сөздерде, енді біз қазақтың өзінің дыбыстық жүйесіне, айту мәнеріне сай жазамыз дейтін болатын болсақ, бұрынғы кирилл әліпбін пайдаланып қалған адамдар оны қабылдай қоймайды. Ал латынға көшкен жағдайда, сөздер жаңа латын әліпбимен жазылғанда жұрттың бәрі оны жаңадан қабылдайды. Жаңа сөз ретінде, жазылуын орфографиялық норма ретінде қабылданап көзі де үйренеді. Бұл, әсіресе, тілдегі басы артық дыбыстардың, сөздердің, дұрыс жазылуын, қазақша дыбысталуын қамтамасыз ету үшін, тілдің өз табиғаты үшін керек. Жазу ауыстырудың жағымды жақтары мен қындықтары да бар. Жағымдысы - тілдік ерекшелігіміздің сақтау, әлемдік интеграция, ақпарат алу мүмкіндігіміздің артуы. Өйткені латын жазуы ағылшын тілі сияқты әлемге кең тараған әліпби екеніне дау жоқ. Сол арқылы біз қазіргі интернет желісінде ақпарат алуда ғылым, білім саласында осы кеңістікке көбірек кіріп, жастарымыз да тануға, тез окуға, ақпарат алуға мүмкіндігі артады. Екінші жағынан, бұл - түрк әлемі мен Қазақстанның бірігуі. Туркия, Әзербайжан, Өзбекстан сияқты елдердің жазуымен бір болғаны - біздің еліміз үшін тиімді. Әрине, қындықтары да бар екенін ашық айтуымыз керек. Тәуелсіздіктің 20 жылдығының өзінде қазақ мектептерінде, жоғарғы оқу орындарына көптеген оқулықтармен қамтамасыз етілмей жатқан жағдайлары бар. Ал ертең жазу ауыстырылған күннің өзінде қазіргі латын тілінде жазылған бастауыш мектептің, орта мектептің, одан кейінгі жоғарғы оқу орындарындағы оқу құралдарын, көркем әдебиетті бір күнде аударып таставу өте қынға соғады.

Тіліміздің шұбарланағып, қазіргі таңдағы жастарың мәңгүрттеніп бара жатқандығына алаңдаушылық білдірген зиялды қауым өкілдері мен бұқара халық Елбасының бұл бастамасына қос қолдап қолдау көрсетіп, өте оңтайлы шешім деп қабылдаған. Жалпы, латын әліпбінің енуімен қатар қазақ тіліне бірқатар реформа жасалу қажет екенін



тіл мамандары көptен айтып жүр. Фонетик ғалымдар, бір кездегі Алаш азаматтары, Абай заманының адамдары тіріліп келсе, бізben түсінісу оңай болмасын айтушы еді. Себебі табиғаты бөлек кирилл алфавиті қазақтың дыбысын, сөзін, керек десеңіз, акустикасы мен сөйлеу аппараттарын, тіл мен жақ, сол арқылы бет пішініне дейін өзгертіп жібергені ғылыми түрғыдан дәлелденіп жатыр. Фонетик ғалымдар қазақ тілінің табиғаты үнемділікті сүйеттінін, алайда қазіргі кезде сол сингармонизм заңдылығының бұзылғанын жиі айтатын. Қарап отырсақ, кирилл алфавиті бойынша 42 әріп болса да сөздердің қазақы дыбысталуы толық жузеге аса алмайды.

Бір ғана мысал, қазақтың сөздерінде алғашқы буында кездескен еріндік дауыстылар сөздің соңына дейін, керек десеңіз, келесі сөздерге де ықпалын көрсетіп, жалғасып отырған. Мысалы «жүрек», «дүкен», «өмір», «қөнілім», «көлемді» деген сөздер таза қазақы дыбысталаса: «жүрөк», «өмүр», «дүкөн», «қөңүлүм», «көлөмдү» болуы керек. Бұл – бір ғана еріндік дауыстыларға қатысты дыбыстық ықпалдың түрі. Мұндай үнемділік заңдылығы қатаң сақталған тілде сөйлеуші адам оңайлықпен шаршамайды. Себебі сөйлеуші аппараттар, тіл мен жақ әлдеқайда аз қымылға ұшырайды. Қыскасы, бәрі де есептеулі. Осы жерден тағы бір сұрақ туындейды: алдағы болашақта латын әліппесіне көшетін болсақ, қазақ тілінің осы табиғи ерекшеліктері ескеріле ме? Ескерілмейтін болса, кирилл әріптерінің 70-80 жылдық зардабы ары қарай да жалғаса бермек. Яғни тіл мен жақ, үн мен сөз – ары қарайда өзгерістер мен ауытқуларға ұшырай береді деген сөз. Мынау орфоэпиясы, мынау орфографиясы деген сияқты жаңа ережелер көбейеді. Бұлай болмасын десек, сөздер қалай дыбысталуы қажет болса, солай таңбалануы тиіс. Мұндай тілдік тәртіпті енгізу дің ұрымтал тұсы – осы латын әліпбійінің жаңа үлгісін енгізу сәті. Сонымен қатар, дәріс беретін топтарда байқағанымыз, диктант жазғанда



телефондағыдай орыс алфавитимен жазады, мысалы егер смартфонда қазақ әліппесі болмаса орысша жазамыз, ал осы үрдіс олардың жазу сауаттылығында қалыптаса бастағаны байқалады, қазақтың төл әріптерін орыс әріптерімен береді : тіл-тил, қазақ-казак, сөз-соз, т.б. бұл да интернет пен телефон жазбасының әсері

1940 жылы орыс тілінің дыбыстары үшін қосымша 13 әріп кіргізілген 42 әріптік кирилл графикасы негізіндегі әліпбиге аудыстырылды, осы реформа қазақ тілінің ерекшеліктері ескерілмей жүргізілді, ол қазақ мәтінінде ендірілген орыс сөздерін жазу мен оқуды орыс тілінің нормасына сәйкес орындауды талап етті. Нәтижесінде қазақ тілінің айтылым және жазылым емделерінде көптеген шытырмауық жиналып, ана тіліміздің табиғи заныңдылықтары бұзылды (мысалы, орыс тілінің дауысты «и» және «у» дыбыстарының қолдануын қарастырсақ, онда «и», «у» дауыстыларына аяқталатын «би», «ми», «бу», «су» сияқты сөздердің жіктелуінің үшінші жағында «би+и», «ми+ы», «бу+ы», «су+ы» болады. Бұлар қазақ тіліндегі «і» және «ы» жалғауы дауыссыздармен аяқталатын сөздерге жалғанады, ал дауыстыларға аяқталатын сөздерге «сі» және «сы» жалғауы жалғанады деген ережеге қайшы болады. Егер қазақ тілінде «и» және «у» дыбыстарын дауыссыздар деп есептесек, онда «би», «ми», «бу», «су», «ту» деген сөздерде бір де буын болмайды екен. Осыдан мынадай 2 ұпрақ туады: «Жалғауды жалғау ережесі дұрыс па?», «Бір де буынсыз сөз бола ма?»). Ащы -ашшы (а мен щ үндеспейді) Тұщы -тұшшы (ү мен щ үндеспейді)

Осы күнге шейін қазақ тіліне қатысты бір-біріне қарама-қайшы оқулықтар мен ғылыми еңбектер шығуда. Бұлар мемлекеттік тілдің дамуына кедергі болып тұр. Осы айтылғандар қазақ тілінің жазуына жаңа реформа жасау керектігін айғақтады. Реформаны қазақ тілінің дыбыстық жүйесіне негіздел, ақпараттық технологияларды оңай



пайдалану және оларды тиімді жасауға мүмкіндік беретін латын әліпбійне көшіп жасау керектігі айқын. Реформа жүзеге асыру кезінде қазақ тілінің жаңа орфографиялық, орфоэпиялық, морфологиялық және синтаксистік ережелерін анықтап, оны компьютермен өндейтін технологияларды жасап, білім берудің барлық деңгейіне арналған оқу құралдарын дайындау қажет.

Еліміздің латын әліпбійне көшу үлттымыз үшін жасалған маңызды қадамдардың бірі. Ұлы Дала елінің тарихына көз жүргіртсек, бірінші тұғыры байлық – жер, екіншісі – тіл, үшіншісі – мемлекет және оның тарихы болуы керектігі айқындалады. Ағартушы-педагог ғалым Ахмет Байтұрсынұлы айтып кеткендей, «Ұлттың сақталуына да, жоғалуына да себеп болатын нәрсениң ең қуаттысы – тілі» деген. Алаш қайраткерлері де латын әліпбійн жазу-сызуда қолданды. Бұл бізге таңсық дүние емес.

Бүгінгі күнге дейін Тіл саласының білікті мамандары латын қарпіне негізделген қазақ әліпбійн қызыу талқылауда ойларын да айтып бөлісті. Латын әліпбійне көшүдің қынышылығы қазіргі біздің қолданып жүрген әліпбійіміз қазақтың төл әліпбі емес, орыс тілімен араласып кеткені, бізге өзге тілден енген дыбыстар араласып кетсе онда кедергілер туындаитынын, латын әліпбійне төл дыбыстарымызды баптап, соның аясында көшуін және қазақ жазуына тек әліпби ауыстыру ғана емес, түбегейлі реформа керек екенін, ол реформа үш мәселені дыбыс, әліпби және емле ережені бірдей қамтиды.

Қазақ тілінің мемлекеттік тіл статусына сәйкес елімізде жасалынып жатқан электрондық ақпараттық ресурстар қазақ тілінде болғаны жөн. Ақпараттық ресурстарды жасау көп қаржы мен жұмысты талап ететін үдеріс болғандықтан, оларды барлық компьютердің пернетақталарында бар 26 әріптік классикалық латын әліпбійнде жасаған тиімді.



Себебі, оларды басқа ұлттық әліпбиде жасау үшін қосымша қаржысыз әзірленбейтін шрифтер, драйверлер және сұрыптау мен іздеу программаларын қолдану қажет. Ғаламдану дәүірінде ғаламдық ақпараттық кеңістіктің бір ғана ортақ әліпбі болғанын қалап, көптеген елдерде ақпараттық ресурстарды классикалық латын әліпбиденде жасау мәселесі талқыланып жүр.

Қазақ тілінің 28 төл дыбысы бар, оның ішінде 9 дауысты және 19 дауыссыз. 1929 жылғы реформа кезінде дауыссыз “хы” дыбысы қосылып, жалпы дыбыстар саны 29 болды. Олар қолданыстағы әліпбиде былай таңбаланады: а, ә, е, о, ө, ү, ұ, ы, і – дауыстылар; б, ғ, ғ, д, ж, з, й, қ, қ, լ, м, н, ң, п, р, с, т, у, ш, һ – дауыссыздар (мұнда а, о, ү, ы, е – фонемалар, ал ә, ө, ү, і – олардың алафондары және ғ-ғ мен қ-қ – бір дыбысқа біріккен бір фонеманың үндесім түрлері). Ал 1940 жылғы реформа кезінде орыс тілінен 11 дыбыс енген, олар орыс қолданыстағы әліпбидев, ё, и, ى, ч, ҹ, ф, ҳ, ә, ю, ядеп белгіленеді. Кейінгілердің ішінде қазақ тілінің фонологиялық заңдарын бүлдірмейтін в, х және ф дыбыстарына тоқталайық. Оның біріншісі адамдардың тегін (фамилиясын) жазуда кеңінен қолданып кеткен. Сонымен қатар, қазақ тіліне аударылмай етene еніп кеткен «валюта, вакуум, вакцина, вариант, вектор, вексель, викторина, вирус, виртуал, вице, вокал», «хаки, хаос, химия, хлор, хроника, хром, хрусталь» және «факт, факультет, фаза, файл, фауна, федерация, фельетон, физика, филармония, фильм, фонетика, формула, фракция, функция» сияқты көптеген термин сөздердің маңыздылығын ескеріп, кірме в, х және ф дыбыстарын қазақ дыбыстарының қатарында қалдыруға болады деген ой келеді. Бұдан қазақ тілі зиян шекпейді, қайта ол халықаралық терминдердің дұрыс айтылуына көмектеседі. Ал, ч дыбысы жаңа әліпбиге енгізілгенмен, қазақ тілінде сирек қолданылады. Сонымен, қазақ тілінде 32 дыбыс болады, олар: а, ә, б, в, ғ, ғ, д, ж, з, е, й/и, қ, қ, լ, м, н, ң, о, ө, п, р, с, т, у, ү, ү, ф, ҳ, ә, ш, ы, і, ч



Осы уақытқа дейін латын графикасына негізделген жаңа қазақ жазуы ұш рет өзгертілді. Екі нұсқасы туралы сыйн-пікірлер көп айтылды, сол ескертулермен ол алғынып тасталды, сондықтан оған қайта-қайта тоқталу, сыйнау орынсыз. Ал, жаңа қабылданған нұсқа әліпбі қазақ тілінің жазудастыруіндегі орныққан «бір дыбыс – бір әріп» принципіне толық сәйкес келеді. Жаңа әліпбиге кезең-кезеңімен көшу 2023 жылдан бастап 2031 жыл аралығында жоспарланып отыр.

Бүгінгі компьютер заманында интернет жүйесінде ұстемдік ететін латын әліпбі екендігін мойындауымыз керек. Бәріміздің электрондық поштамыз бар. Ол поштамыз кирил, араб, немесе басқа емес, латынмен жазылған. Астымыздағы көлігіміздің нөміріндегі әріптер латынмен берілген. Куәлігіміз бен паспортамызда латын әліпбі тұр. Осындағы мысалдарды көптеп келтіре беруге болады. Яғни латынәліпбібізгетаңсықемес. Ол біздің қоғамға еніпкеткен. Оны еліміздегі кез келген сауатты адам белгілі дәрежеде біледі. Ал латынның бізге берері дегенде толып жатқан тиімді тұстарын көрсетуге болады. Латынға көшкенімізде ұтатын тұстарымыз төмөндеңдегідей: **Біріншіден**, тіл тазалығы мәселесі. Тіліміздегі қазіргі жат дыбыстарды таңбалайтын әріптерді қысқартып, сол арқылы қазақ тілінің табиғи таза қалпын сақтауға мүмкіндік аламыз. **Екіншіден**, қазақ тілін оқытқан уақытта басы артық таңбаларға қатысты емле, ережелердің қысқаратыны белгілі. Ол мектептен бастап барлық оқу орындарында оқыту үрдісін жеңілдетеді. Уақытта, қаржы да үнемделеді. **Үшіншіден**, латын әліпбіне көшу – қазақ тілінің халықаралық дәрежеге шығуына жол ашады. Қазақ тіліне компьютерлік жаңа технологиялар арқылы халықаралық ақпарат кеңістігіне кірігүте тиімді жолдар ашылады. **Төртіншіден**, тубі бір түркі дүниесі, негізінен, латынды қолданады. Біздерге олармен рухани, мәдени, ғылыми, экономикалық қарым-қатынасты, тығыз



байланысты күшейтуіміз керек. Ол да табиғи іс екендігін айтқым келеді.

ПАЙДАЛАНЫЛҒАН ӘДЕБИЕТТЕР ТІЗІМІ

1. Байтұрыснов А.Тіл тағлымы. Алматы: Ана тілі, 1992.-448 б.
2. Қайдаров А.Т. Структура односложных корней и основ в казахском языке. -Алма-Ата: Наука, 1986. -328 с.
3. Мырзабеков С. Қазақтіліфонетикасы. – Алматы: Қазақуниверситеті, 2004.- 247 б.
4. Сыздықова Р. Емле және тыныс белгілері . – Алматы: Рауан, 1996.-285 б.
5. Рәбиға Сыздық. Қазақ тілінің анықтағышы (емле, тыныс белгілері, сөз сазы). Астана: Елорда, 2000, - 532 б. ISBN: 9965-06-023-1
6. Джусупов М. Фонемография А.Байтурсынова и фонология сингармонизма.-Ташкент: Узбекистан, 1995.-176 с.
7. Джунибеков А. Сингармонизм в казахском языке. – Алматы: Наука, 1980.-78 с.
- 8.. Жұбанов Қ. Қазақ тілі жөніндегі зерттеулер. -Алматы: Фылым, 1999.-581б.
9. Сауранбаев.Н.Т. Қазақ тіл білімінің проблемалары.-Алматы: Фылым, 1982.-351 б.
10. Балақаев М., Серғалиев М. Қазақ тілінің мәдениеті. – А: Зият Пресс, 2004-140 б.
11. Уалиев Н. Фонологические основы казахской графики и орфографий АКД. – Алматы: 1993.-21 с.
12. Мырзабеков С. Қазақ тілінің дыбыс жүйесі.- Алматы: Сөздік-Словарь, 1999.-200 б.

Х.С.Хайитов,
Ўзбекистон Республикаси Президенти хузуридаги
Давлат бошқаруви академияси кафедра мудири,
юридик фанлар доктори, доцент

ҚОНУН ЛОЙИҲАЛАРИНИ ЙУРИДИК-ЛИНГВИСТИК ЭКСПЕРТИЗАДАН ЎТКАЗИШ МЕХАНИЗМЛАРИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ МАСАЛАЛАРИ

Бугунги кунда қонун ва норма ижодкорлиги жараёнида экспертилк хизматларидан фойдаланишининг эҳтиёжи, миқдори ва сифати сезиларли даражада ошиб бораётганлигини кўриш мумкин. Албатта, мазкур объектив зарурат бўлиб, давлат ҳокимиятининг турли даражаларида жамият ва давлатнинг ривожланишини таъминлашга қаратилган чора-тадбирларни амалга ошириш бўйича норматив-хуқуқий ҳужжатларни қабул қилишда хавф-хатарларни камайтириш, сиёсий, ижтимоий, иқтисодий, мудофаа, экологик, технологик ва ахборотга оид хавфсизликни таъминлаш ғоят муҳим ҳисобланади.

2017–2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегиясининг биринчи устувор йўналишлари қаторида қабул қилинаётган қонунларнинг амалга оширилаётган ижтимоий-сиёсий, ижтимоий-иқтисодий ва суд-хуқуқ ислоҳотлари жараёнига таъсирини кучайтиришга йўналтирган ҳолда қонун ижодкорлиги фаолияти сифатини тубдан ошириш вазифаси долзарб вазифа сифатида белгиланган¹. Шу боис, сўнгги йилларда норма ижодкорлигига бир қанча янги талаблар ва стандартлар жорий этилмоқда. Айниқса, норматив-хуқуқий ҳужжатлар лойиҳалари экспертизаси турлари ва амалиёти кенгайиб бормоқда.

¹ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги Фармони // Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2017 й., 6-сон, 70-модда

DAVLAT TILIDA QONUN IJODKORLIGI:
MUAMMO VA YECHIMLAR



Қонун ижодкорлигига экспертиза ўтказиш механизми-ни ривожлантириш қонунчилек ҳужжатлари сифати ва қо-нун ижодкорлиги самарадорлигини таъминлашга хизмат қиласи. Шу боис, 2018 йил 8 августда тасдиқланган Норма ижодкорлиги фаолиятини такомиллаштириш Концепциясида эксперт ҳамжамияти билан маслаҳатлашиш ва улар-нинг салоҳиятидан норматив-хуқуқий ҳужжатлар лойиҳаларини ишлаб чиқиши жараёнида фойдаланишнинг сама-рали механизмларини яратиш устувор вазифалардан бири сифатида белгиланган¹.

Қонун ижодкорлигига экспертиза амалиётининг кен-гайиши ижобий ҳолат бўлиб, у кўпгина қийинчиликларни бартараф этади ва қонуншуносни зарур ахборот билан таъ-минлашга хизмат қиласи. Бу ҳақда мутахассис Д.В.Чухвичев тўғри таъкидлаганидек, “Норматив-хуқуқий ҳужжатлар лойиҳалари тайёрлашда маҳсус билим ва малакаларни та-лаб этадиган экспертизанинг ўтказилиши қонун лойиҳаларини такомиллаштиришга ва камчиликларни бартараф этиш мақсадига эгалиги билан тавсифланади”² [2].

2021 йил 20 апрелда қабул қилинган Ўзбекистон Республикаси “Норматив-хуқуқий ҳужжатлар тўғрисида”ги Қонунида норматив-хуқуқий ҳужжат лойиҳаси хуқуқий ва коррупцияга қарши экспертизалардан ўтказилиши шарт эканлиги белгиланди. Шунингдек, норматив-хуқуқий ҳужжат лойиҳаси ишлаб чиқувчининг ёки норматив-хуқуқий ҳужжат қабул қилиш хуқуқига эга бўлган органнинг қарорига кўра иқтисодий, молиявий, илмий, лингвистик, экологик экспертизадан, шунингдек бошқа турдаги экспертизалардан ўтказилиши мумкин эканлиги таъкидланган³.

¹ Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 08.08.2018 й., 06/18/5505/1639-сон.

² Чухвичев, Д.В. Законодательная техника / Д.В. Чухвичев. – М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2014.

³ Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 20.04.2021 й., 03/21/682/0354-сон)



Эътиборга молик жиҳати шундаки, илк маротада норматив-хуқуқий ҳужжатлар лойиҳаларини, шунингдек уларга иловачилинадиганаҳборот-таҳлилий материалларни юридик-техник жиҳатдан расмийлаштиришнинг Ягона услубиёти қонун асосида тасдиқланди. Мазкур Ягона услубиётда қонун лойиҳалари матнига оид муҳим талаблар белгиланган.

Унга кўра, лойиҳанинг матни лўнда, оддий ва равон тилда баён этилган бўлиши керак. Лойиҳанинг матни турлича шарҳлаш ва талқин қилинишларга олиб келмаслиги керак. Лойиҳанинг жумлалари расмий тил услубидан ва юридик атамалардан фойдаланилган ҳолда, умумий қабул қилинган грамматика, имло ва пунктуация қоидаларига мувофиқ тузилади.

Шунингдек, лойиҳанинг матнида жумлаларнинг соддалиги ва қисқалиги, таърифнинг аниқлиги, баён этишнинг тизимилилиги ва кетма-кетлиги талабларининг белгилanganлиги қонунлар сифатини таъминлашда муҳим аҳамиятга эга.

Бундан ташқари, лойиҳада унга илова қилинадиган ахборот-таҳлилий материалларда қуидагиларнинг қўлланилишига йўл қўйилмайди:

офзаки нутқ шакллари;

давлат тилида тенг маъноли сўзлар ва тушунчалар мавжуд бўлган тақдирда, чет тиллари атамалари;

эскирган ҳамда кўп маънони англатадиган сўзлар ва иборалар, мажозий таққослашлар, сифатлашлар, киноялар;

аббревиатура ва қисқартмалар (бундан умумий қабул қилинган аббревиатура ва қисқартмалар, шунингдек қонуности ҳужжатларининг иловаларидағи ташкилотларнинг қисқартирилган номлари мустасно).

Юқоридагилардан ташқари мазкур Услубиётда қонун тилига оид бошқа муҳим талаблар ҳам борки улар қонуншуносга қонун тилига оид талабларни тушунишга кўмак беради.



Қонун лойиҳаси тилшунослик экспертизасидан ўтказилишида Ўзбекистон Республика Вазирлар Маҳкамаси томонидан тасдиқланган Норматив-хуқуқий ҳужжатлар лойиҳаларини лингвистик экспертизадан ўтказиш тартиби тўғрисидаги низом муҳим аҳамиятга эга. Ушбу ҳужжатга кўра, 2023 йил 1 январдан норматив-хуқуқий ҳужжатлар лойиҳалари вазирлик, идоралар билан келишишдан олдин лингвистик экспертизадан ўтказилади¹. Ўйлаймизки, ушбу тартибининг жорий қилиниши қонунчилик ҳужжатлари лойиҳаларининг тили сифатини муҳокамаларнинг дастлабки босқичдаёқ яхшилашга хизмат қиласди.

Лингвистик экспертиза лойиҳани ишлаб чиққан ташкилот раҳбарининг маслаҳатчиси томонидан лойиҳада жумлаларнинг соддалиги ва қисқалиги, таърифларнинг аниқлиги, имло, услубий, грамматик ва орфография қоидаларига мослиги, янги атамалар, шунингдек, соҳа атамаларининг тўғри қўлланилганлиги, сўз бирикмаларининг ўзаро тўғри боғланганлиги, баённинг тизимлилиги ва ифодали кетма-кетлиги каби талабларга риоя этилганлиги текширилади.

Таъкидлаш жоизки, “Ҳар қандай қонун лойиҳаси тилшунослик экспертизасидан ўтказилиши зарур. Чунки, ҳар қандай қонун норматив-хуқуқий ҳужжат бўлиши билан бир қаторда у тил маҳсали ҳисобланади. Қонун мазмунини ифода этиш юридик тил орқали амалга оширилади. Шу сабабли қонунлар сифатини таъминлаш учун тил меъёрларига қатъий асосланиш лозим. Аммо бунга эришиш ҳар доим ҳам осон бўлмайди. Айниқса қонун лойиҳасида мураккаб юридик тил услуги ва атамаларини ишлатишда қонуншуносга муайян қийинчилик тўғдириши табиий ҳол”².

¹ КММБ: 09/21/662/1001-сон, 28.10.2021 й. Манба: www.lex.uz/pdfs/5701504

² Khayitov Kh.S. Legal and linguistic expertise draft of laws: theoretical-legal analysis // International Scientific Journal // ISPC Technological breakthrough in science, Philadelphia, USA. – № 04 (48) 2017. – P. 154.



Бундай шароитда маҳсус чуқур тилшунослик билимларга эга мутахассиснинг ёрдами зарур. Шу боис қонуншунос заруратга қараб тил билан боғлиқ муаммоларни мукаммал ҳал этиш учун қонун лойиҳаларини юридик-лингвистик экспертизасини ўтказиш мақсадга мувофиқ бўлади.

Яна бир жиҳатига тўхталиш жоиз. Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги томонидан 2021 йил 24 февралдаги 2-мҳсон буйруқ асосида тасдиқланган Норматив-хуқуқий хужжатлар ва улар лойиҳаларининг коррупцияга қарши экспертизасини ўтказиш тартиби тўғрисидаги Низом қабул қилинган бўлиб, мазкур низом норматив-хуқуқий хужжатлар ва улар лойиҳаларининг коррупцияга қарши экспертизасини ўтказиш тартибини белгилайди¹.

Ушбу низомга илова сифатида Норматив-хуқуқий хужжатлар ва улар лойиҳаларида коррупциявий омилларни аниқлаш Методикаси ҳам берилган бўлиб, у лойиҳаларни коррупцияга қарши экспертиза қилишда муҳим ёрдамчи вазифасини ўтайди.

Эътиборлиси, норматив-хуқуқий хужжатлар лойиҳала-рида жисмоний ва юридик шахсларга ноаниқ, бажарилиши қийин бўлган ва (ёки) оғирлаштирилган талабларнинг мавжуд эканлиги коррупциявий омил сифатида эътироф этилади. Шундан маълумки, норматив-хуқуқий хужжатлар лойиҳаларида тушуниш қийин бўлган ёки мавҳум, ноаниқ тушунча ва ибораларнинг кўлланилиши коррупцияга сабаб бўлиши билан бирга лойиҳа сифатини пасайтиради ҳамда нормаларни амалда қўллашда муаммоларни юзага келтиради.

Бу ҳақда, мутахассис В.Н.Южаков ҳам норматив-хуқуқий хужжатлар лойиҳаларида одатий қўп учрайдиган коррупциявий омил сифатида юридик-лингвистик

¹ Қонун хужжатлари маълумотлари миллий базаси, 24.02.2021 й., 10/21/3287/0153-сон



омилларни эътироф этган ҳолда уни қуидагича изоҳлайди: “Норматив-хуқуқий ҳужжат лойиҳасида икки хил маъно англатувчи ёки ўзгарувчан атама, тушунча ва ибораларнинг қўлланилиши ёхуд юридик техниканинг умумэътироф этилган қоидаларининг бузилиши коррупциявий омилнинг мавжудлигидан далолат беради ҳамда давлат ва маҳаллий мансабдор шахсларнинг ихтиёридаги ваколатларнинг (асоссиз) кенгайиб кетишига сабаб бўлади”¹.

Хукуқшунос олим Д.А.Керимовнинг таъкидлашича “Ижтимоий амалиётнинг бошқа соҳаларидан кўра қонун ижодкорлигида матнни нотўғри ифодаланиши ноаниқ ёки ноўрин сўз жуда оғир, баъзан фожиали оқибатларга олиб келади. Қонун мантигининг бузилиши, уни ноаниқ ифодаланиши, терминларнинг ноўрин ишлатилиши кўпдан кўп сўровларни келтириб чиқариб, қўшимчалар киритишлар, шарҳлаш ва тушунтиришлар талабини келтириб чиқаради, бунга ортиқча вақт, куч ва энергия талаб этилиб, бюрократик оворагарчиликларга замин яратади, қонун матнини нотўғри талқин қилинишига ва нотўғри қўлланишига олиб келади. Қонунлар матни қанчалик мукаммал бўлса, унинг қўлланилиши шунчалик осон бўлади”².

Албатта юридик тил жиҳатдан сифатли лойиҳаларни тайёрлашда ушбу турдаги экспертизани ўтказиш муҳим аҳамият кассб этади. Мазкур экспертиза орқали қонун лойиҳаси матни тузилиши ва унинг мазмунидаги айrim стилистик, лексик, мантиқий ҳамда грамматик хатолар бартараф этилади. Бир сўз билан айтганда, қонун лойиҳаларининг юридик-лингвистик экспертизаси матннинг сифатли бўлишини таъминлайди. “У лойиҳани

¹ Южаков В.Н. Антикоррупционная экспертиза нормативных правовых актов: методика, опыт и перспективы. – М.: Вопросы государственного и муниципального управления. 2008. № 2. – С. 26.

² Керимов Д.А. Культура и техника законотворчества. – М.: 1991. – С. 55.



кўриб чиқишнинг барча босқичларида зарур, чунки тилдаги хато ва камчиликлар, лингвистик жиҳатдан ғализ таърифлар лойиҳани, унинг асосий қоидалари ва концепциясини ишлаб чиқиш ҳамда самарали муҳокама қилишни қийинлаштиради”¹.

Мамлакатимизда қонун ижодкорлигининг барча босқичларида юридик-лингвистик таҳлил ёки маҳсус экспертиза ўтказилади. Жумладан, Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги ҳам қонун ижодкорлиги соҳасида муҳим вазифаларни бажаради. Яъни, вазирлик қонунчилик ижодкорлиги соҳасида ягона давлат сиёсатини амалга оширади. Шу билан биргаликда, Ўзбекистон Республикаси Президенти, Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг топшириқлари бўйича ва ўз ташаббусига кўра қонун ва бошқа норматив-хуқуқий хужжатлар, уларга ўзгартириш ва қўшимчалар киритиш тўғрисидаги лойиҳаларни ишлаб чиқади ва уларни қонунчилик техникаси қоидалари талабларига мувофиқлигини таъминлайди.

Бундан ташқари, қонунлар ва бошқа норматив-хуқуқий хужжатлар лойиҳаларини уларнинг Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси, қонун хужжатларига, мамлакатда олиб борилаётган ислоҳотларнинг мақсад ва вазифаларига, шунингдек қонунчилик техникаси қоидаларига мувофиқлигини аниқлаш юзасидан таҳлил қиласи ва хуқуқий экспертизадан ўтказади.

Ушбу таҳлил (экспертиза) Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси ҳузуридаги Қонунчилик муаммолари ва парламент тадқиқотлари институти, Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги ҳузуридаги Ҳуқуқий сиёсат тадқиқот институти, Олий Мажлис Қонунчилик палатаси ва Сенатида қабул қилиш ва маъқуллаш жараёнида ҳам ўтказилади. Қайд этиш жоизки, Ўзбекистон Республикаси

¹ Абдуллаев Б. Юрислингвистик экспертиза – қонунлар мукаммаллигининг омили // Ҳуқуқ ва бурч – Тошкент: – 2008. – № 11. – Б. 40.



Олий Мажлис Қонунчилик палатасида қонун лойиҳалари ни юридик-лингвистик таҳлилдан ўтказишда Юридик бошқарма, Лингвистик экспертиза ва таҳририят бўлими ва Норматив-хуқуқий атамалар комиссияси мухим ўрин тулади. Сенат томонидан маъқулланган қонунлар Ўзбекистон Республикаси Президентига имзолаш ва эълон қилиш учун юборилади. Қонун имзоланиши ва эълон қилинишдан аввал Ўзбекистон Республикаси Президенти девонида ҳам тегишлича экспертизадан ўтказилади.

Энди хорижий мамлакатлар тажрибасига эътибор қаратадиган бўлсақ, ушбу экспертиза турига жиддий эътибор қаратилганлигини кўриш мумкин. Айниқса, кўпгина хорижий мамлакатлар хуқуқ ижодкорлигида юридик тил масалаларига жиддий қаралади. Буни Германия тажрибаси мисолида ҳам кўриш мумкин. Жумладан, Германия Федератив Республикаси Асосий қонунинг 76-моддасига кўра, қонун лойиҳалари Бундестагга Федерал ҳукумат, Бундестаг аъзолари ёки Бундестрат томонидан киритилиши мумкин¹. Германия парламентида қонун лойиҳалари устида босқичма-босқич узоқ иш олиб борилади. Федерал ҳукуматнинг қонун лойиҳалари дастлаб манфаатдор федерал вазирлик розилигини олиш ва жорий қонунчиликка ҳамда қонунчилик техникаси қоидаларига мос келишини аниқлаш учун Федерал Адлия вазирлигига юборилади. Федерал Адлия вазирлиги қонун тили ва юридик техника бўйича эксперт текширувини ўтказади.

Шунингдек, Бундестагда кўриб чиқилаётган қонун лойиҳалари юзасидан юридик-лингвистик экспертиза ўтказиш парламентнинг Тил хизмати томонидан амалга оширилади. Унга кўра, Тил хизмати оғзаки ва ёзма таржималарни амалга ошириш, тил бўйича машқлар

¹ Германия Федератив Республикасининг Асосий қонуни, - Тошкент: Инсон хукуқлари бўйича Ўзбекистон республикаси Миллый маркази, 2005. - Б. 85.



ўтказиш, парламент лексикаси ривожланиш кабиларни амалга оширади¹.

Буюк Британиянинг қонун ижодкорлиги англо-саксон ҳуқуқ оиласига мансуб бўлиб, бу ерда ҳуқуқнинг асосий манбаи суд прецеденти ҳисобланади. Ушбу давлатда суд органлари фаол ҳуқуқ ижодкорлиги билан шуғулланадилар. Шу боис қонунларни юридик-лингвистик таҳдил этишда нафақат парламент балки судларнинг ҳам фаол иштирок этиши талаб этади. Судлар муайян вазиятга баҳо берар эканлар мавжуд қонунчилик ва суд прецедентидан фойдаланиб адолатли қарор чиқаришга интиладилар.

Қонунларни шарҳлашда судлар бир қатор қатъий қоидаларга асосланади. Масалан, сўзма-сўз шарҳлашда (Literal Rule) қонун матнидаги сўзлар ва терминларга оддий ва қўпчилик фойдаланадиган сўзлар билан шарҳ беради. Бу соҳада 1978 йилги “Статутларни шарҳлаш ҳақида”ги қонун муҳим аҳамиятга эга. Ушбу қонунда бошқа қонунларда қўлланиладиган қўплаб тушунча ва терминларнинг маъноси берилган. Қонунларни шарҳлашда унда кўрсатилган тушунча ва терминлардан фойдаланиб шарҳлаш лозим. Қонунларни шарҳлашда суд қонунда ишлатилган тушунарсиз ёки қўп маъноли сўз туфайли қийин аҳволга тушиб қолса ҳуқуқ ва адолат нуқтаи назаридан келиб чиқиб қонунни шарҳлаши мумкин².

Шунга ўхшаш қонун АҚШ тажрибасида ҳам учрайди. Жумладан, Нью-Йорк штатида “Қонунларни умумий шарҳлаш ҳақида”ги қонун қабул қилинган бўлиб, унда маҳсус атамаларнинг изоҳи берилган. Бу қонунлардаги атамаларни

¹ Руперт Шик и Вольфганг Це. Так работает Бундестаг (14-созыв) Организация, формы и методы работы Законодательство Федерации. – NDV Neue Dermstadter Verlagsanstalt Rheinbreitbach, 2000. – С. 132.

² Романов А.К. Правовая система Англии: Учебное пособие. – М.: Дело, 2000. – С. 146-149.



бир хилда тушуниш ҳамда қўллаш мақсадида жорий этилган¹.

Франция қонун ижодкорлиги тажрибасида ҳам қонун тили масаласига алоҳида эътибор қаратилганигини кузатиш мумкин. Эътиборлиси, 1972 йилда Франция Атамашунослик қўмитаси тузилган. Қўмитанинг асосий вазифаси сифатида француз тили луғати таркибидаги камчиликларни аниқлаш, янги атамаларни ишлаб чиқиш, бошқа тиллардан ноўрин ўзлашган сўзларни алмаштиришдан иборатлиги белгиланган. Қўмита томонидан ишлаб чиқилган атамалар вазир томонидан тасдиқланиши шарт эканлиги белгиланган².

Шундай қилиб, хорижий мамлакатларда қонун лойиҳалари юридик-лингвистик экспертизаси қонунчилик сифатини таъминлаш воситасида қаралади. Қонун тилининг содда, аник, лўнда ва тушунарли тилда ифода этилишини қонунлар сифати ва мукаммаллигининг муҳим белгиларидан бири ҳисобланади.

Бугунги ислоҳотлар талабларига мувофиқ, қонун ижодкорлигига ушбу экспертиза турини ўтказишининг ташкилий-хуқуқий асосларини такомиллаштириш мақсадида қўйидагиларни амалга ошириш долзарб аҳамиятга эга:

1. Икки ва ундан ортиқ тилларда тайёрланган норматив-хуқуқий ҳужжатлар лойиҳалари матнларининг ўзаро мувофиқлигини лингвистик экспертизадан ўтказишини таъминловчи орган сифатида Адлия вазирлигини белгилаш;

2. Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги Қонунчилик бош бошқармаси таркибида Юридик лингвистика ва таржима бўлимини ташкил этиш;

3. Ўзбекистон Республикаси Қонунчилик палатасида “Тил хизмати” ёки “Юридик лингвистик-экспертиза

¹ Сайдов А.Х., Кўчимов Ш.Н. Қонунчилик техникаси асослари. – Тошкент: Адолат, 2001. – Б. 15-16.

² Қаранг: Journal officiel de Republiqu Francise, 1973. № r.p. 388. Jacques Rigaud, Xavier, Delcros Les instition adminstratives francaises Les strectures. Paris, Dalloz, 1984, – p. 49.



хизмати"деб номланувчи тузилма фаолиятини йўлга қўйиш;

4. Алишер Навоий номидаги Тошкент давлат ўзбек тили ва адабиёти университети, Тошкент давлат юридик университетида Юридик тилшунослик магистратура мутахассислиги бўйича кадрлар тайёрлаш;

5. Қонун лойиҳалари юридик-лингвистик экспертизаси самарадорлигини ошириш мақсадида ушбу йўналишда ахборот коммуникация технологиялари имкониятларидан фойдаланишни кенгайтириш лозим. Масалан, ягона ҳуқуқий атамаларнинг электрон базаси ва уларнинг электрон изоҳли луғати, норматив-ҳуқуқий ҳужжатларга берилган шарҳларнинг электрон базаси кабилар. Бу эса қонун лойиҳаларини ихтисослашган экспертизалардан ўтказиш бўйича ишлар самарадорлигини оширишга хизмат қиласди.

Хулоса ўринида таъкидлаш жоизки, қонун тилининг мукаммаллигига эришиш юридик-лингвистик экспертиза ўтказишнинг механизми ва сифатига боғлиқ жараёндир. Фикримизча, ушбу экспертиза турини ўтказиш нечоғлик сифатли, илмий асослантирилган, холисона ва тизимли амалга оширилиши қонун тилининг барча учун тушунарли бўлишига ҳамда қонунларни амалда қўллаш учун қулай тарзда яратилишига асос бўлади.

A.D.Babadjanov,

Toshkent davlat yuridik universiteti
Magistratura va sirtqi ta'lif fakulteti dekani,
yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

LINGVISTIK EKSPERTIZA TAMOYILLARIGA DOIR MULOHAZALAR

Dunyo sud amaliyotida matn yoki boshqa nutqiy hodisaga huquqiy baho berish tendensiyasi rivojlanib, bugungi kunda uning turli tamoyillari ishlab chiqilmoqda. Nutq hodisasining asl mohiyatini, ma'nosini tushunish va huquqiy talqin etishda ham til, ham huquq normalarini anglagan holda kompleks yondashish talab etilishi hech kimga sir emas. Muayyan matn yoki og'zaki nutqni, uning asl mohiyatini maxsus filologik bilimlarsiz tahlil qilish mumkin bo'limgani kabi huquqiy tafakkur va bilimlarsiz nutqiy hodisaga huquqiy baho berish, umumiy xulosa chiqarish va uning huquqiy mohiyatini belgilash mumkin emas.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda O'zbekiston Respublikasida lingvistik ekspertiza tamoyillarini takomillashtirish vazifasi juda dolzarb hisoblanib, mazkur masalani yanada takomillashtirishda quyidagi masalalarning qamrab olinishini maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

1. Ma'lumki, lingvistik ekspertiza faktlarni aniqlash va ekspertiza uchun yuborilgan savollarga javob berishga qaratilgan nutq faoliyati mahsulotlarini o'rghanish demakdir. Lingvistik ekspertiza jinoyat obyekti haqida tavsiflovchi mulohazanинг haqiqat yoki yolg'onligini belgilashga, yoki jinoyat sifatida talqin qilish imkonи bor yoki yo'qligini aniqlashga yordam beradi. Lingvistik ekspertiza xulosasini berish lingvistik nazariyalarga asoslanadi va lingvistik obyektlarni o'rghanish metodologiyasi bilan huquqiy jarayonlarni omuxtalashtirish asosida ishlab chiqiladi.



2. Lingvistik tekshiruv obyekti - nutq faoliyati mahsullari: so'zlar, matnlar, leksemalar, tovar belgilarining og'zaki belgilari va boshqalar bo'lib, lingvistik ekspertizani o'tkazish uchun amaliy zarurat ko'pincha sud ishlarini ko'rib chiqish va hal qilish jarayonida huquqiy dalillarni aniqlash maqsadida paydo bo'ladi, shu sababli ham ko'pgina mamlakatlarda aksar hollarda "lingvistik ekspertiza" tushunchasi "sud-lingvistik ekspertiza" tushunchasi bilan bir xil ma'noda ishlatiladi.

3. Lingvistik ekspertiza sud ekspertizasining bir turi sifatida isbot vositalarining yuridik ahamiyatga molik faktlarini aniqlash maqsadida vakolatli shaxs (organ) tomonidan belgilanib, mutaxassis-ekspert tomonidan amalga oshirilar ekan, quyidagi masalalarga e'tibor qaratish maqsadga muvofiq deb o'ylaymiz:

a) matnni til nuqtai nazaridan tadqiq etish (gapning semantik mazmunini izohlash maqsadida grammatik tahlil qilish; matnni fonetik, semantik va grafik belgilari bo'yicha tadqiq qilish; agar so'z tovar belgilari nomlaridagi o'xshashlik va intellektual mult masalalari haqida borayotgan bo'lsa, tovar belgilarida dominant semantik elementni o'rnatish va hok.);

b) lingvistik ekspertizaning huquqiy maqsadini hisobga olgan holda tadqiqot olib borish (inson sha'ni, qadr-qimmati va ishchanlik obro'sini himoya qilish bo'yicha ishlarda bahsli nutqiy hodisalarini tekshirish; tuhmatda ayblastish uchun asos bo'lishi mumkin bo'lgan nutqiy hodisalarini tekshirish; matn yoki og'zaki nutqlarni haqarat qilish, sudga humatsizlik, davlat mansabdor shaxsini haqarat qilish ayblovlarni tekshirish maqsadida ekspertizadan o'tkazish; ekstremistik faoliyatda ayblangan, shuningdek irqiy, diniy, milliy va ijtimoiy adovat qo'zg'atishda ayblangan nutq hodisalarini ekspertizadan o'tkazish; reklama matnlarini ijtimoiy foyda/zarar nuqtai nazaridan lingvistik ekspertizadan o'tkazish; tovar belgilarining lingvistik ekspertizasi va boshq.).

DAVLAT TILIDA QONUN IJODKORLIGI:
MUAMMO VA YECHIMLAR



4. Lingvistik ekspertiza biz kutgan natijani berishi uchun lingvistik ekspertiza o'tkazish asoslari va tartiblarini protsessual qonun hujjatlari bilan mustahkamlash talab etiladi.

5. Barcha dalillar singari, lingvistik ekspertiza natijalari bo'yicha chiqarilgan xulosa ham oldindan belgilangan kuchga ega emas va sud, tergovchi, surishtiruv organi tomonidan ishdagi boshqa dalillar bilan bir qatorda ularning ichki ishonchiga ko'ra baholanadi. Binobarin, oldimizda lingvistik ekspertiza natijalari bo'yicha olingan xulosalarni sudlar tominidan ishlarni sudda ko'rish jarayoniga jalb etilishi va tan olinishi hamda buning yuridik instrumentlari masalalari bugungi kunning dolzarb vazifasi bo'lib turibdi. Chunki lingvistik ekspertizada tadqiqot obyektlari to'g'ridan-to'g'ri bevosita (mutaxassis "to'g'ridan-to'g'ri" ma'lumot manbasini tahlil qiladi - ma'lum bir vosita (axborottashuvchi audio-video vosita)da turli darajadagi to'liqlik bilan yozilgan (masalan, bosma matn yoki audioyozuv, bahsli nutq) manbani tahlil qiladi yoki bilvosita tekshiradi - "bilvosita" manbalarni (guvohlarning ko'rsatmalari, sud bayonnomalari va hok.) o'rganadi va bunda lingvistik ekspertiza xulosalarining legitimligi statusini belgilash qoidalarini ishlab chiqish zarur. Aks holda lingvistik ekspertiza to'g'risidagi normativ-huquqiy hujjatlarning amaliyotda qo'llanilishi masalasi savol ostida qolishi mumkin.

Sodikov Akmal,

Toshkent davlat yuridik universiteti katta o'qituvchisi,
yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori

NORMATIV-HUQUQIY HUJJATLAR LOYIHALARINI LINGVISTIK EKSPERTIZADAN O'TKAZISH MUAMMOLARI

Mamlakatimizda normativ-huquqiy hujjatlar hamda ularning loyihalari huquqiy¹, korrupsiyaga qarshi², gender-huquqiy ekspertiza³, ekologik⁴, iqtisodiy, ilmiy va boshqa turdag'i ekspertizalardan o'tishi belgilangan.

Shuningdek, ekspertizaning boshqa turlari to'g'risida xorijiy olimlarning ishlariga e'tibor beradigan bo'lsa, xususan D.Kennedy xalqaro-huquqiy ekspertiza⁵, Yu.Bart⁶ va A.Glyokner ilmiy ekspertiza⁷, K.Ebbot va M.Li huquq ustuvorligi ekspertizasi⁸,

¹ O'zbekiston Respublikasi adliya vazirining 2012-yil 9-apreldagi 83-mh-son buyrug'i bilan tasdiqlangan Davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyyati organlari tomonidan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga kiritiladigan normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini tayyorlash, yuridik-texnik jihatdan rasmiylashtirish va huquqiy ekspertizadan o'tkazish tartibi to'g'risidagi uslubiy ko'rsatmalar // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 18.09.2020-y, 10/20/2352-9/1304-son.

² O'zbekiston Respublikasi adliya vazirining 2021-yil 24-fevraldag'i 2-mh-son buyrug'i bilan tasdiqlangan Normativ-huquqiy hujjatlar va ular loyihalarining korrupsiyaga qarshi ekspertizasini o'tkazish tartibi to'g'risidagi Nizom // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 24.02.2021-y, 10/21/3287/0153-son.

³ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 30-martdag'i 192-son qarori bilan tasdiqlangan Normativ-huquqiy hujjatlar va ularning loyihalarini gender-huquqiy ekspertizadan o'tkazish tartibi to'g'risida Nizom // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 31.03.2020-y, 09/20/192/0386-son.

⁴ 2000-yil 25-maydagi "Ekologik ekspertiza to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 29.04.2021-y, 03/21/688/0394-son.

⁵ Qarang: Kennedy D. International legal expertise: innovation, avoidance, and professional faith. A world of struggle: how power, law, and expertise shape global political economy // Princeton University Press, 2018. – P. 218-255.

⁶ Qarang: Barthe Y. Scientific expertise in situations of controversy: a sociological testimony // European Journal of Risk Regulation, 2014. Vol. 5. – No. 1. – P. 14-24.

⁷ Qarang: Glöckner A. Development of legal expertise // Instructional Science, 2013. Vol. 41. – No. 6. – P. 989-1007.

⁸ Qarang: Abbot C. and Lee M. Law and legal expertise: Environmental groups and legal expertise: shaping the Brexit process // UCL Press, 2021. – P. 79-98.

DAVLAT TILIDA QONUN IJODKORLIGI:
MUAMMO VA YECHIMLAR



J.Krishnan¹, V.Glod², Gansavivek³, L.MakDeniel⁴ moliyaviy ekspertiza ma'lumotlaridan norma ijodkorligi jarayonida foydalanish zarurligini tadqiq etishgan.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 28-oktyabrdagi 662-son qarori⁵ bilan Normativ-huquqiy hujjatlar loyihamini lingvistik ekspertizadan o'tkazish tartibi to'g'risidagi nizomning tasdiqlanishi norma ijodkorligi faoliyati yana bir ekspertizani o'tkazish mexanizmi bilan boyitildi.

Mazkur normativ-huquqiy hujjat o'zida bir nechta ijobiy jihatlarni qamrab oladi. Xususan,

a) normativ-huquqiy hujjat loyihasi, lingvistik ekspertiza, davlat tili qoida va talablari, maslahatchi va mutaxassis tushunchalariga ta'rif berilgan;

b) lingvistik ekspertizaning maqsadi va asosiy vazifalari aniq ishlab chiqilgan;

c) loyihami lingvistik ekspertizadan o'tkazish talablari belgilangan;

d) loyihami lingvistik ekspertizadan o'tkazish mexanizmi ishlab chiqilgan;

e) loyihami lingvistik ekspertizadan o'tkazuvchi maslahatchi yoxud mutaxassisning huquq va majburiyatlari ko'rsatib o'tilgan.

Ammo ushbu normativ-huquqiy hujjatda quyidagi muammoli masalar ham mavjud bo'lib, fikrimizcha, ularni ilmiy tahlil etish talab etiladi.

Birinchidan, normativ-huquqiy hujjatlar loyihamini lingvistik ekspertizadan o'tkazish majburiymi yoki ixtiyoriy?

¹ Qarang: Krishnan J. Legal expertise on corporate audit committees and financial reporting quality // The Accounting Review, 2011. Vol. 86. – No. 6. – P. 2099-2130.

² Qarang: Glode V. Financial expertise as an arms race // The Journal of Finance, 2012. Vol. 67. – No. 5. – P. 1723-1759.

³ Qarang: Hansavivek. Companies: productive and financial expertise // Economic and Political Weekly, 1983. Vol. 18. – No. 40. – P. 1685-1686.

⁴ Qarang: McDaniel L. Evaluating financial reporting quality: the effects of financial expertise vs. financial literacy // The Accounting Review, 2002. Vol. 77. – P. 139-167.

⁵ Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 29.10.2021-y., 09/21/662/1001-son.



Masalani “Normativ-huquqiy hujjatlar to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuni bilan boshlaydigan bo‘lsak, mustaqil O‘zbekiston tarixida ushbu qonun uch marotaba qabul qilinganligiga guvoh bo‘lishimiz mumkin. Ilk bor 2000-yil 14-dekabrda¹, yangi tahrirda 2012-yil 24-dekabrda², so‘nggi bor 2021-yil 20-aprelda qabul qilinib³, oldingi tahrirlari bekor qilindi.

2000 va 2012-yillardagi qonunlarda “lingvistik ekspertizadan o‘tkazish” tushunchasi umuman uchramaydi. 2021-yil 20-aprelda qabul qilingan qonunning 25-moddasida normativ-huquqiy hujjat loyihasi ishlab chiquvchining yoki normativ-huquqiy hujjat qabul qilish huquqiga ega bo‘lgan organning qaroriga ko‘ra iqtisodiy, moliyaviy, ilmiy, lingvistik, ekologik ekspertizadan, shuningdek boshqa turdagи ekspertizalardan o‘tkazilishi mumkinligi belgilandi. Bu bilan normativ-huquqiy hujjat loyihasi boshqa turdagи ekspertizalar qatorida lingvistik ekspertizadan o‘tkazish ishlarini ham olib borilishi mumkinligi to‘g‘risidagi huquqiy norma shakllantirildi.

Mazkur normadan ko‘rinib turibdiki, lingvistik ekspertizadan o‘tkazish dispozitiv ahamiyatga ega. Chunki 25-modda “mumkin” so‘zi bilan tugallangan.

Biroq O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 28-oktyabrdagi “Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini lingvistik ekspertizadan o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida” gi 662-son qarorining 3-bandiga ko‘ra⁴, 2023-yil 1-yanvardan boshlab normativ-huquqiy hujjatlar loyihasi ishlab chiquvchining tashabbusi bilan yoxud topshiriqqa asosan vazirlilik, idoralar bilan kelishishdan oldin loyiha matni davlat tili qoida va talablariga muvofiqligini tekshirish maqsadida lingvistik ekspertizadan o‘tkaziladi.

¹ O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2004-y., 51-son, 514-modda.

² Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 09.01.2019-y., 03/19/512/2435-son.

³ Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 20.04.2021-y., 03/21/682/0354-son.

⁴ Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 29.10.2021-y., 09/21/662/1001-son.



Mazkur normadagi “o’tkaziladi” so’zi normaning imperativligidan dalolat bermoqda. Bu esa, o’z navbatida, qonun va Vazirlar Mahkamasining qarorida o’rnatalgan norma “imperativmi yoki dispozitivmi?” degan savolni keltirib chiqaradi.

Masalaga huquqshunos sifatida javob beradigan bo’lsak, albatta, qonun normasi qonunosti normasidan ustun. Lekin amaliyotda bu ikki norma ziddiyat kelib chiqishiga sabab bo’ladi, normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiquvchilar o’rtasida tushunmovchilik va anglashilmovchiliklarni keltirib chiqaradi.

Ikkinchidan, lingvistik ekspertiza faqat normativ-huquqiy hujjat loyihalariiga nisbatan qo’llaniladimi? Amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar lingvistik ekspertizadan o’tkazilmaydimi?

Bu masalaga javobni 2021-yil 28-oktyabrdagi “Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini lingvistik ekspertizadan o’tkazish tartibi to’g’risidagi nizomni tasdiqlash haqida” gi 662-son qarorining nomidan ham bilib olish mushkul emas. Demak, lingvistik ekspertiza faqat normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari yuzasidan olib boriladi.

Lekin mamlakatimizda ayrim ekspertiza turlari ham mavjudki, ular ham normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari ham amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar ustida ham olib boriladi.

Jumladan, korrupsiyaga qarshi ekspertiza (2021)¹, gender-huquqiy ekspertiza (2020)² kabilar normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari bilan bir qatorda amaldagi normativ-huquqiy hujjatlarni ham shu turdagи ekspertizadan o’tkazish lozimligini talab etadi.

¹ O’zbekiston Respublikasi adliya vazirining 2021-yil 24-fevraldagи 2-mheson buyrug’i bilan tasdiqlangan Normativ-huquqiy hujjatlar va ular loyihalarining korrupsiyaga qarshi ekspertizasini o’tkazish tartibi to’g’risidagi Nizom // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 24.02.2021-y., 10/21/3287/0153-son.

² O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 30-martdagи 192-son qarori bilan tasdiqlangan Normativ-huquqiy hujjatlar va ularning loyihalarini gender-huquqiy ekspertizadan o’tkazish tartibi to’g’risida Nizom // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 31.03.2020-y., 09/20/192/0386-son.



Ammo mazkur ikki normativ-huquqiy hujjat ham Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini lingvistik ekspertizadan o'tkazish tartibi to'g'risidagi nizom bilan bir davrda (Yangi O'zbekiston) qabul qilingan.

Fikrimizcha, lingvistik ekspertiza amaldagi normativ-huquqiy hujjatlarga nisbatan ham olib borilishi, ular davlat tili qoida va talablariga, muvofiq kelishi, atamalarining to'g'ri qo'llanilishi, loyiha matni aniq va tushunarli bayon qilinganligi, so'z birikmalari to'g'ri tanlanganligiga baho berish masalalarini ham o'rganish qonunchilikni takomillashuviga xizmat qiladi.

Misol tariqasida, lingvistik nuqtai nazardan ayrim kamchiliklarga ega bo'lgan joriy normativ-huquqiy hujjatlarga quyidagilarni misol tariqasida keltirib o'tish mumkin.

1. "Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida" gi O'zbekiston Respublikasining Qonunida (2021)¹ "rahbarining F.I.O." jumlesi qo'llaniladi. Bizning fikrimizcha, "rahbarining F.I.Sh." tarzida keltirilishi lozim.

2. "Favqulodda holat to'g'risida" gi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy Qonunining 16-moddasidagi (2021)² "amal qilish **muddatiga** to'xtatib turishga haqli" ni "amal qilish **muddati davomida** to'xtatib turishga haqli" jumlasiga o'zgartirish lozim.

3. "Sug'urta faoliyati to'g'risida" gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining (2021)³ 5-moddasidagi "prudensial **normativlarni** hisoblash tartibiga..." ni "prudensial **me'yorlarni** hisoblash tartibiga..." jumlasiga o'zgartirish lozim.

Kuzatishlar shuni ko'rsatmoqdaki, nafaqat 90-yillarda balki so'nggi yillarda qabul qilingan shu kabi normativ-huquqiy hujjatlarni ko'plab uchratish mumkin. Shu sababli, amaldagi normativ-huquqiy hujjatlarni ham lingvistik ekspertizadan o'tkazish mexanizmlarini ishlab chiqish ham muhim ahamiyat kasb etadi.

¹ Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 20.04.2021-y., 03/21/682/0354-son.

² Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 16.12.2021-y., 03/21/737/1163-son.

³ Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 24.11.2021-y., 03/21/730/1089-son.



*Uchinchidan, normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini
lingvistik ekspertizadan o'tkazish uchun o'zbek tilidagi
manbalar yetarlimi hamda qanday manbalardan
foydalanishga aniqlik kiritilganmi?*

Rossiya Federatsiyasi normativ-huquqiy hujjatlarini lingvistik ekspertizadan o'tkazishda tegishli adabiyotlar va manbalarga tayanish lozimligi belgilab qo'yilgan bo'lib, jumladan orfografik lug'at (Орфографический словарь¹), grammatika bo'yicha lug'at (Грамматический словарь²), izohli lug'at (Большой фразеологический словарь³), so'z urg'usiga oid lug'at (Словарь ударений русского языка⁴). Bu kabi lug'at va ensiklopediyalarning turlari Rossiya Federatsiyasi ko'plab topiladi. Biroq mamlakatimizda ularning turlari biroz cheklangandek tuyiladi.

O'zbekiston Respublikasida o'zbek tiliga oid O'zbek tilining izohli lug'ati⁵, O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi⁶ hamda O'zbekiston yuridik ensiklopediyasini⁷ keltirib o'tish mumkin, xolos.

Biroq O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 28-oktyabrdagi 662-son qarori bilan tasdiqlangan Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini lingvistik ekspertizadan

¹ Qarang: Орфографический словарь русского языка. Букчина Б.З., Сазонова И.К., Челцова Л.К. – М.: АСТ-ПРЕСС, 2008. – 1288 с.

² Qarang: Грамматический словарь русского языка: Словоизменение. Зализняк А.А. – М.: АСТ-ПРЕСС, 2008. – 794 с.

³ Qarang: Большой фразеологический словарь русского языка. Значение. Употребление. Культурологический комментарий. Телия В.Н. – М.: АСТ-ПРЕСС, 2008. – 782 с.

⁴ Qarang: Словарь ударений русского языка. Резниченко И.Л. – М.: АСТ-ПРЕСС, 2008. – 943 с.

⁵ Qarang: Ўзбек тилининг изоҳли луғати: 80000 га яқин сўз ва сўз бирикмаси. Жилд I. А-Д / Маъсъул мухаррир А. Мадвалиев. – Т.: “Ўзбекистон миллый энциклопедияси”, 2020. – 680 б.

⁶ Qarang: Ўзбекистон Миллый энциклопедияси Аҳарфи қисми. – Т.: “Ўзбекистон миллый энциклопедияси”, 2013. – 879 б.

⁷ Qarang: Ўзбекистон юридик энциклопедияси // Нашр учун маъсъул Р.А. Мухитдинов ва бошқ.; маъсъул мухаррир Н.Тойчиев. – Т.: Адолат, 2010. – 704 б.



o'tkazish tartibi to'g'risidagi nizomning 20-bandiga ko'ra¹, lingvistik ekspertiza o'tkazish jarayonida "Davlat tili haqida"gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni, O'zbek tilining asosiy imlo qoidalari, O'zbek tilining izohli va imlo lug'atlari, soha va tarmoq lug'atlari, O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, Geografik obyektlarning nomlari davlat reyestri ma'lumotlari, davlat tilida ish yuritishga oid adabiyot va uslubiy qo'llanmalar, shuningdek, o'zbek adabiy tilining boshqa ilmiy-uslubiy manbalaridan foydalanishi belgilangan.

Fikrimizcha, davlat tilida ish yuritishga oid adabiyot va uslubiy qo'llanmalar, shuningdek, o'zbek adabiy tilining boshqa ilmiy-uslubiy manbalari aniq belgilanmaganligi, lingvistik ekspertizada ishtirok etuvchi mutaxassis va maslahatchilar o'rtaida ayrim holatlarda ikkilanish va turli yondashuvlarni keltirib chiqarishi mumkin.

To'rtinchidan, lingvistik ekspertizadan o'tkazish ishlari shartnoma asosida amalga oshirilishi belgilangan bo'sada, shartnoma bo'yicha amalga oshiriladigan ishlarning aniq ro'yxati va narxlarini ichki tartibda belgilab olishni talab etadi.

Misol tariqasida, Rossiya Federatsiyasida faoliyat olib boruvchi Sud-ekspertiza byurosi (Бюро судебных экспертиз)² tomonidan taqdim etiladigan, xizmatlar hamda ularning qat'iy narxlari belgilab berilgan.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 28-oktyabrdagi "Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini lingvistik ekspertizadan o'tkazish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida" gi 662-sون qarorining 3-bandiga ko'ra, loyihani lingvistik ekspertizadan o'tkazish jarayonida ishlab chiquvchining tashabbusi bilan davlat organlarining ilmiy va ta'lif tashkilotlari, nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik

¹ Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 29.10.2021-y., 09/21/662/1001-son.

² <https://sud-expertiza.org/lingvisticheskaya/dokumenty-i-akty> – официальный сайт Бюро судебных экспертиз (Sud-ekspertiza byurosining rasmiy veb-sahifasi)

DAVLAT TILIDA QONUN IJODKORLIGI:
MUAMMO VA YECHIMLAR



jamiyatining boshqa institutlari vakillari, ilmiy daraja yoki ilmiy unvonga ega bo'lgan fuqarolar, shuningdek, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti huzuridagi Davlat tilida ish yuritish asoslarini o'qitish va malaka oshirish markazi hamda uning hududiy bo'linmalari ham shartnoma asosida jalb qilinishi mumkinligi belgilab qo'yilgan.

Ammo jahon internet tarmog'i orqali Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti huzuridagi Davlat tilida ish yuritish asoslarini o'qitish va malaka oshirish markazining lingvistik ekspertizadan o'tkazish xizmati haqidagi ma'lumotlar uyog'da tursin, umuman markaz haqida ma'lumot topishning imkonini mavjud emas.

Xulosa qilib ta'kidlash lozimki, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 28-oktyabrdagi 662-son qarori¹ bilan Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini lingvistik ekspertizadan o'tkazish tartibi to'g'risidagi nizomning tasdiqlanishi norma ijodkorligi samaradorligini oshirishdagi muhim qadamlardan biri bo'ldi. Biroq lingvistik ekspertizadan o'tkazish mexanizmi va tartibini rivojlanitirish yo'lida, nazarimizda, qo'shimcha tarzda yuqorida tahlil etilgan chora-tadbirlarga e'tibor qaratish talab etiladi.

¹ Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 29.10.2021-y., 09/21/662/1001-son.

Г.Ж.Утегенова,

*М.Әуезов атындағы Оңтүстік Қазақстан университеті,
ф.ғ.к., доцент, Қазақстан, Шымкент*

Н.Ш.Базарбекова, С.С.Байменова

*М.Әуезов атындағы Оңтүстік Қазақстан университеті,
аға оқытушы, Қазақстан, Шымкент*

ЕСКЕРТКІШТЕР ТІЛІНДЕГІ ЗАТ ЕСІМНІҢ ЖАСАЛУ ЖОЛДАРЫ

Алтын Орда дәүірі жазба ескерткіштерінің тіліндегі сөздердің тұлғасы өзінің лексика – грамматикалық сипатына қарай қазіргі тілдегі сияқты негізгі түбір сөзден бастап сөзжасам жүрнақтар арқылы туындаған жаңа туынды сөздер, функционалды – грамматикалық сөзтүрлем жүрнақтар мен әр алуан жалғаулар қосылып айтылу арқылы сөз тұлғаларын түгел қамтыған. Яғни өзіміз зерттең отырған сөзжасам жүрнақтары жазба ескерткіштер тілінде қалай жасалса, сол күйінде алып қарастырып, бүгінгі тілдік деректермен салыстырып зерттеу тіл дамуымен, жаңа лексикалық мағынаның қалыптасуымен түрлі құнды мәліметтер береді.

Ескерткіштердегі есім сөздерге жалғанып зат есім тудыратын жүрнақтардың бастылары төмөндегідей:

- қ // - к, -ақ // -ек жүрнағы, негізінен алғанда, кішірейткіш ұғым береді. Жазба ескерткіштерде -к, -к, -ақ, -ек, -әк, -ық, -ик, -уқ, -үк тұлғаларында қолданылады. А.Ысқақов бұл жүрнақты – нағыз омоним жүрнақ деп есептей келіп, оның мынадай мағыналарын атап өтеді:

1. Етістіктен туған зат есімдер (қазық, күйік, т.б.)
2. Есімдерден туған зат есімдер (мойнақ, тікенек, т.б.)
3. Етістіктен туған сын есімдер (бөлек, сирек, сынақ, т.б.)
4. Еліктеуіш сөздерден туған сын есімдер (қалтақ, шыжық, т.б.)



5. Есімдерден туған етістіктер (сауық, өшік, кешік, т.б.)
6. Тұбір етістікten туған туынды етістіктер (көнік, қанық, т.б.)

Бірақ, кейде ол дәл осында мағына тудыра отырып, өзі жалғанған сөзді басқа бір нәрсенің атына айналдырып жібереді. Мысалы, көрк (көрік) дегенде -к формасы арқылы жаңа бір зат есім жасалып тұр. Сақақ (иек) деген сөздегі – ақ жүрнағы арқылы етістікten есім сөз жасалып тұр.

- ма // - ме жүрнағы кейбір тұбір есімдіктерге жалғанып, зат есім жасайды. Мысалы, а^λма (соқыр) деген сөздегі -ма жүрнағы жалғану арқылы зат есім жасалып тұр.

- чақ // -чек, -чық // -чік жүрнағы көне тұлғалы ч + ақ, ч + ық деген екі жүрнақтан құралған. Бұл жүрнақ жалғанған тұбірге үш түрлі мағына үстейді: а) кішірейту мағынасы; ә) сөз мағынасын кішірейте отырып, бөтен үғым беретін жаңа сөз, яғни зат атауын жасау; б) кәсіпті көрсетеді. Мысалы, бірінші мағынада: сығыр (өгіз) – сығырчық (өгізше); екінші мағынада: іч (иш) – іччек (ишек); үшінші мағынада: өрүм (өрім) - өрүмчік (өрмекші).

Балчық – балшық (лай), есенлік – есендік (амандық, саулық, аман - есендік, есен - саулық), чузув және йазмақ – жазу – сизу, ашлық – астық, турумчақ - ескі жастағы тайлақ, бурундық – мұрындық (түйенің мұрындығы), қарындаш - туған-туысқан, үрім- бұтақ (туған ағайындас адамдар). Қазақ тілінде – қара - ата қарындаш, ата қызы қарындаш, ана қызы қарындаш, йердеш – жерлес, ерсүк - ойнасқор (әйел), ерқұмар (әйел, жәлеп әйел).

Балчық (балшық). Қыпшақ жазба жадыхаттары мен тілдерінің көбінде кездесетін танымалды сөз: балчық // балчук // балчых // балшық (грязь, глина, тина, ил, тас);

Турумчақ (екі жасар тайлақ). Зайончковский: турумчақ (-чах // - чақ, кішірейту мағынасын беретін аффикс жалғанып тұр. Қазақша: тоқты – торым; ДТС- турум // торум (верблюжонок).



туқ // -түк, -дуқ // -дүк жұрнақтары өзі жалғанған түбірдің лексикалық мағынасын өзгертіп жібергенмен, туынды түбір сөздің негізгі түбірмен байланысы әнтек байқалып тұрады, яғни өзі жалғанып жасалған өздің түбір сөз мағынасына байланысты екендігін көрсетеді. Мысалы: қол (қол) – қолтуқ (қолтық). Бурундүқ (мұрындық). Тас – бурундүқ (стерженок, тоненькая палочка проодеваемая через хрящи под ноздрями верблюда, за которую привязывают поводок). Түркі – қыпшақ тілдерінде түгел айтылады, әр түрлі аллофондары бар.

-ман, -мен – есімшениң келер шағымен зат есімге жалғанып, зат есім тудыратын өнімсіз жұрнақ. -ман аффиксі М.Қашғаридің пікірінше парсы тілінен аударғанда текстес, тәрізді, сияқты деген мағынаны білдіреді. С.Аманжолов -ман арабтан әуелде адам мағынасында еніп, кейін жұрнаққа айналған.

-ман // -мен жұрнағы адамдардың өзара қоғамдық қарым – қатынасын, заттың бейімділік қалпын білдіреді. Мысалы: талаш (талас) – талашман (таласуши кісі, таласқа түсуші).

Бұлардың барлығы да дерлік морфологиялық жолмен жасалған зат есімдер. Өзге сөз таптарынан қажетті жұрнақтардың жалғануы арқылы пайдада болған сөздер. Зат есім тудыратын жұрнақтардың кейбіреуі өздері тіркессен сөздердің лексикалық мағыналарына семантикалық реңк қана үстейді. XIII-XIV ғасыр жазба ескерткіштерінде зат есімдер мынадай жұрнақтар арқылы жасалады. Олар: -мақ, -мек, -чық, -үк, -ұт, -ақ, -үм, -ым, -уш, -чі, -ған, -мач, -рек, -іш, -аш, -ерү, -сун. Осы аталған жұрнақтарға мысалдар келтірейік.

-мақетістіктің түбіріне қосылып, есім жасайтын құранды әрі өнімді жұрнақ; тізбек, батпақ, шақпақ сөздері – етістікке –бек, -пақ құранды жұрнақ қосылу арқылы жасалған есім сөздер.



-мақ қосылу арқылы жасалған сөздер құрал – аспап атын білдіреді:

-мақ қосылу арқылы жасалған сөздер киім атауларын, не белгілі бір заттың тобын, жыныстығын білдіреді:

Ауқат тағам аттарын білдіреді:

«-мақ, -мәк встречается, как пережиточный аффикс, в изолированных словах различного значения» [1].

Тутылмақ – тұтылу (айдың, күннің тұтылуы), көкремек – құркіреу (күннің құркіреуі), есмес – күн (жел соқпай тұрған уақыт, жел еспейтін кез), тамчық – тамшы (майда тамшы), үйүк – үйік, тәбе (үйінді жер, тәбешік), айры – айрық (таудың айрығы), йебүлдірек – жапырақ (ағаштың жапырағы), кечүт – судан кешіп өтетін жер (жаяу өткел), қышқақ – шаян, сувлачан – суалшаң, ыйалдырим және сырча – әйнек, шыны (жарқ – жүрқ ететін, жарқырап тұратын нәрсе, зат), бол(л)уқ – бөлу, бар болу, жетісу, жетілу, баю, байлықтың мол болуы, молшылық, бузмақ – талау (талан – таржға салу, талап алу).

-лық біз зерттең отырған жазба жәдігерлерде ең жиі қолданылатын өнімді жүрнақ. “Хұсрай уа Шырын” мен “Нахдж әл-Фарадис” тілінде 8 түрлі фонетикалық варианты бар: -лық, -лик, -лук, -лүк, -лығ, -лиғ, -лүғ; “Мухабbat - наме” тілінде тек -лық, -лик, -лук варианты бар. Ескерткіштерде -лық көбіне сын есім және зат есім тудыруға белсенді. Сонымен қатар көп мағыналы болып келеді.

1. Зат есім жасай отырып абстракт ұғымдар береді. Бұл сөздерді шағын мағыналық топтарға бөлуге болады.

а) сын есім негізден зат есім тудырып сапа мен жағдайды білдіреді. Иаманлық (жамандық): йаманлық қылған ергे егулик қыл - жамандық қылған адамға жақсылық қыл /Г.326/.

Есенлік (есендік). Сөз түбірі қыпшақ жазбаларында кездеседі: тас – есен (здравый, благополучный).



Ашлық (астық). Зайончковский: зерновой хлеб, зерно. Шығыс түркі тілдерінде: ашлығ, ашлық (зерно, злаки), ашла (есть, кушать), ашлақ (кушанья, яства), ашлық (обеспеченный едой, пищей; имеющий в качестве пищи что - либо), аша (есть, кушать) [25.62]. Түркі тілдерінде танымал белгілі сөз.

Ачлық (аштық): Өкүш йңг әрмин ачлық бирлә алмәк – аштықтан өлу өте қызын /ХШ, 84 б.16/.

б) адамның мінезін, әрекетін, қалпын білдіретін сөздерден жасалған абстракт мағынадағы зат есімдер тудырады:

Кишилик (адамгершілік): йар өлтүрмәк кишилик ермәз – Досты өлтіру – адамдыққа жатпайды /ХШ, 195 , 17/.

Фузуллуқ (арсыздық): фузуллуқ қылма өз орнуңда тур тек – арсыздық қылма өз орныңда түр /ХШ, 218/.

Үлүглүқ [ірілік]: Мәгар кічілікні ұниттың кім, үлүглүқ естірсін – Кішілікті ұмытқан адамнан ірілік көрерсің /Г,273 б.,7/.

в) жан – жануарлардың атауларына жалғанып абстракты ұғымды зат есімдер жасайды.

Бөрилилк (бөрілік, бөріге ұқсас): Бөрилилк қой, чабан қыл ишиңи – Бөрілікті қой, шопанға ұқсанап іс қыл /ХШ, 168 ,19/.

Тилкулұқ (қулық, айлакерлік): Арслан тилкулұқ қылса йәрашмаз – Арыстанға қулық жараспас /ХШ, 167 б. 12/.

г) ескерткіштерде сын есімге жалғанып, абстракт мағынадағы зат есімдер жасайды:

Түгеллик (түгелдік, бүтіндік): Түгеллик йәхшы – бүтіндік жақсы /ХШ, 16 б. 20/.

2. Атақ, дәрежені білдіретін сөздерден адамның әлеуметтік жағдайын, кәсіпті, қызметті білдіретін зат есімдер жасайды:

Беклик (бек қызметі): Арзу билән беклик ғасил болмас – Тек қана үмітпен бек бола алмайсың /Г, 190/.

Куллық (құлдық, қызмет көрсету): бу ол му, йа дәгүл му билсә болмаз, ики әрклилгә қуллық қылса болмаз – Бұл сол



ма, әлде ол емес пе біліп болмас, екі үкіметке бір уақытта құлдық қылыш болмас /ХШ,49 б. 3/.

Ханлық (хандық, патшалық): Бу күн ханлық бозынға кәртү хан сен – Бүгін хандыққа лайық хан сен /ХШ,114, 14/.

3. Әр түрлі мақсатқа арналған заттар мен нәрселердің атын білдіреді:

Ашлық (нан, бидай, дән): Йер уруқ алмайынча бермәз ашлық – Жер ұрық алмай, бидай бермес /ХШ,204/.

Тұңлұқ (тұндік): Соңы айдың тег оң тұңлұқдан енгай – Соңынан сәулеге ұқсан тұңдіктен енеді /ХШ, 86/.

4. Өлшем, бірлікті білдіретін сөздер -лық жүрнағымен жасалғанымен өте сирек:

Бирлик (бірлік): Анық бирликанға берүр тануқұлуқ – Оның бірлігіне қуә болады /ХШ,5 б. 16/.

5. Шыққан орынды, мекен – жайды білдіреді: “Гулистан бит - турки” дастаны мен «Хұсрау уа Шырын» жазба ескерткіштерінде ғана бірер дерек бар:

Кавунлық (қауындық, қауын егілген бақша): Гәр йесе қази алип бартыл сәндән беш хийар он қавунлық ғасил етәргө қыл йарап – Егер қазы сенен пара үшін бес қияр алса, онда саған он қауындық бақшаны тиесілі етеді /Г, 16 а 3/.

Уштмақлық (жұмақ түрғыны): Тәмұғлық қыл мени йағ ғәм уштмахлық – Мені не тамұқтың не жұмақтың түрғыны қыл /ХШ, 17 б 16/.

Еллик (бір елге тәуелді): Не еллик болурсиз – Қай елденсіз? (ХШ, 52 а 3).

Ә.Керімовтің көрсетуінше “ХШ” дастанында -лық жүрнағынан жасалған 245 туынды сөз, “Г” дастанында 55, “Мн” дастанында 6 туынды сөз бар екен [2,160].

Қазіргі түркі тілдерінде -лық / -лығ тұлғасы ең өнімді жүрнақтардың бірі. Сөз тудыруышы қосымшалардың көпшілігі бірнеше мағынаны білдіретін белгілі бір сөз табына телу арқылы олардың мәнін ашу қыын. Қазақ тілінде -лық / -лік жүрнақтары бірнеше мағына береді.



Аталмыш қосымшалардың сөзжасамдық алғашқы мағынасы қатыстық мән болып, кейін заттық ұғым қалыптасқан. Мысалы, беклик / қызмет - беклик / бек, жастық шақ – жастық.

-лық сөзжасам жүрнағы туралы түрлі пікірлер бар. Н.К.Дмитриев былай деп жазған: “При всем многообразий функций, природа аффикса является идея концентраций или объединения чего - либо; сперва конкретных предметов, а потом и абстрактных” [3,171].

В.А.Серебренников пен Н.З.Гаджиева осы тұжырымға сүйене отырып, -лық, -лиг бүрын көптік жинақтау мағынасын берген күрделі аффикс болған дейді [4,302].

Ежелгі түркі, орта түркі жазба мұрагаттарының көбінде кездесетін -сыз тұлғасы заттық ұғымды сөздерден болымсыздық мән туғызатын өнімді жүрнақ. Қазіргі түркі тілдерінде де жиі қолданылады. Қазақ тілінде де екі тұлғада -сыз, -сіз вариантында ұшырасады.

М.Томановтың көрсетулерінде -сыз өзінің тегі жағынан -сар аффиксімен ұялас.

Зат есім мен етістіктен зат есім тудыратын өнімді жүрнақтар. Әдеби тілімізде морфологиялық тәсілмен сөз тудыруда көп қолданылатын өнімді, актив жүрнақтардың бірі - -ши, -ші. Тарихи қалыптасу жағынан А.Г.Гулямов: «... аффикс -чи первоначально имел форму -ч, потом к нему присоединился формант -и получилась расширенная форма указанного аффикса, в дальнейшем аффикс расширенная форма указанного аффикса, в дальнейшем аффикс -чи начал присоединяться и к другим словам» [5], - деп қарайды. Мүмкін -ши морфемасының этимологиясы солай болғанымен, қазіргі қазақ тілінде күрделі емес, жалаң жүрнақ.

Адамның әр түрлі еңбегіне, мамандығына, саяси бағытына тағы басқа ерекшелігіне байланысты жалпы дерексіз мағыналы, жалпы заттық мағыналы, нақтылы



мағыналы зат есімдер жасалуына негіз болатын -шы мынадай тұлғалы сөздерге қосылып, негізгі түбірлі (әнші, сыншы), туынды түбірлі (егінші, сауыншы), біріккен түбірлі (қолбасшы, шекарашы), қысқарған түбірлі (колхозшы) зат есім жасайды.

-чи, -чи, -чі жүрнағы аталған ескерткіштердің барлығында да осы фонетикалық варианктарда кездеседі. Зат есім туғызатын бұл жүрнақ мынадай мағыналар береді.

1. Есімдерге тіркесіп келіп, кәсіпті, мамандықты білдіреді.

Егинчи (егінші): Егинчиләр келип шикайт қылдылар – Егіншілер келіп арыз айтты /Г, 91 69/. Егінчі үйлері йағылды отқа – Егінші үйлері жағылды отқа /Г,2/.

Елчі (елші): Беш башлы елчі келійір – Бес басты елші келеді /КК,16/.

Қарақчы (қарақшы): Қарақчыдан не қорқсун йоқсул ай йар – Қарақшыдан не қорқсун кедей, әй жар /ХШ,219/.

Авчы (аңшы): Мениң Қам авчы йүгрүк ітларім бар – Мениң де аңшы жүйрік иттерім бар /ХШ,15/.

Битигчи (хатшы, көшірмеші): Оқуды хас битигчисин қатынға – ол өзінің жеке хатшысын шақырды /ХШ, 14166/.

“ХШ” және “Г” ескерткіштерінде етістік негізінен туындаған кейбір сөздер де мамандықты білдіреді.

Күзәтчи (кузетші): Йәнә тапса күзәтчисиз ачуқ дүр – күзетшісіз қалған қымбат тасты тапса / Г,62610/.

Отачы (дәрігер): Отачы нечә ким билсә тамардын – тамыр ұстап ауруды білетін дәрігер /ХШ,63611/.

2. Есімдерге жалғанып адамның қасиетін, жақсы не жаман сапасын білдіреді.

Күрәшчи (балуан): бир күрәшчи пәннөван алтмыш түрли күрәш илмин билүр ерди – Бір балуан алпыс түрлі күрес тәсілін білетін / Г, 74 б 4/.

Йалғанчы (өтірікші): Йалғанчы душман көр болсун - Өтірікші жау соқыр болсын / ХШ, 178 а 5/.



Түркі тілдеріндегі есім сөздер – мағынасы жағынан, морфологиялық белгілері және синтаксистік қызметі жағынан да өзіне тән ерекшеліктері бар сөз таптары болып табылады. Зат деген ұғым күнделікті өмірде кездесетін әдеттегі жай нәрселерді ғана емес, табиғат пен қоғамдық өмірдегі ұшырасатын әр алуан құбылыстар мен үақығаларды, ұғымдар мен түсініктерді де қамтиды. Бұдан есім сөздердің лексика – семантикалық сипаты салалы да, қарымды екені байқалады.

Пайдаланылған әдебиеттер тізімі

1. Дмитриев Н.К. Грамматика башкирского языка. М. – Л., 1948, стр. 171
2. Керімов А. Словообразовательные аффиксы в языке памятников тюркоязычной литературы XIV века. рукопись канд. дис. А. 1979, 160 с.
3. Дмитриев Н.К. Грамматика башкирского языка. М-Л. 1948, 171 с.
4. В.А.Серебренников, Н.З.Гаджиева Сравнительно – историческая грамматика тюркских языков. Москва: Наука. 1986. -302 с.
5. Гуламов А.Г. Проблема исторического словообразования узбекского языка (автореферат). Ташкент, 1955, стр. 15.

Қ.А.Мўйдинов,
филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD),
доцент в.б.,
Тошкент вилояти Чирчиқ давлат педагогика институти

АЙРИМ ҲУҚУҚ ТЕРМИНЛАРИНИНГ ҚЎЛЛАНИШИ ҲАҚИДА

Ҳозирги ижтимоий-иктисодий ҳамда илмий – техник туб ўзгаришлар даврида жамият тараққиёти билан бевосита боғлиқ ҳолда янги-янги фанлар ва тушунчалар юзага келмоқда. Ўзбек тилида ҳам янги терминлар пайдо бўлмоқда, илгаридан ишлатилиб келинган қатор лексемалар янги маъно касб этмоқда. Демак, терминология соҳасида ҳам қатор муҳим масалаларни ҳал қилиш вазифаси турибди.

Бугунги кунда терминологиянинг амалий ва назарий масалаларини янада чуқурроқ ўрганиш, терминларни яратиш ва уларни қўллашни тил қонуниятлари асосида тартибга солиш давлат аҳамиятига молик муаммога айланди. Шунинг учун она тилимизнинг системасини янада теранроқ тадқиқ этиш, терминологиянинг турли масалаларини атрофлича ўрганиш ҳозирда муҳим ва жиддий масалалардан бири бўлиб қолди.

Кейинги пайтда ўзбек адабий тилининг луғавий ва терминологик меъёрлари бўйича кўп ишлар қилинди. Улар имло ва изоҳли луғатларда ўз аксини топган. Шундай бўлса-да, юридик терминларнинг адабий меъёрга солинган мукаммал луғатлари мавжуд эмас. Маълумки, ҳуқуқий терминлар (атамалар, юридик тилнинг ўзига хос хусусиятларини ҳисобга олмасдан) рус тилидан сўзмасўз таржима қилинган. Бу эса юридик тилга, нутқнинг коммуникатив сифатларига қўйиладиган расмийлик, аниқлик, мантиқийлик, қисқалик, соддалик каби



талабларига түлиқ жавоб бермайди. Айниқса, ҳукуқий терминлар тизимида бир тушунча учун икки ёки ундан ортиқлексик бирликлар қўлланилмоқдаки, уларни тартибга солиш бугунги куннинг долзарб масалаларидан биридир. Луғатларда айрим ҳолатларда рус тилидаги бир термин, ўзбекча бир неча лексик бирлик билан ифодаланмоқда. Масалан, показание тушунчасини ифодалаш учун қўрсатув, қўрсатма, қўргазма каби сўзларни термин ўрнида учратамиз.

Қиёслаймиз: В качестве свидетеля для дачи показаний может быть вызвано любое лицо, которому могут быть известны какие-либо обстоятельства, подлежащие установлению по уголовному делу (УПК РУ. Глава 6. Статья 65).

Жиноят иши бўйича аниқланиши лозим бўлган бирор ҳолатни билиши мумкин бўлган ҳар қандай шахс гувоҳ сифатида қўрсатув бериш учун чақирилиши мумкин.(ЎзР ЖПК 6-боб,65 модда); ...давать показания на родном языке (УПК РУ. Глава 6.Статья 66) ...ўз она тилида қўрсатувлар бериши... (ЎзР ЖПК 6-боб,65 модда).

Оглашение показаний свидетелей (ГПК РУ. Глава 22. Статья 232); Гувоҳларнинг қўрсатувларини ўқиб эшилтириш. (ЎзР ФПК. 22-боб, 232-модда). Кўриниб турибдики, русча показание сўзи қўрсатув сўзи билан ифодаланмоқда.

Показание сўзи русча-ўзбекча луғатда қўрсатиш, айтиш; 2. гувоҳлик бериш, сўроқ бериш тарзида таржима қилинган.

Сөз мәдениетінің экологиялық аспектісінде адамгершілік, ізгілік элементтері қоса жүреді. Тілдік қарым-қатынас, коммуникацияда тілдесушілердің адамгершілік сезімі тапталмауға, қоғамдық, моральдық-этикалық принциптер бұзылмауға тиіс.

Сөзмәдениетінің лингвомәдениасспектілері, осы саладағы жалпы тіл білімінің теориялық тұжырымдары мен қазақ тіл біліміндегі нақты деректер негізінде зерттеулердің нәтижелері лингвомәдениеттанудың маңызды да айқын тұжырымдары мен қағидаларын қалыптастыруды. Нақты түрде айтсақ, лингвомәдениеттанымдық тұрғыдан алғанда, тіл тек қарым-қатынас және танымдық қызмет атқаратын құрал ғана емес, сондай-ақ ұғым-тіл-мәдениет жиынтығынан құралатын, тұтас дүние жөніндегі мол мағлұмат беретін ұлттық мәдени қор, мәдени ақпарат көзі



ретінде танылады. Себебі, адамға рухани, интеллектуалдық, әлеуметтік мүмкіндіктерден туындастын аса мол алуан түрлі ақпарат тілдік арналар арқылы беріледі [3].

Тілдің тарихы – халық тарихының көрінісі деп бекер айтпаған. Өзге халықтың «Халықтардың даму жолы тілдердің даму жолымен айқындалады. Тілі мен мәдениетін білу адамды сол халықпен теңестіреді, ол өзін еркін ұстайды, егер де сол халықтың күресі мен қамқорлығы оның жүргегіне әсер етсе, ол ешқашан да шет қалмайды. Адамның табиғаты осындай», -деп Абай айтқан.

Тіл мәдениетіне барап жолдың бастауы – сөйлей білу. Тіл адамзаттың бір-бірімен пікірлесуін, түсінісуін қамтамасыз ете келіп, тілдік қарым-қатынасты іс жүзіне асырады. Тілдік қатынас – адамның ойлау, пайымдау, сөйлеу, тыңдау, түсінісу, айту, пікірлесу, т.б. әрекетіне тікелей қатысты құбылыс.

Ойдың тілі – сөз. Біз сөз арқылы ғана неше түрлі ойларымызды сыртқа білдіре аламыз. Сөзді қабылдау және оны ұғыну бір-бірімен тығыз байланысты. Адам баласының сана-сезімінің дамуында дыбысты тілдің пайда болуының маңызы зор болды.

Сөйлеу – адам санасының басты белгісі. Тіл, сөйлеу ежелден бері жеке адамның, қоғамның ой-санасын дамытып, жетілдіруде аса маңызды рөл атқарады. Сөз ойлы да мәнерлі болуы тиіс. Эйтпесе, ол көздең мақсатына жете алмайды. Халқымыз мәнді сөйлейтіндерді «сөзі мірдің оғынданай екен» деп дәріптейді. Ал Ж. Баласағұн: «Ақыл-ойдың көркі – тіл, тілдің көркі – сөз» деп тауып айтқан.

Сөзді өз орнымен қолдану – білімділіктің белгісі. Бүгінде жеке тұлға, яғни дарынды, шығармашылық тұлға қалыптастыру білім мен тәрбие берудегі кәсіби білім беру саласында өзекті мәселенің бірі болып отыр. Оқыту мен тәрбиелеу нәтижелі болу үшін оқушының сөйлеу қабілетінің дамуына тікелей әсер ететін тіл мәдениетіне баса назар



аудару қажет. Оқушылардың кәсіби құзыреттілігін қалыптастырудың негізі алдымен олардың сөйлеу мәдениетін жетілдіру болып табылады. Адам ойы әр уақыт тіл арқылы жарыққа шығады. Сол қызметті арқылы қарым-қатынас құралына айналады. Сөйлеу мәдениетінің негізгі арқауы – тілдік норма. Оның зерттейтің объекті – сөз, сөздің дұрыс айтылуы, дұрыс жазылуы, дұрыс қолданылуы, айтайын деген ойдың айқын әсерлі болуы, сөздің көркем баламаларының көп болуы. Сөзді орынсыз қайталау тілдің коммуникативтік қызметтің төмөндөтеді, ойды дәлме-дәл, мазмұнды жеткізуге кедергі болатыны бәрімізге белгілі [4]. Сол сияқты берілген сөзді атау тұлғасымен оның грамматикалық форма жамалғандағы өзгерістерін табу, мағыналас сөздермен байланыстыру, сөйлем құрамына енгізу, өлең жолдарын құрастыру тәріздес тапсырмаларды топтық, жұптық жұмыс формаларында орындау тіл дамытудың міндеттерін жүзеге асыруға көп көмегін тигізеді. Үнемі оқушылардың түсіндірмелі, этимологиялық, фразеологиялық, кәсіби сөздік түрлерімен жұмыс жасауын қадағалаған жөн. Бұл жұмыстар олардың базалық, кәсіби білімдерінің нығая түсуіне септігін тигізеді [5].

Мектеп бітіруші жас үрпақ болашақтағы өз бағытын дұрыс белгілеп, саралай білу үшін оларға берілетін білім өзегінде, біріншіден, өзіндік сана, көзқарас, дұниетаным мен сенім қалыптастыратын, екіншіден, қай ортаға болсын тез бейімделіп, жаңа ақпараттарды тез түсіну, қабылдау қабілегтілігін, іскерлік қасиеттің дамытатын компоненттер қатар қамтылуы тиіс. Сонда ғана білім әлеуметтік күштен оқушы әрекеттің дамытудың тетігіне, яғни практикалық қажеттілікті ақтайтын тегеурінді күшке айналады. Сондықтан жоғары сатыда жеткіншеккө тілдің танымдық сипатты мен коммуникативтік қызметтіңе сай өмір тіршілік-жағдайларын ескере отырып, жан-жақты меңгерудің тиімді жолдарын үйрету көзделді. Бұл сөз мәдениетін қарым-



қатынастың нақты түрлөрі бойынша жүйелі дамыту, жетілдіру арқылы шешілмек. Тілдік мәдениеті, білігі бар адам ғана қай ортада да өзіне сенімді бола алады және айналасындағылармен өзара тіл табыса білуге қабілетті болады. Ал, тіл табыса білу – еңбек нәтижелігінің ең қажетті шарты.

Әдебиеттер

1. Күзекова З.С. Екінші тіл ретіндегі қазақ тілі окулығы теориясының лингвистикалық негіздері: филол. ғыл. д-ры дис. – Алматы, 2005. – 275 б.
2. Нургалиева Г.К. «Жаңа ақпаратты технология құралдары» Білім. –Алматы, 2007.
3. Сыздық Р. Тіл мәдениеті және оның проблемалары / Р. Сыздық / Тілдік норма және оның қалыптануы.-Астана: Елорда,2001.- 230 б.
4. Балақаев М., Серғалиев М. Қазақ тілінің мәдениеті: Оқулық. М.Балақаев, М. Серғалиев.-Алматы:Зият Пресс,2004.-140 б.
5. Бейсенова С. Оқытудың әдістемелік жүйесі// Педагогика. – 2008, 466.

Д.Т.Расулмуҳамедова,
Тошкент давлат юридик университети
Ўзбек тили ва адабиёти кафедраси доценти

ДАВЛАТ ТИЛИ ВА ҚОНУНЛАР

Тил инсониятга берилган энг буюк неъматлардан бири. Миллат, жамият тараққиёти, тарих жараёнлари, энг аввал, тилда акс этади. Унда халқ ҳаёти, миллий мағкура ифодаланади, руёбга чиқади. Тил инсон фаолиятини бошқариб турувчи муҳим восита, демак тил халқнинг маънавий мулкидир.

Ҳар бир миллатнинг ўзига хос миллий маданияти, тили, урф-одатлари, қадрияtlари мавжуд. Миллатнинг қандай миллат эканлиги эса унинг ўз она тилисида намоён бўлади. Ўзбек тилига давлат тили мақоми берилганига 31 йил тўлади. Бу давр ичидаги тилимиз букилган қаддини яна тиклаб олди, унда битилган нодир асарлар нашр қилинди, тилимиз дунёга бўй чўза бошлади. Энг асосийси, ўзбек тилида гапириш, мустақил фикрлаш ва бундан фахрланиш туйғуси – дахлдорлик шаклланди, хусусан, соҳалар тили тараққиёти учун янги имконият, шароитлар яратиб, тилимиз зарварақларини очди. “Она тилимизнинг бойлигини, унга ҳурматингиз ва муҳаббатингизни тилимизни дунёга тараннум этиш билан кўрсатишингиз керак, - деб таъкидлайди Президентимиз Шавкат Мирзиёев Алишер Навоий номидаги Тошкент давлат ўзбек тили ва адабиёти университети мутахассислари билан бўлган сұхбатда.

Дарҳақиқат, ҳар бир мустақил мамлакат ўзининг давлат тилига эга экан, у ўз она тили равнақи учун курашади, чунки тилнинг давлат тили мақомида бўлиши шу давлатнинг мустақиллигини кўрсатувчи муҳим шарт ва талабларидан бири. Давлат тили давлатнинг ўз фуқаролари



билин гаплашадиган расмий тилидир. Давлат тилида жамият соҳаларида иш юритиш фаолияти олиб борилади, қонунлар ва бошқа меъёрий хужжатлар тайёрланади. Мана шу ўтган йиллар ичидаги ўзбек тилининг давлат тили сифатида барқарорлашуви, хизмат доирасига кўра кенгайиб бораётганига гувоҳи бўлиб турибмиз. Бу, албатта, ижобий ҳол. Шу билан бирга, она тилимизга эътибор сусайиб кетгани ҳақида қанчадан-қанча мақолалар ёзилди, ҳозир ҳам ёзилмоқда, ундан кейин ҳам ёзилади. Афсуски, тилимизнинг бугунги аҳволи шунга муҳтож.

“Давлат тили ҳақида”ги Қонунни ҳалигача ҳаётимизга тўлиқ жорий этолмаяпмиз. Нега? Бунинг сабаблари талайгина. Улардан бири сифатида “Давлат тили ҳақида”ги Қонунни бузганга амалда ҳеч қандай чора йўқлигидадир. “Давлат тили ҳақида”ги Қонуннинг 10-моддасида шундай дейилади: “Корхоналар, муассасалар, ташкилотлар ва жамоат бирлашмаларида иш юритиш, ҳисоб-китоб, статистика ва молия хужжатлари давлат тилида юритилади”. Хўш, юритилмаса-чи, бунга қандай жазо ёки жавобгарлик белгиланган? Назаримизда, бугун давлат тилни ўз ҳимоясига олиши керак, давлатнинг ўзи ҳалқа ўрнак бўлиши лозим.

Мамлакатимизда хорижий тилларга эътибор жуда кучайиб боргани сайин одамлар ўз тили қолиб, бошқа тилларни ўрганишга киришиб кетдилар шекилли, қаерга борманг, ажнабий сўзларни эшлишига қулоғимиз, имло қоидаларига бўйсунмаган ёки чет тилда ёзилган ёзувларни кўришга кўзимиз кўнишиб қолди. Жамоат жойлари, бино ва иншоотлар, савдо ва хизмат кўрсатиш объектларига жойлаштирилган айрим реклама воситаларида ҳали ҳамон кўплаб имло ва услубий хатолар учраётганилигига гувоҳ бўлиш мумкин. Ҳар куни кўчага чиқар эканмиз, янгидан-янги бунёд этилаётган бинолар, боғ ва хиёбонлар инсонга ҳуш кайфият бағишлади. Ана шундай пайтларда бир нарса



инсоннинг ғашини келтиради. У ҳам бўлса, хорижий тилда ёзилган пешлавҳа, реклама, эълонлар ва бу ёзувлардаги лисоний хатолардир. Кундан-кунга замонавийлашиб, чирой очиб бораётган кўчаларда ўзбек тилида ва тўғри ёзилган матнларни учратиш мушкул бўлиб қолди. «Давлат тили ҳақида»ги, «Лотин ёзувига асосланган ўзбек алифбосини жорий этиш тўғрисида»ги ва «Реклама тўғрисида»ги Ўзбекистон Республикасининг Қонунларида белгиланган талаблар бузилаётганлигининг гувоҳи бўлиш нақадар аянчли ҳолат. Реклама ва эълонларда учраб турадиган қўпол имло хатолари учун ким жавобгар? Реклама берувчими ёки реклама агентлиги?

Мисолучун реклама ёзувларидағи имлони фарқламаслик - “Аптека”, “Cavdo dukoni”, ўзбек тили ва бошқа тилларнинг аралашувидан ҳосил бўлган - “Курилиш товарлари”, “Обув дўкони” каби номларнинг ёзилганига гувоҳ бўласиз. Ачинарли ҳолат шундаки, бошқа тилларда қўйилаётган айрим номлар таржима қилингандай миллий қадриятлар ва маънавиятимизга зид маънодаги сўзлар келиб чиқади. Бу эса аҳоли орасида саводсизлар сонининг кўпайишига замин яратмоқда. Кўчалардаги эълонларда “Бухара шашликлари”, “Самса с мясом, с картошком”, “Сомса № 1” каби сўзлар катта ҳарфларда ёзилганини учратиш мумкин. На она тилимизда ва на рус тилида тўғри ёзилмаган жумлалар. Қолаверса, жуда кўп жойларда янги ташкил этилаётган корхона, ташкилот, ошхона ёки ишлаб чиқариш худудлари пештоқларига «Скоро открытие», «Мы открылись», деб ёзиб қўйишади. Шунинг ўрнига “Биз иш фаолиятимизни бошладик” ёки “Биз ишга тушдик” каби жумлаларни ёса ҳам бўлади-ку! Бу каби пала-партиш ва хато ёзувлардан истаганча мисол келтириш мумкин. Масалан, улгуржи савдо дўконларининг пештоқига “оптом” деб ёзиб қўйилган. Агар ўша ёзувлар ўзбек тилида ёзилса, шу дўкон ёхуд ошхонага ҳеч ким кирмай қўядими? Савдо ёки хизмат кўрсатиш



соҳасида фаолият юритувчи савдо дўйонлари, умумий овқатланиш жойларида ва уларнинг интернет сайтларида «распродажа», «скидка», «доставка», каби сўзларни ҳам кўп учратиш мумкин. Ваҳоланки, ўзбек тилида «чегирма», «етказиб бериш», «арzon нархда» каби ушбу сўзларнинг муқобиллари мавжуд-ку?!

Рекламалардаги имловий, услугий хатолар савдо-сотик, аҳолига турли хизматларни кўрсатувчи, умумий овқатланиш, тўйхона каби обьектларда кўп кузатилади. Энг ачинарлиси, уларнинг кўпчилиги европача номлар билан аталган. Майли, хорижий тилда ҳам бўлгани яхши, аммо, аввало, ўзбек тилида, сўнг унинг ёнида бошқа тилда бўлиши мақсадга мувофиқ эмасми?! Тижорат мазмунидаги реклама ва эълонлардаги хато матнларни ўқиб, дилингиз хуфтон бўлади. Уларнинг ўзбекчада берилган таржималари услугий хатоларга тўла. Лингвистика талабига кўра, бирор бир тилга бошқа тилдан сўз ёки сўз бирикмаси ўзлаштирилса, бунда ўша сўз ёки фикрнинг оригиналдаги маъноси диққат-эътиборда бўлмоғи лозим. Мазмунга эътибор бермаслик, сўз мавқеига салбий таъсир қилиши мумкин. Сўз ўзлаштириш талаби ҳар бир миллат тили учун муҳим ҳисобланиб, бунда адабий тилнинг барча жиҳатлари кўзда тутилиши шарт. Акс ҳолда, сунъийликка, ноаниқликка йўл қўйилади. Натижада сўзнинг қиймати, мазмун-моҳияти йўқолади. Афсуски, бундай ҳолат таржимачилик амалиётида тез-тез учрайади.

Тўғридан-тўғри, сўзма-сўз қилинган таржима мантиқий хатоликларни келтириб чиқади. Жуда кўп ўринларда Қонуннинг 20-моддасига, яъни ёзувлар, аввало, давлат тилида берилиши, кейин бошқа тилларга таржима қилиниши зарурлигига амал қилинмаган. Қонуннинг 20-моддасида: “Лавҳалар, эълонлар, нархномалар ва бошқа кўргазмали ҳамда оғзаки ахборот матнлари давлат тилида расмийлаштирилади ва эълон қилинади ҳамда



бошқа тилларда таржимаси берилиши мумкин”, деб белгилаб қўйилган. Аммо, мазкур қоидага ҳар доим ҳам амал қилинмаяпти. Албатта, ҳеч ким тараққиётга, рус ва инглиз тилларида берилаётган рекламаларга, хорижлик меҳмонлар учун тушунарли бўлган ёзувларга қарши эмас. Шу маънода, хорижий тилларни ўрганиш ҳаммамиз учун керак, бу давр талаби. Бироқ четдан кирган сўзларни ўринисиз ишлатавериш тил тараққиёти учун акс таъсир кўрсатиши мумкин. Интернет, компьютер, лизинг, маркетинг, коллеж, лицей, модернизация, флешка, клик сингари лексемаларнинг тилимизда кўлланилишининг қонуний асослари бор. Аммо бачканга, ўзбек тилига ҳеч қачон ўзлашмайдиган сўзларни қўллаш, уларни ўз фирма ва корхоналари номига қўшиш, реклама сифатида фойдаланиш қайси қоидаларга тўғри келади?! “Бистроф”, “Шеф Burger”, “Чайхана Салом”, “Магазин 1001 мелочь” каби номлар она тилимизни бойитиш учун эмас, аксинча, сийқалаштириш учун хизмат қилишдан бошқага ярамайди. Хўш, бу муаммони қандай ҳал этиш мумкин? Агар хорижий тиллардаги сўзлардан фойдаланишга маълум бир чеклов қўйилса, ўз она тилимиздаги сўзлардан унумли ва ўринли фойдаланишга эътибор кучаярди. Реклама берувчи ёки реклама агентлиги хатоларга эътиборсизлик билан қараса, уни бартараф этиш учун ҳеч қандай чора кўрмаса, фуқаролар кимга шикоят қилиши мумкин? Хатоларни бартараф этиш масаласига бундай эътиборсизлик билан қараган реклама берувчи шахс ёки реклама агентлигининг ҳатти-ҳаракатларини менсимаслик ёки эътиборсизлик ва паст назар билан қарап дейа таърифлаб, уларни маъмурий жавобгарликка тортиш мумкинми?

Юқоридаги каби ҳолатларга қабул қилинган қонун ва қарорлардаги камчиликлар ҳам сабаб бўляяпти, назаримизда. Чунки 1998 йил 25 декабрда қабул қилинган “Реклама тўғрисида”ги қонуннинг 5-моддасида



ёзилишича, “Ўзбекистон Республикаси худудида реклама Ўзбекистон Республикасининг давлат тилида ёки реклама берувчининг хоҳишига кўра бошқа тилларда тарқатилади”. Шунинг учун ҳам бизда хорижий тилда исталганча реклама бериш, исталган тилда ном қўйиш авж олган. Ўзбекистон Республикасининг “Реклама тўғрисида”ги Қонуннинг 5-моддасидаги “Рекламанинг тили”ни “Давлат тили тўғрисида”ги Қонуннинг 20-моддаси билан мувофиқлаштириш лозим. Шунингдек, “Реклама тўғрисида”ги Қонуннинг 8-9-моддаларида реклама берувчи ёки тайёрловчи зиммасига рекламанинг давлат тилида ва бошқатиллардатўғри ёзилиши, яъни имло қоидаларига амал қилиниши мажбуриятини юклаш зарур деб ҳисоблаймиз. Барча реклама берувчилар, буюртмачилар учун экспертиза марказининг хulosасини олиш мажбурий бўлиши ва ундан сўнг буюртма бажарилиши керак. Шундагина бу муаммо бартараф этилади.

Демак, бу борада ҳам норматив ҳужжатларимизда айрим камчиликлар мавжуд. Хулоса ўрнида айтиш мумкинки, рекламаларда давлат тилидан фойдаланишдаги хатоларнинг олдини олиш “Давлат тили тўғрисида”ги ва “Реклама тўғрисида”ги Қонуларда тартибга солинса, мақсадга мувофиқ бўлар эди.

Дж.С.Файзуллаев,
профессор

Д.А.Абдумажитова,
магистрантка 2 курса
ЧГПИ Ташкентской области
Кафедра русского языка и литературы

ОБУЧЕНИЕ СТУДЕНТОВ ИНОЯЗЫЧНЫХ ГРУПП ОЗНАКОМИТЕЛЬНОМУ ЧТЕНИЮ НА УРОКАХ РУССКОГО ЯЗЫКА

Цели обучения учащихся иноязычных групп русскому языку в значительной степени связаны с усвоением письменных форм коммуникации- «С формированием и развитием навыков и умений читать текст, извлекать из него необходимую информацию адекватно замыслу автора» [1; с. 190].

Роль чтения, в частности ознакомительного, в учебном процессе определяется коммуникативными потребностями учащихся: необходимостью чтения учебников в процессе овладения специальностью, интересом к Российскому образу жизни.

Ведущее место при обучении ознакомительному чтению отводится так называемым информационным жанрам, распространённым в публицистическом и научном стилях речи.

Обучение ознакомительному чтению вызывает значительные трудности в узбекской аудитории, связанные с различиями в языках, в технике чтения на русском языке и узбекском, в значительной степени- отсутствие навыков ознакомительного чтения, логического анализа текста на родном языке, вычленения первостепенной и второстепенной информации, смысловых вех, операций по свёртыванию и развертыванию текста и т.д.

Трудности при обучении ознакомительному чтению связаны и с общими психологическими тенденциями восприятия текста на русском языке.

Исследования психолингвистов свидетельствует о том, что для быстрого и правильного восприятия текста в целом необходимо умение целостно воспринимать смысловую структуру текста. При недостаточном владении языком текста не воспринимается как совокупность смысловых блоков: фиксируется внимание на значениях отдельных словоформ, общая структура текста дробится в сознании, замедляется процесс чтения [2; с.121].

Для обучения восприятию текста как совокупность блоков наряду с традиционными формами над чтением необходимо изучение смысловой структуры текста в соотнесённости с речевыми формами, воплощающими её.

Возможность такого изучения определяется спецификой информационных текстов. В информационных текстах передача фактологической информации языковыми средствами становится доминирующей, ей подчинено само строение текста. Взаимообусловленность информативных единиц и выражающих их языковых средств позволяет вычленять смысло-речевые единицы текста, лексико-смысловые единства (ЛСЕ). Функциональный анализ ЛСЕ в информационных жанрах демонстрирует их роль как конструктов информационного текста, универсальность ЛСЕ в пределах жанра; жёсткую обусловленность отбора ЛСЕ в зависимости от их информационной значимости в тексте; тенденцию к однозначному соответствуию элемента смысловой структуры и его речевого воплощения в рамках ЛСЕ, что приводит к определённой стандартизации, терминологичности речевого оформления текстов этого типа.

Перечисленные факторы позволяет составить конечный набор ЛСЕ в пределах одного жанра и модели текстов как совокупности ЛСЕ.



Преимущество обучения ознакомительному чтению по моделям текста как совокупности ЛСЕ состоит в том, что внеязыковая действительность, лежащая в основе смысловой структуры текста, универсальна, а её языковое выражение специфично в каждом языке: его специфика проявляется в использовании средств другого языка и в традициях употребления тех или иных средств для выражения смысла.

При работе с ЛСЕ у студента вырабатывается автоматическая связь элемента смысловой структуры текста /который присутствует в сознании студента на родном языке/ и его речевого воплощения на русском языке. Модели текстов как совокупности ЛСЕ, отражающие иерархичность смысловой структуры текста, позволяют наглядно демонстрировать студентам способы свёртывания и развёртывания текста [3; с.12].

Обучение ознакомительному чтению студентов иноязычных групп читать с минимальных текстов газетной хроники /публицистический стиль/, научной хроники. Эти жанры характеризуются большой информационной насыщенностью, минимальной вариативностью языковых средств. Их тексты воплощают минимальную возможную смысловую структуру /так, в хронике функционируют 15 типов ЛСЕ, группируемых по моделям в зависимости от тематической принадлежности текстов/.

Последовательность обучения включает:

1. Ознакомление с минимальным составом ЛСЕ, вариантами их выражения.

Так, в газетной хронике функционируют ЛСЕ: места, времени, факта, деятеля, ссылки, участия, масштаба /минимальные тексты/. Каждый из них воплощён совокупностью вариантов. Например, ЛСЕ места формируется вариантами:

- а) «здесь»;
- б) наименованием города, страны;



- в) определением, обозначающим принадлежность к городу, стране;
- г) родовым наименованием населённого пункта, вида здания + топонимом.

2. После усвоение средств выражения каждого ЛСЕ, узнавания их в тексте предъявляется их типичная последовательность /модель текста/ в её минимальном выражении. Например, при изучении текстов газетной хроники предъявляется модель:

Время- место- факт- деятель /масштаб/. При чтении текста проводится обучение вычленению модели, представленной на доске. Эта модель служит также зрительной опорой при воспроизведении текста.

3. После доведения до автоматизма оперирования моделью в минимальных текстах студентам предлагаются развёрнутые модели текстов и проводится работа, аналогичная описанной выше.

В текстах газетной хроники развёрнутые схемы включают ЛСЕ оценки, повода, причины, цели, задачи, отношения, результата. В числе заданий студентам предлагается вычленить в текстах минимальную модель, усвоенную ими, таким образом осуществляется операция по сжатию текста, необходимая для успешного ознакомительного чтения.

4. Студентам предлагаются для чтения развёрнутые тексты, информацию которых предлагается передать в рамках изученных моделей.

При такой работе возможен анализ дополнительной информации, обучение студентов формам развёртывания текста: первичное развёртывание в наших примерах-включением в текст ЛСЕ причины, повода и т.д.; вторичное – образование дополнительных минимальных текстов, противопоставляемых первому; развёртыванием одного из ЛСЕ и т.д. Обучение по моделям текстов как совокупности ЛСЕ значительно сокращает время овладения



ознакомительным чтением информационных текстов, способствует их целостному восприятию.

Список использованной литературы

1. Метс Н.А. «Коммуникативная целеустановка и структурная организация текста - ВАК» Научные традиции и новые направления в преподавании русского языка и литературы. М. «Русский язык» 1986. с 190.
2. Жинкин Н.И. Речь как проводник информации, М.Наука; 1982. Психолингвистическая и лингвистическая природа текста и особенности его воприятия, Киев, 1989.
3. Акиштна Т.Е., Хазов П.В. Жанровый аспект анализа текста,- Иностранные языки в школе, 1982,№ 4; Хазов П.В. Особенность строения текста газетной хроники и проблемы обучения чтению, Русский язык за рубежом, 1985, № 3.

Л.К.Турабаева,

филология ғылымдарының кандидаты, доцент
М.Әуезов атындағы Оңтүстік Қазақстан университеті,
Шымкент, Қазақстан

ШЕШЕНДІК СӨЗДЕРДІҢ ҚОҒАМ ӨМІРІНДЕГІ ТӘРБИЕЛІК МАҢЫЗЫ

Шешендік сөздер ағып тұрған поэзия, тұнып тұрған философия. Ақ өлеңмен өрілген сөз тұнығы: сырлы теңеу, астарлы сын, жинақы ой, жұмбақты меңзеу, қисынды толғам, тылсымды талай. Бәрі тіл құдіретінің, пікір түйінділігінің, таңғажайып ой толғағының әмбебап туындысы.

Өмір құбылыстарына байламды шешендік сөздер орнына қойылса шебер шенdestіріледі. Сырланып, әрленіп, татымы нәрленсе ойды шалқытып, сезімді тербел адам көңілін үйітады.

Қазақ ауыз әдебиетінің ерекше бір жанры – шешендік өнер. Халқымыздың даналығының үлгісі шешендік сөздер – ғасырлар бойы халық сынынан ерекшеленіп өткен құнды мұра, асыл қазына. Шешендік өнеріне ерте замандардан-ақ, үлкен мән берілген. Ежелгі грек, рим елдерінде шешендік өнерді «риторика» деген атпен жеке пән ретінде оқыған. Дүние жүзіне әйгілі ерте заман шешендері Пратогор, Демосфен, Цицерон, Квинтилиан сияқты өз заманының мемлекет қайраткерлері, ел аузына қараған ойшылдары болған. «Риторика» ғылымы өнердің падишасы ретінде ерекше бағаланған. М.В.Ломоносовтың 1748 жылы басылып шыққан «Шешендікке қысқаша басшылық» атты еңбегі бұл өнердің Ресейде дамып, қалыптасуына тұрткі болды.

Қазақтың шешендік сөз тарихы Майқы би мен Аяз билерден басталып (XII-XIII ғғ.), Жиренше шешен, Асан қайғы (XIV-XV ғғ.) есімдерімен қатысты калыптасып, өркендей тұсті. Шалгез, Бұхар (XV-XVIII ғғ.), Шортанбай,



Дулат, Мұрат, Төле, Қаз дауысты Қазыбек, Әйтекелерге жалғасты. Шешендік өнерінің кеңінен дамып биқтеген кезеңі – XV-XVIII ғғ. Бұл кез қазақ халқының жонғар, қалмақ, қытай басқыншыларына қарсы тұрып, өз тәуелсіздігін қорғау жолындағы күрес жылдары еді.

Шешендік сөздердің алғашқы үлгілерін халық ауыз әдебиеті туындыларынан, ертегі, аңыз әңгімелерден, өлеңжыры, дастандардан ұшыратамыз. Осы сөз өнерінің кең қанат жайып, орнығып дамуында тапқырлық пен шешендіктің тамаша нұсқалары – жыраулар толғаулары, айтыстар мен мақал-мәтелдердің орны ерекше.

Қазақтың шешендік сөздерін өзге жүрттың атақты адамдары, ғалымдары жоғары бағалады. Шешендік сөздер нұсқаларын академик В.В.Радлов (XIX ғ.) зерттеп жинаған болатын. Ол: «Қазақтар... мұдірмей, кідірмей, ерекше екпінмен сөйлейді. Ойын дәл, айқын үғындырады. Ауыз екі сөйлеп отырғанның өзінде сөйлеген сөздер үйқаспен, ырғақпен келетіндігі соншалық, бейне бір өлең екен деп таң қаласын», – деп көрсете отырып, әсіресе қазақ тілінің тазалығы мен табиғилығын дұрыс аңғарып, қазақтардың сөзге тапқырлығы мен шешендігі өзіне ерекше әсер еткенін жазған.

Сондай-ақ, қазақтың шешендік, тапқырлық, нақыл сөздерін жинап жариялағандардың бірі – Ұбырай Алтынсарин. Ол халық даналығының жас өспірімдерді тапқырлыққа, өткірлікке, адамгершілікке баулытын тәрбие құралы екенін жете танып, өз еңбектеріне орнымен енгізіп, пайдалана білді.

Шешендік сөздерді алғаш зерттеушілердің бірі – М.Әуезов. «Қазақ әдебиеті тарихы» (1927 ж.) еңбегінде «Билер айтысы» деген арнаулы тақырыппен шешендік сөздердің кейбір түрлеріне мысалдар келтіреді. Ауыз әдебиетінде алатын орны мен халықтық сипатына дәлелді ғылыми тұжырымдама береді. Ауыз әдебиеті мұраларын



зерттеп, жинап, ерекше еңбек сіңірген ғалым-лингвист А.Байтұрсынов шешендік өнерді жеке алып қарастырып, құнды пікірлер білдірді (1926 ж.). Шешен сөз, көсемсөз, дарынды сөз деп үш топқа бөліп, әрқайсысын қолданыс орнына қарай (саясатқа қатысты, сотта сөйлеу, қошемет сөздер, ғалымдардың ғылыми тақырыптағы сөзі, діни уағыз сөздер) іштей тағы беске бөліп, әрқайсысына қысқаша түсініктер, тың анықтамалар берген.

Шешендік сөздер көбінесе түсінік сөзден басталады. Түсінік сөзде айтылмыш шешендік сөздің немен байланысты, қандай жағдайда туғандығы мен кім айтқаңдығы баяндалады. Шешендік сөздің, айтылар ойдың негізі – мазмұн. Сөз нақтылы, нені айтса да сендіретіндей, иландырып қарсыласын мойындаататында дәлелді айтылған. Жазба әдебиетіміз дамыған кейінгі дәүірде шешендік сөздер саптан шыққан жоқ. Заманға сай жаңа мазмұн, жарасымды тұр тапқан шешендік сөз нұсқалары көбейді.

Шешендік шендік сөз терең ойфа, ұтқыр шешімге, тапқыр логикаға құрылады.Халық мақалдарында: «Таяқ еттен өтеді, сөз сүйектен өтеді», «Бас кеспек болса да, тіл кеспек жоқ», «Қылыш жарасы біtedі, тіл жарасы бітпейді», «Аталы сөзге арсыз ғана тоқтамайды», – деп сөзді айтушыға да, оған құлақ қоюшыға да биік талап қойған. Демек, шешеннің ең негізгі құралы – сөз. Ол тындаушының жүргегіне жетіп, ерекше сезімге бөлеген.

Сөз туралы Бөлтірік шешен: «Сөзден тәтті нәрсе жоқ. Сөзден абын нәрсе жоқ. Сөзінді тіліңе билетпе, ақылыңа билет. Ақылыңды, сөзінді ақылсызыға қор етпе, ақылдыға айт, кімге, қай жерде, қай кезде, қалай сөйлейтініңді біл»,- деп толғайды.

Шешендік өнер – көрген-білгенді көкейге тоқып, көп үйреніп ізденудің арқасында талай айтыс-тартысқа түсіп, жалықпай жаттығу арқылы жетілетін өнер. Шешендік өнердің қындығы туралы Бұқар жырау: ...Көш бастау



қыын емес – қонатын жерде су бар. Қол бастау қыын емес – шабатын жерде жау бар. Шаршы топта сөз бастау қыын – шешімін таппас дау бар – деп дұрыс аңғартады.

Айтыс – шешендік өнердің шыны. Мұнда ауыз әдебиетіне тән барша қасиеттер тоғысқан. Шешендер сөзі – халқымыздың тілдік қазынасы. Ол көркем әдебиетіміздің қалыптастып дамуына белгілі дәрежеде үлес қосқан ақынжыраулардың арнау, толғау сөздеріне үқсас болып келеді.

Ертеден-ақ, халқымыздың өзіндік басқару жүйесі болды. Ел қамын жеген ерлері, сөзін сөйлеген, әділін айтқан шешендері, білімпаз билері болды. Би – халықтың көкейіндегісін айтқан, ойын жарыққа шығарған әділет жоқшысы. Қазақтың атақты билері Төле, Қаз дауысты Қазыбек, Әйтекеден қалған сөз дәстүрі ғасырлар бойы үзілген емес.

Ш.Уәлихановтың: «Би атағын беру қазақта халық тарапынан бір сайлау арқылы немесе халықты билеп отырған өкімет тарапынан бекіту арқылы болған емес, тек сот ғұрыптарына әбден жетік, сонымен қатар тілге шешен қазақтар ғана бұл құрметті атаққа өз бетімен ие болған. Би атағын алу үшін би болам деген қазақ өзінің заң ісіне жетіктігі және шешендік қабілеті бар екендігін халық алдында сан рет көрсетуге тиіс болған. Ондай адамдардың атағы бүкіл қазақ даласына тез жайылып, олардың аты жұрттың бәріне мәлім болып отырған», – деген сөздерінен би – халықтың көкейіндегісін айтқан, жарыққа шығарған әділет жоқшысы екенін танимыз.

Көне Римнің әйгілі шешені және теоретигі М.Т.Цицерон: «Адам ақын болып туады, шешен болып шығады» -дейді. Яғни ақындыққа түа біткен талант керек десе, шешендік көп оқып, көп іздену, көп сөйлеп жаттығу, күш-қуат жұмсау қажет дегенді айтады.

А.Ф.Кони шешендік пен көпшілік алдында сөйлей білушілік екі түрлі нәрсе деп қарайды. Шешендік, қызыл



тілге жүйріктік адамның табиғатына туа бітетін қасиет десе, ал көпшілік алдында көсіліп сөйлей білу тәжірибесіне үздіксіз жаттығуға байланысты дарын деп қарайды. Осы ойды қазақтың мақал-мәтелдерінде де құптай келіп: «Ойға салмай сөйлеген – шешендіктің белгісі, көп ішінде сөйлеген – көсемдіктің белгісі» деп қорытады.

Байтақ дала төсінде сан ғасыр көшіп-қонып күндер кешкен қазақ халқы жан сезімін жырмен ағытқан, ақыл мен ойдың мәніданалық сөздедеп қадірлекен, қылпылдаپ тұрған қылыштан қыңбаса да, жүйелі сөзге жүгінген. Өмір сырын ойға түйіп, санаға жазған дала даналары, тау өзеніндей тасқын жырлы ақпа жыраулар, шешендер, ақындар еді. Шамырқанса – көңіл көгі наизағайдай шатырлап, тебіренсе – телегей теңіздей бүрқанып, ақ жаңбырдай ақтарылған олар халықты өрлікке, елдікке, ерлікке, бірлікке үндеген, қайғыға қабырғасы қайыса ортақтасып, қуанышқа жүрек жарды сөздерін айта білген.

Шешендік өнер – қазақ ауыз әдебиетінің халық өмірінде үлкен әлеуметтік орны бар қомақты үлкен бір жанр. Шешендік өнер адам аңсарын аударатын ерекше бір шуақты дүние. Тіл байлығы атты қазынаның алтын қорынан саналатын осынау ғибратты сөздер өмір шындығын, халықтың тұрмыс-салты мен тіршілігін, мінез-құлқын, қоғамдық дамуын тайға таңба басқандай дәл, әрі шебер, мәнді де құнды бейнелеуімен ерекшеленеді.

Шешендер сөзі тіл кестесі мен өлең өрнегінен, қара сөздің өткір бізінен тұрады десек, ол сөз өнерінің ұлттық сипат - ерекшеліктерін айқындайды. Қазақ халқының әдебиеті негізіне, поэзия, өлең сөз шеңберінде өркенденеп келгенін еске алсақ, шешендік сөзі қара сөзben айатылсын, қысқа өлең жолдарымен айтылсын, әйтеуір құйылып тұрған үйқасқа құрылады.

Шешендік сөздер көркем әдебиеттің жанрлары: ертегі, батырлар жыры, мақал-мәтелдер, жұмбақ, жаңылтпаштар,



қара өлең, термелер т.б. сияқты оқиғаны баяндау, тапқырлыққа баулу, ұлғі-насихат арқылы тыңдаушының таным дүниесін кеңейтіп, биік адамгершілік қасиеттерге үндеп қана қоймайды, олар сонымен қатар қазақ даласында әлеуметтік қызмет атқару ерекшелігімен дараланады. Сондықтан да дана халқымыз шешендікті терең меңгерген адамды киелі санап, жүйесін тауып сөйлеген сөзге тоқтаған, шешендікті «шешендік өнер» деген сөз тіркесімен атауы да тегіннен-тегін болмаса керек.

Шешендік сөз парасатты ойға, үтқыр шешімге, тапқыр логикаға құрылады. Шешендік сөз айтылған ойға әрі қысынды, әрі тапқыр, әрі жедел жауап қайтару болып табылады. Яғни, шешендіктің басты қасиеті – тапқырлық, шашашаңдық.

Шын мәнінде, шешендік сөздер ақындық өлең-жырлар мен көркем қарасөздің, яки ертегі, аңыз әңгімелердің беліне бастауындағы аралық жанр сынды. Өйткені аталмыш екі жанрдың да белгілері шешендік сөздерде «мен мұндалап» тұрады. Бұл шешендік жанр жойылмай, екі жанрдың біріне қосылмай, қалыпты дербестігін сақтап, өмірге шешендік өнер, сөз жанрын әкеліп қосты.

Мәселен, «Бір дегенім – білеу, екі дегенім – егеу, уш дегенім – үскі» деп басталып, он бірге дейінгі сандарды үйретуге арналған санамақ ойын-өлеңіндегі тақпақ-жұмбақты үйретуден бастап, «ұшты-ұшты» ойындарында айтылатын жанды-жансыз заттарды ажыратуға арналған өлең үйқасынан құралған сөз тізбегін айтқызып балаларды аңғарымпаздыққа, тапқырлыққа тәрбиелеген.

Шешендік өнердің ерекшеліктеріне тоқталсақ, біріншіден, логикалық ойдың жүйелілігімен, мағыналы-мәнділігімен ерекшеленеді. Шешендердің сөзін тыңдағанда, әсем сазды ән тыңдағандай ерекше әсер, сезімге бөленеміз. Ол адамның жастайынан дұрыс ойлай білуіне, ойлаған ойды жүйелеп, әдеби тілде тыңдаушының көкейіне жеткізе



білуіне байланысты. Дұрыс ойлап, сол ойды тыңдаушыға дұрыс жеткізе білу үшін оқыған шығармаларды, естіген ертек - әңгімелерді жүйелеп айтып бере білуге төсөлу керек. Ол оқушылардың жастайынан ертек, әңгіме кітаптарды көп оқуына, ойынан ертек құрастыра білуіне, оқығандарын үлкендергежүйелеп айтып бере біліп төсөлуіне байланысты. Сөйлемнің құлаққа жағымды болуы, дыбыстардың және сөздердің үйқасымдылығына байланысты деп қараша болады. Сөйлемді дұрыс айта білудің де тыңдаушыға әсері мол. Кейбір оқушы сөздерді дұрыс айта білмейді. Осы болмас үшін дыбыстарды дұрыс айта білуге үйрету қажет.

Талай ғасырдан өтіп, ұрпақтан-ұрпаққа жетіп, халықтың рухани байлығына айналып отырған шешендік өнер бүгінгі күннің де қажеттілігіне айналып отыр. Елін елдікке үйітуда, халық тарихын байыппен сарапап, түп-тамырынан ада бола жаздаған бүгінгі ұрпақ санасына жеткізуде шешендік сөздің берері аз емес.

Әдебиеттер

1. Қазақтың тәлімдік ойлар антологиясы», 4-том. 2007, Алматы. С.Қалиев, К.Аюбай.
2. Бұлдыбаев, Б. Шканова А. Шешендік сөздер табиғаты. Әдістемелік құрал. Алматы, 1995.
3. Адамбаев Б. «Тозған қазды топтанған қарға жейді» / шешендік сөздер, халық мақал-мәтедлері жинағы/, Алматы «Рауан» баспасы. 2001. -128.
4. Сен білесің бе? энциклопедия. Алматы, 1997.

Г.Н.Ашурова,

Алишер Навоий номидаги Тошкент давлат ўзбек тили
ва адабиёти университети доценти,
Фузулий номидаги ўзбек-озарбайжон илмий-тадқиқот
маркази раҳбари

НУТҚ МАДАНИЯТИНИ ЭГАЛЛАШДА АЛИШЕР НАВОИЙ ИЖОДИНИНГ ТУТГАН ЎРНИ

Инсоннинг маънавий камолотга эришувида, жамиятнинг маданий – маърифий ривожида она тилининг ўрни фавқулодда муҳимдир. Тил миллий маънавият, маърифат ва маърифатнинг энг холис ва хира тортмас кўзгусидир. Мутафаккир Алишер Навоий бобомиз “Тил – чаманнинг очилган лоласи бўлса, сўз дурлари унга қўнган шабнамдир” дея таъриф берган. Тил халқнинг бебаҳо бойлиги, миллий ғурури тимсолидир. Туркий тиллар оиласига мансуб ўзбек тили ҳам қадриятларимизнинг ёрқин намунаси сифатида авлоддан-авлодга ўтиб келмоқда. Сўз мулкининг сultonи Алишер Навоий тилимизнинг чинакам латофати ва жозибасини дунёга тараннум этиб, ижодини юксак чўққига олиб чиқди. Асрлар давомида буюк аждодларимиз қолдирган улкан адабий мерос она тилимизнинг боқий қудратидан далолат беради.

Бугун юртимиз бўйлаб йўзбек тили байрамининг кенг миқёсда нишонланаётгани, том маънода, халқимизнинг тарихий ютуғидир. Юртимизда ўзбек тилининг мавқеи ва нуфузини янада юксалтиришга улкан эътибор қаратилмоқда. Она тили мамлакатнинг ғурури, ифтихори ҳисобланади. Миллатнинг маданияти, маънавияти, зиёлилик даражаси она тилига муносабатда ҳам аниқ кўринади. Ўзбек тили ўзбек халқининг миллий бойлиги сифатида қадим-қадимдан бугунгача эъзозланиб, ардоқланиб, сайқалланган.



Ҳамма даврларда ҳам нотиқлик маданияти, сўзамоллик нотиқ шахснинг умуммаданий қиёфаси ва савиясини белгиловчи асосий фазилатлардан бири сифатида қарабалган. Зеро, нутқ бу тафаккур акси ҳисобланади. Тўғри нутқнинг асоси тўғри фикр юритишдадир. Инсонларнинг тўғри, таъсирчан, чиройли ва яхши гапиришга интилиши ва унга оид одатий қоидалар қадимий тарихга эгадир. Бундай қоидалар қадимий ўтмишдан ҳозирга қадар мангу анъана сифатида яшаб, такомиллашиб келган. Бироқ, нутқ маданияти тушунчаси билан боғлиқ ушбу нутқий одатлар турли даврларда муайян хусусиятлари билан фарқланиб турган. Айниқса, адабий тил пайдо бўлгунга қадар мавжуд бўлган нутқ одоби ҳақидаги тасаввурлари, адабий тил пайдо бўлгандан кейинги давр нутқ маданияти тасаввуридан фарқланади.[1, 24] Жаҳон маданияти тарихида мислсиз обрў-эътиборга эга бўлган ўзбек адабий тилининг яловбардори Алишер Навоийнинг нутқ маданияти, нутқ одоби ҳақидаги мулоҳазалари, фикрлари, қарашлари юксак ҳётий тажриба маҳсули ва амалиёт синовидан ўтган ҳикматлар сифатида диққатга сазовордир. [2,5] Буюк мутафаккир, аввало, сўзнинг қудратини қуидагича тавсифлаганлар:

*Сўздурки, нишон берур ўлукка жондин,
Сўздурки, берур жонга хабар жонондин.[8]*

Алишер Навоийнинг “Муҳокаматул-луғатайн” асарида таъкидланишича, сўз гёё дурдир. Бобомиз инсонда мавжуд қувватлар ҳақида фикр юритар экан, сўзлаш қувватини алоҳида таъкидлаб ўтади:

*Инсонни сўз айлади жудо ҳайвондин,
Билким, гуҳари шарифроқ йўқ ондин. [8]*



Одатда, нутқ маданияти дейилганда тингловчига ёки сұхбатдошга фикрни соф адабий тилда түғри, аниқ силлик, тушунарлы, таъсирли, ёқимли баён этиш ва она тилининг восита ҳамда имкониятларидан нутқ мазмунига, сўзлаш шароити, айтилмоқчи бўлган мақсадга мувофиқ равишда фойдалана олиш тушунилади.[3,7] Ҳар бир сўзни ўринли қўллаш нутқ маданияти саналади. Тўғри, таъсирчан, чиройли ва мазмунли гапиришга интилиши ва унга оид одатий қоидалар қадимий тарихга эга. Нутқ одобининг қайд килинган маданий - ахлоқий талаб ва асослари нутқ меъёрлари сифатида қадимий даврлардан бери авлоддан-авлодга ўтиб келган. Ушбу нутқий меъёрларнинг сақланиши, ўзгартирилиши ва яшаб келишида оиласвий анъаналарнинг ўрни каттадир. Бир тил жамоаси доирасида амал қилинган анъанавий қоидалар, сұхбатдошлар (сўзловчи ва тингловчилар)нинг бир-бирини ўзаро назорат қилиши, кузатиши, таълим-тарбия, ўгитнасиҳат жараёни, шунингдек, нутқий одоб меъёрлари ҳақида ёзилган адабиётларни мутолаа килиш асосий ўрин тутган. Ўзбек адабий тилининг асосчиси ва мутафаккири Алишер Навоий ижодида сўз санъатига, нутқ маданияти масалаларига катта эътибор берилган. Навоий сўзнинг дабдабали бўлишидан кўра, ҳаққонийлигини улуғлайди. “Фикринг халқ учун фойдали ва тушунарли бўлсин десанг, содда тилда гапир” дейди: “Чин сўз мўътабар, яхши сўз муҳтасар. Сўзки фасоҳат зеваридин музайян эмасдир, анга чинлик зевари басдур. Ёлғончи ҳар неча сўзида фасихроқ, сўзи қабиҳ. Чин сўз нечаким бетакаллуф, қойилки иборат соддалигидин йўқ таассуф”.[4,363] Навоий тўғри сўзли, эл учун фойдали фикрлар айтадиган нотиқларга ён босади. Уларнинг хизматини масжид имомларининг қилаётган ишларидан юқори кўяди. Улар учун имомларга нисбатан кўпроқ маблағ ажратишни, яъни «Воизга йиллик нақди беш юз олтун, буғдор; масжиди жомеъ имомига йиллик нақди



икки юз олтун, буғдой» ажратишни тавсия этади.[6,32] Ваъз бир муршид ва огоҳ ишидур ва анинг насиҳатин қабул этган мақбул кишидур. Аввал бир йўлдин бормоқ керак, андин сўнгра элни бошқармоқ керак. У йўлни юрмай кирган кетар ва ғайри мақсад ерга етар. Воиз улдурки, мажлисига ҳоли кирган тўлгай ва тўла кирган ҳоли бўлгай. *Тилга ихтиёrsiz - элга эътиборсиз. Ямон тиллик андоқум, эл қўнглига жароҳат етқуур, ўз бошига ҳам оғат етқуур.* [5,32-33] *Хусн-жамоли йўқ одам ширин сўз бўлса, гўзал ва ширин сўзи билан барчани қўлга олади.* Бундан шундай хулоса чиқадики, яхши сўзлай олиш, ширин сўзлик инсонга хусн бағишлиайди, унинг обрў-эътиборини орттиради. Шунинигдек, мазмунли, рисоладагидек нутқ ирод қилиш ҳам бир санъатdir, хунарларнинг ноёбидир: Эрдин соз хунар, энчидин боз хунар. [5,82]

Халқимиз: “Бир йигитга етмиш хунар оз”, - дейди. Демак, ўзини баркамол санаган ҳар бир одам нутқ маданиятини, нутқ санъатини эгалламоғи лозим. Чунки яхши, эзгу сўз (нутқ) айта олиш, нутқ одобини эгаллаш кишига баҳт келтиради:

*Ким истаса мазҳари каромат бўлмоқ,
Ҳар навъ ишда истиқомат бўлмоқ.
Сўздир анча мужиби каромат бўлмоқ,
Тил забтидадур анча саломат бўлмоқ.* [5]

Мутафаккир нутқ одобининг талаблари ҳақида яна кўплаб фикрларни айтган. Уларни қуйидагича умумлаштириш мумкин: Инсоннинг одоб-ахлоқини белгилайдиган омиллардан бири унинг сўзи, нутқидир: *Сувнинг мазаси муз била, ошнинг мазаси туз била, одам яхшилиги сўз била.*

*Сўздадур ҳар яхшилик имкони бор,
Мунда деббурлар, нафаснинг жони бор.* [5,83]



Сўз зоҳир этар замир иши кўпрагидин,
Тил мухбир эрур кўнгил ниҳон эмгагидин,
Фаҳм айла киши ҳолини сўз демагидин,
Ким берди хабар ҳадиси кўнглидагидин. [7,24]

Кишининг сўзи (нутқи) унинг ақлий камолотидан дарак беради:

Одамки, демак бирла киромийдур,
Бас сўз дурри ишининг интизомидур,
Сиҳат ончаки, аҳли ақл комилдурур,
Ақлиға далил аниңг қаломдурур. [7,48]

Сўзлаганда дилинг билан тилинг бир бўлсин, чунки дилдаги тилга чиқади:

Ҳақ сени севгай эл била бўлсанг,
Тилу кўнглингни бир қилиб биррўй,
Нуқта сурсанг шукуфтау хандон,
Зист қилсанг, кушодоу хушрўй. [5]

Хушмуомала, ширин сўз бўл. Тилинг билан кишиларга озор берма:

Ҳар кимки чучук сўз элга изҳор айлар,
Ҳар неники ағёр дурур ёр айлар,
Сўз қаттиғи эл кўнглини озор айлар,
Юмшоги кўнгилларни гирифтор айлар. [7,54]

Алишер Навоийнинг тил ва нутқ, нутқ одоби, нутқ маданияти, нутқ санъати ҳақида айтган фикрларида қадимий туркӣ ҳалқларнинг нутқ маданияти борасидаги бой ва ноёб мероси маҳорат билан ёритилади. У тилни, сўзни қадрлашни, уни ҳурмат қилишни уқтириб, нутқ одобининг талаблари ҳақида шундай ёзади:



Донаю дур сўзини афсона бил,
Сўзни жаҳон баҳрида дурдона бил.[9]
Сўзнинг маъносини тушуниб, билиб гапир:
Сўзни кўнгулда пишқармагунча тилга келтурма,
Ҳар наким кўнгулда бўлса, тилга сурма. (“Маҳбуб ул-
қулуб”, 83-бет.) Яхши, эзгу сўз (нутқ) кишига обрў, баҳт
келтиради. Эзгу сўзли бўл:

Хирадманд чин сўздин ўзга демас,
Вале бари чин ҳам дегулук эмас.
Киши чинда сўз зебо дурур,
Неча мухтасар бўлса авло дурур. (“Маҳбуб ул-қулуб”, 83-
бет).

Бировким ёлғон сўзни бировга боғлагай, Ўз қаро бўлғоч
юзин ёғлагай. Кабира гуноҳдур - оз сўз ҳамки ўтрукдур, захра
гуноҳдур, оз сўз ҳамки ўтрукдур, захри мухликдур - агарчи
микдори уксуқдур. Яъни тилдан тұхмат учун фойдаланма.
Тұхматчидан қоч. Ундан нафратлан, дейилмоқда. (“Маҳбуб
ул-қулуб”, 61-бет.)

Эл айбини айтурга бировким узотир тил,
Ўз айбини фош айлагали тил узотур бил. (“Маҳбуб ул-
қулуб”, 69-бет.)

Тилингни тий. Кўп сўз, эзма ва вайсақи бўлма. Бу
зааралидир. Бефойда сўзни кўп айтма ва фойдали сўзни кўп
эшитурдин қайтма. Оз деган оз янчилур, оз еган оз йиқилур.
 (“Маҳбуб ул-қулуб”, 82-бет.)

Тил илдамидин бўлур каромат ҳосил,
Юз навъ надомату маломат ҳосил.
Оз сўзлагандин истиқомат ҳосил,
Соқитлигидин вале саломат ҳосил, [7,31]



дэйиш билан сўзлаганда шароитни, суҳбатдошингни ҳисобга олишни, беўрин сўз айтмасликни, золим ва бедард суҳбатида нукта сурмасликни маслаҳат беради. Бўш оғиз бўлма, суҳбат сирларини сақлашга ўрган:

*Қайси мажлисдаким эшишсанг сўз,
Билгил ул сўз санга амонатдур,
Гар ани ўзга ерга нақл этсанг,
Ул амонатга бу хиёнатдур.* “Арбаин”, 57-бет.

Улки, сўзни бир ердин яна бир ерга еткургай, элнинг ўтган гуноҳини ўз буйнуга индургай. Ким сўзни териб айтгувчи оғзига бергай, Молик ани дўзах ўтининг дудига тергай. Гапирганда қайтариқлардан қоч, чунки улар фикрнинг таъсирини сусайтиради:

*Бир дегани икки демак хуш эмас,
Сўз чу тақрор топти дилкаш эмас.* (“Хамса”, 484-бет.)

Ҳазрат Алишер Навоий сўзлаш жараёнида сўзни қадрлаш лозимлигини таъкидлайди. Сўзни қадрлаган одамгина ҳар бир сўздан унумли фойдалана олади. Шоир: “Сўз – тил фақат инсон учун ато этилган. Инсоннинг инсонлиги тил биландир. Ҳайвон сўзлаш имкониятидан маҳрум бўлганлиги учун ҳам ҳайвондир”, - деган хulosага келади. Шу боис ҳам сўз муқаддас ва мукаррамдир. Алишер Навоий: “Кўнгил бадан мулкининг подшоҳидир”, - деб ёзади. Худди ана шу подшоҳ саналмиш кўнгилдаги фикрлар тилда юзага чиқади. Шундай экан, Алишер Навоий инсон сўзлаганда унинг кўнгли, дили билан тили бир бўлиши лозимлигини алоҳида таъкидлайди:

*Демон, кўнгли поки, ҳам қўзи пок,
Тили поки, сўзи поки, ўзи пок.* (“Фарҳод ва Ширин”, 53-бет)



Хулоса қилиб айтганда, Алишер Навоий тилни, сўзни қадрлашга ва хурмат қилишга чақиради. Сўзни қўллаш, нутқ маданияти ҳақида юксак ҳаётин тажриба маҳсали сифатида туғилган донишона ҳикматлар қолдирди. Нутқ маданияти ва нотиқлик олдига содда ва ўринли гапириш, қисқа ва мазмундор сўзлаш, эзмалик қилмаслик, кексалар, устозлар олдида нутқ одобини сақлаш, тўғри, рост ва дадил гапириш, ёлғончиликни қоралаш, сұхбатдошнинг фикрларини эътибор билан тинглаш, тушунмаган, тўла англамаган ҳолда фикр билдиришга шошилмаслик, вазият тақозосига кўра хушёрлик ва эпчиллик билан сұхбат усулини ўзгартиришга эришиш, асосий мақсаддан чалғиб кетмаслик, барчанинг асосий диққатини маълум мавзу, маълум бир масала атрофига тортиш каби талаблар қўяди. Бу қоидалар ҳозирги қунга қадар давом этиб, такомиллашиб, сайқалланиб келмоқда. Она тилимизга эътибор ортиб бораётган бугунги қунда нутқ маданияти қоидаларини ўрганиш, ҳазрат Алишер Навоийнинг бу борадаги ибратли ўгитларидан хулоса чиқариб, нутқ одоби қирраларини эгаллаш ҳар бир инсоннинг асосий бурчидир.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР

1. Кўнғуров Р. ва б. Нутқ маданияти ва услубият асослари. Т.: 1992.
2. Ахмедов Б. Навоий замондошлари хотирасида. Т.: 1985.
3. Ўринбоев Б., Солиев А. Нотиқлик маҳорати. Т.: 1984.
4. Маллаев Н. Ўзбек адабиёти тарихи. -Т. 1976. 363-364 - бетлар.
5. Алишер Навоий. Муқаммал асарлар туплами. 14 том. Т.: 1998.
6. Алишер Навоий. Вақфия. Т.: 1991.
7. Навоий А. Мажолисун нафоис. www.ziyouz.com.
9. Раззоқов А. Сўзни улуғ деб билди... www.saviya.uz.

Sh.T. Ziyamuxamedova,
Toshkent davlat yuridik universiteti
O'zbek tili va adabiyoti kafedrasi dotsenti v.b.

SO'ZNING ULUG'VORLIGI HAQIDA DONOLARIMIZ BISOTIDAN QATRALAR

"O'ziga boqma, so'ziga boq" – deydi xalqimiz. Darhaqiqat, har kimning ichki dunyosi, ma'naviy olami, fikr-mulohazasi va bilim saviyasi uning nutqida, gap-so'zida namoyon bo'ladi. Biroq so'zlash, nutq qobiliyati hammada ham birday emas. Ba'zilar nihoyatda so'zamol, gapga chechan bo'ladilar, burro-burro so'zlaydilar. Lekin suhbat so'ngida bu suhbatdan oz fikr olganingizni sezasiz. Demak, bu mahmadonalik, ezmalik ekan, xolos. Bu xil nutqning qiymati arzon. Boshqa birovlar esa, aksincha, o'zlarining ancha qimmatli fikr-mulohazalarini boshqalarga bayon qilishda, o'zлari tushungandek qilib tushuntirishda qiynaladilar, sababi ulardagi so'z boyligi kam bo'lgani uchun til imkoniyati va vositalaridan yetarlicha foydalana olmaydilar. Bu xil kishilarning nima demoqchiligin odatda qo'shimcha savol-javob bilan bilib olish mumkin. Yana boshqa о'rtoqlarda esa fikrni erkin, qiyalmay bayon qilish qobiliyati yetarli, nutq maromida bo'ladi-yu, lekin bu nutq so'niq, ruhsiz bo'ladi, boshqalarni jalb qilmaydi, qiziqtirmaydi. Aksariyat bunday kishilarda notiqlik mahorati, nutq madaniyati yetishmaydi. Odamlarga ta'sir qiladigan, ularda fikr uyg'otadigan, ravon, chiroyli nutqqa qanday erishish mumkin?

Bu borada "Oz-oz o'rganib dono bo'lur" kitobida shunday jumla bor: "Agar so'z qalbdan chiqib kelsa, eshituvchining qalbiga darrov ta'sir qiladi, ammo tildan sodir bo'lsa, quloqdan nariga o'tmaydi". Xuddi shunga o'xshash fikrni Nizomiy Ganjaviy ham ilgari suradi: "Qalbdan chiqqan so'z qalbga yo'l oladi".

Tilni xalq yaratadi, nutq esa shaxsiy boylik sanaladi. Har kim o'z qobiliyati, so'z boyligi, shaxsiy fikrlash layoqatiga qarab gap



tuzadi va so'zlaydi. Shuning uchun ham nutq oldiga nihoyatda ulug' bir talab qo'yiladi: o'ynab gapirsang ham, o'ylab gapir. Zero, nutq (so'z) aqlning tarozisi, aqlning o'lchovi. Majididdin Xavofiy ham "Insonning boshqa jonzotlardan afzalligi aqladadir. Aqlning maqsadi esa nutq va shirinsuxanlikni takomillashtirishdan iborat" ekanligini ta'kidlagan.

To'g'ri, odamiylikning muhim fazilatlaridan biri xushmu-malalik, muloyimlikdir. Bu fazilatlar bevosita tilga, so'zga bo'lgan munosabatda namoyon bo'ladi. Zero, tilning ko'rki, aql-zakovatning ziynati so'zdir. So'z muqaddas, u faqat ezgulik, yaxshilik uchun xizmat qilishi lozim. Yunon faylasuflarining ta'kidlashlaricha, til har bir aql sohibi fazilati xazinasining kalitidir va har kishining bilimi, odobi uning so'zlaridan yaqqol bilinib turadi.

So'zda kerak ma'ni-yu, ma'nida zavq,
So'zlaguchida so'z uchun dardu shavq.
Ulki bilur so'z guharin qiymatin,
So'zda topar so'zlaguchining otin (Haydar Xorazmiy).

Husayn Voiz Koshifiyning "Futuvvatnomayi Sultoniy yoxud javonmardlik tariqati" asarini mutolaa qilar ekansiz, so'zning muqaddas bir ne'mat ekanligi, so'z inson aql-zakovatining kaliti – inson bilan so'z bamisoli et bilan tirnoq kabi zikr etiladi: "Agar so'z senikimi yoki sen so'znikimi, deb so'rasalar, aytgil: men so'zniki va so'z menikidir, chunki so'z insonlik daraxtining mevasidir, daraxtni mevadan, mevani esa daraxtdan ajratib bo'lmaydi. Agar nuqsonli so'z qaysidir, deb so'rasalar, Xudo va rasulning so'ziga muvofiq kelmaydigan so'z, deb javob bergil".

Xushsuxan odam haqidagi Navoiyning fikrlariga ham e'tibor qarataylik:

"... Xushsuxan odam yumshoqlik bilan do'stona so'z aytadi: ko'ngilga tushishi mumkin bo'lgan yuz g'am uning so'zi bilan daf' bo'ladi. So'zda har qanday yaxshilikka imkon topiladi, shuning uchun ham aytadilarki: nafasning joni bor..."

DAVLAT TILIDA QONUN IJODKORLIGI:
MUAMMO VA YECHIMLAR



... Til shirinligi ko'ngilga yoqimlidir. Shirin so'z sof ko'ngillar uchun asal kabi totlidir: bolalar uchun muloyim tabiatli odam xalvofurush kabi sevimlidir... Shirin so'zli mohir tabib tan xastaligiga shifodir.

Yaxshi so'zga kim mastu behush bo'lsa,
Sharbat ichida zaharni totli qiladi.
Yoki bo'lmasa:
So'z qattig'i el ko'ngliga ozor aylar,
Yumshog'i ko'ngillarni giriftor aylar.

Mashhur mutafakkir Sa'diy Sheroziy ham so'z xususida bir necha hikmatlar bayon etgan:

So'z ayni savobligin bilmaguncha gapirma,
Unga soz javobligin bilmaguncha gapirma.

Yoki:

Nodonlardek yuzlab so'zni qilma qator,
Donolardek bir so'z degil, lek ma'nodor.

Odam tili bilan hayvondan ustun. Ammo tildan nojoiz foydalansa, hayvondan battar!

So'zlagan vaqtimda og'zimdan beixtiyor yaramas, bo'lmag'ur so'zlar ham chiqishi mumkin. Dushman esa og'zimdan chiqqan yomon so'zlarnigina terib oladi

Yaxshi so'z insonning hurmatiga hurmat qo'shishi, aksincha bo'lsa, obro'siga putur yetkazishini ham Shayx Sa'diy Sheroziy chiroyli misralarda ifodalagan.

Har kishining bor esa yaxshi so'zi,
Orttirar obro'sin albatta o'zi.

Xuddi shu fikrni Farididdin Attor ham ixcham, aniq qilib bayon aylagan:



So'zni yaxshi bilmayin qilma bayon
Ki qilur so'z barcha aybingni ayon.

Nutqda so'zni to'g'ri tanlash, zarur so'zni boshqa ma'nodagi so'zlar sirasidan ajratib olish katta ahamiyatga ega. So'zlar nutqning turiga, u nutqning kimga atalganiga va maqsadiga ko'ra tanlanadi: publitsistik nutq uchun siyosiy-falsafiy ruhdagi o'tkir, ta'sirchan so'zlar, ilmiy nutq uchun termin xarakteridagi atama so'zlar, badiiy nutq uchun esa badiiylik bo'yog'iga ega bo'lgan, obrazlilikka xizmat qiladigan so'zlar olinadi.

Shu tariqa har bir so'zning nozik ma'no xususiyatlari nutq sharoitida, atrofidagi boshqa so'zlar bilan munosabatda ochiladi. So'z tanlash, ularni boshqa so'zlar bilan bog'lab, qiyoslab ko'rish qunt bilan, diqqat bilan ishlashni talab qiladi. Ko'ngildagidek, puxta ishlangan nutq maqsadga to'la javob beradi, ta'sirchan va yoqimli bo'ladi.

Ba'zan pala-partish, o'ylamay aytilgan birgina so'z yoki ibora butun nutqning ta'sir kuchini, salmog'ini pasaytirishi mumkin. Masalan, respublika televideniyesidan berilayotgan ko'rsatuvlardan birida muxbir mas'ul shaxslardan biridan intervyu olayotgan edi. U kishi salmoqli, vazmin so'zlab turib, korxonani kelib ko'rgan rahbar lavozimidagi bir odamning "suhbatlarini olgani"ni aytib qoldi. "Suhbatini olmoq" iborasi "ulfatchilik"ka doir bo'lib, mas'ul rahbarning rasmiy, salobatli so'zları orasida noo'rinligi darhol sezildi. Buni uning o'zi ham payqab o'ng'aysizlandi. Lekin adabiy nutqqa xos bo'limgan ibora aytib bo'lingan, nutqning madaniylik maromi buzilgan edi.

Tan olish kerak, eng so'zga chechan kishilar ham ba'zan adabiy tildan kerakli so'zni topolmay qolishlari mumkin. Shunday so'zlar bor-u, lekin ular oddiy so'zlashuv nutqiga, shevalarga xos. Bunday paytlarda, agar bu so'zlar nutqning umumiy adabiy-madaniy ruhiga singishib ketsa, me'yorni buzmasa, ulardan o'rni bilan foydalanish mumkin. Masalan: "Rassomlar ishlab chiqarish mavzusiga qo'l urganlarida ko'pincha konstruksiyalar va shakllarni qalashtirib tashlaydilar. Yorqin taqdirlar, o'tmishe va

DAVLAT TILIDA QONUN IJODKORLIGI:
MUAMMO VA YECHIMLAR



hozirgi zamoning qahramonliklari rassomlar o'z iste'dodlarini to'la-to'kis ochishlariga imkon beruvchi *badastir* materiallar emasmi?" Yoki: "Korxonada ishchilarning kayfiyati zo'r. Kanar orollari ustidan o'tgan bo'ron dastlabki chamalarga ko'ra 12 kishining *yostig'ini quritdi*. Bu yerlarda o'nlab qishloqlar tom ma'noda yer yuzidan *supurilib ketdi*"...

Tilimiz boy, so'zlar ko'p, gap faqat ulardan eng keraklisini tanlash mahoratida qolgan. Mahorat o'zidan-o'zi kelmaydi.

Xullas, so'z tanlashda ham, ularning grammatik munosabatlarini ifodalovchi yordamchi so'z va qo'shimchalarini tanlashda ham, gap va matn tuzishda ham me'yor, marom, mas'uliyat hissi bilan, did bilan yondashish ona tilimizni e'zozlashning, adabiy-madaniy nutq egasi bo'lishning asosiy belgisidir.

Til kishilarning fikr-mulohazalarini keng va har tomonlama yoritib berishda chegarasiz imkoniyatlarga ega. Lekin ifodalanishi lozim bo'lgan fikr-mulohazalarning yuqori darajada bo'lishi uchun tilning tasviriy vositalarini, uning turli xil ma'no nozikliklarini tinmay o'rganish lozim bo'ladi. Ana shundagina qisqa jumlalarda, matnlarda olam-olam fikrlarni ifodalay olish mumkin, chunki so'z har qanday fikrning libosidir.

Tilning, eng avvalo, leksikasi, ya'ni lug'at boyligi davr va zamon talablariga moslashib o'zgarib turishi, taraqqiyotdan darak berib boyib borishi va ba'zan, aksincha, davrning vaqtinchcha to'xtalib, to'lqinlari susaygan paytlarda esa so'z boyligimizda ham kamayish, nutqda so'z tanlash imkoniyatlarining nisbatan torayishini ham o'tmishga nazar solsak, kuzatish mumkin. Lekin hozirgi kun vaqtli matbuot nashrlarini varaqlasak, radio eshittirish va teleko'rsatuvlarga ahamiyat bersak, qiyinchiliklar orqada qolgani, bugungi kun hayotimiz ro'y-rost ifodalanib, namoyon bo'layotganini, shunga qarab qanday o'zgarishlar bo'layotganiyu, so'z va nutqqa e'tibor berilayotganini qaydlash mumkin.

Zero, Yusuf Xos Hojib aytganidek, "Mol-dunyonи qancha termagin, u tugaydi, ozayadi. Yozilsa-chi, so'z abadiy qoladi, olamni kezadi".

Ш.Жолдасова,
Тошкент давлат юридик университети
мустақил изланувчиси

ЧЕТ ЭЛ ҲУҚУҚИ НОРМАЛАРИНИ АНИҚЛАШ ВА АСОСЛАНТИРИШНИНГ ХУСУСИЯТЛАРИ

Чет эл ҳуқуқининг мазмунини аниқлаш ва асослантириш маълум даражада суд чет эл ҳуқуқи тушунчасининг ўзига қандай тарзда ёндашишига боғлиқ бўлади. Мазкур ҳолатда масалани қўйидагича қўйиш мумкин: «чет эл ҳуқуқи нормаси айнан ҳуқуқ нормаси сифатида кўрилиши лозимми, ва чет эл ҳуқуқи нормасининг мазмунини аниқлашда қандай процедура қўлланилиши керак — ҳуқуқни аниқлаш ёки фактни аниқлаш»¹.

Ўзбекистон Республикаси Фуқаролик кодексининг 1160-моддасига мувофиқ чет эл ҳуқуқини қўллашда суд ёки бошқа давлат органи унинг нормалари мазмунини уларнинг расмий шарҳланишига, қўлланилиш амалиётига ва тегишли хорижий давлатдаги доктринасига қараб аниқлайди.

Чет эл ҳуқуқи нормаларининг мазмунини аниқлаш мақсадларида суд ёки бошқа давлат органи ўрнатилган тартибда кўмак ва тушунтиришлар учун Адлия вазирлиги ва бошқа миллий ваколатли органларга ҳамда муассасаларга, шу жумладан хориждагиларига мурожаат қилиши, ёки мутахассисларни жалб қилиши мумкин.

Ишда иштирок этаётган шахслар ўзларининг талблари ва эътиrozларини асослаш учун ҳавола қилаётган чет эл ҳуқуқи нормаларининг мазмунини тасдиқловчи хужжатларни тақдим қилишга, ва бошқа тарзда судга ёки бошқа давлат органига ушбу нормаларнинг мазмунини аниқлаш учун кўмаклашишга ҳақли.

¹ Istvan Szaszy. International Civil Procedure, a Comparative Study. – Leyden: A.W.Sijthoff, 1967. – P. 497.



Агарда чет эл ҳуқуқи нормаларининг мазмуни, мазкур моддага мувофиқ қўлланилган чораларга қарамасдан оқилона муддатларда аниқланмаса, унда Ўзбекистон Республикаси ҳуқуқи қўлланилади¹.

Шундай қилиб, судтегишичетэлижтимоий нормасининг мазмунини аниқлайди, аммо унга ҳуқуқнинг императив элементини маълум қилиш мақсадини кўзламайди, бу қонун чиқарувчи томонидан амалга оширилган бўлади. Суд ҳуқуқий нормага рационал элементни маълум қилиш мақсадини кўзлайди. Ушбу маънода унинг фаолияти ҳуқуқ нормаларини изоҳлаш бўйича одатий фаолиятига яқин бўлиб, изоҳлашда шунингдек рационал элементни, яъни муомала қоидаларини англаш амалга ошади.

Чет эл ҳуқуқи нормалари ва бошқа ижтимоий нормаларни аниқлаш жараёнида муомала қоидасининг ўзини аниқлаш, шунингдек, унинг амалийлигини, тартибга солувчанлик қобилиятини, унинг «одатий», «маънавий», «ташкилий» ва шу каби кучларини аниқлаш рўй беради².

Хориж амалиётида чет эл ҳуқуқи нормаларини исботлашнинг ўзига хос хусусиятлари мавжуд. АҚШ ва Буюк Британия амалиётига мурожаат қиласак АҚШда чет эл ҳуқуқини исботлаш жараёни фактни исботлаш жараёни сифатида қаралади. Инглизларда эса чет эл ҳуқуқи иш бўйича бошқа далилларга тенглаштирилади. Инглизларда агарда чет эл ҳуқуқини исботлашнинг уддасидан чиқилмаса, у кўрилаётган масала бўйича инглиз ҳуқуқига тенг деб ҳисобланади³.

Австрияда чет эл ҳуқуқининг мазмунини аниқлашда у ҳуқуқ сифатида қабул қилинади. Агарда чет эл ҳуқуқи судга маълум бўлса, уни исботлаш талаб қилинмайди.

¹ Ўзбекистон Республикаси Фуқаролик кодекси. 1160-модда.

² Хоцанов Д.А. Установление содержания иностранных правовых норм в международном частном праве. Дис ... канд. юрид. наук. – М., 2009.

³ Otto C. Sommerich, Benjamin Busch. Foreign Law, A Guide to Pleading and Proof. New York: Oceana Publications, INC., 1959. –Р. 60.



Бундан ташқари, агарда чет эл ҳуқуқининг мазмуни судга номаълум бўлса, суд томонларнинг ушбу масала бўйича кўрсатмаларига таяна олмайди, у фақат тегишли адабиётдан, илмий ишлардан, чет эл қонунларидан ва суд амалиётидан, экспертлар кўрсатмаларидан фойдалана олади, Адлия вазирлигига расмий талаб юбора олади¹.

Францияда эса чет эл ҳуқуқи факт ва далил-исбот каби қаралиб, тарафларга уни исботлаш ёки бошқа тарзда унинг мазмунини аниқлашга ўз хиссасини қўишишга имконият берилади.

Чет эл ҳуқуқи нормаларининг мазмунини аниқлаш ва исботлаш масаласида Ўзбекистон Республикасининг ушбу соҳадаги халқаро шартномалари судларга ҳуқуқни қўллаш амалиёти учун кўмак бўлиши мумкин. Хусусан, 2002 йил МДҲ иштирокчи мамлакатлари томонидан Кишиневда қабул қилинган (Кишинев конвенцияси) Фуқаролик, оиласијий ва жиноят ишлари бўйича ҳуқуқий ёрдам ҳамда ҳуқуқий муносабатлар тўғрисида конвенцияни мисол сифатида келтириш мумкин.

Конвенция бешта давлат учун тасдиқланган ва кучга кирган: Қозоғистон, Беларус, Озарбайжон, Қирғизистон, Арманистон, Тожикистон ва Ўзбекистон. Жумладан, Ўзбекистон Республикаси Конвенцияга 2019 йил 29 августда қўшилган².

Конвенцияни имзолаган мамлакатлардан Молдова Республикаси, Россия Федерацияси, Украина ва Грузия (09.10.2009 й. Давлатлар Раҳбарлари Кенгашининг Қарорига мувофиқ МДҲ иштирокчиси эмас) уни тўлиқ тасдиқламаган.

Кишинев конвенцияси комплекс характерга эга ва ҳуқуқий ҳимоядан фойдаланиш тартибини белгилайди, ҳуқуқий ўзаро ёрдамнинг турли шакллари ва турларини,

¹ Гражданский процессуальный кодекс Австрии, § 271. (Zivilprozessordnung – <https://www.jusline.at/gesetz/zpo>)

² Ўзбекистон Республикасининг 2019 йил 26 августдаги ЎРҚ-554-сон Қонуни.

DAVLAT TILIDA QONUN IJODKORLIGI:
MUAMMO VA YECHIMLAR



уни кўрсатиш тартиби ва шартларини ўз ичига олади. Мазкур конвенция кенг доирадаги ишларда хукуқий ёрдам кўрсатиш масалаларини ҳал қиласди: аҳдлашаётган давлатлар худудида яшовчи фуқароларга фуқаролик, оилавий ва жиноят ишлари бўйича, шунингдек юридик шахслар иштирокидаги низолар бўйича. Шу билан бирга Кишинев конвенцияси иқтисодий низоларни ҳал қилиш билан боғлиқ ишлар бўйича чет эл суд қарорларини тан олиш ва ижро этишда юзага келадиган муносабатларни ҳам тартибга солади.

Ўзбекистон Республикаси қонунчилиги белгилашича, битим шакли уни амалга ошириш жойининг хукуқига бўйсунади. Аммо хорижда амалга оширилган битим, агарда Ўзбекистон Республикаси хукуқи талабларига амал қилинган бўлса, шаклга амал қилинмаганлиги натижасида ҳақиқий эмас деб топилиши мумкин эмас. Иштирокчилардан ҳеч бўлмаганда биттаси Ўзбекистон Республикасининг юридик шахси ёки фуқароси бўлган ташқи иқтисодий битим битимни тузиш жойига қарамасдан ёзма равишда амалга оширилади. Кўчмас мулк бўйича битим шакли кўчмас мулк жойлашган мамлакат хукуқига бўйсунади, Ўзбекистон Республикаси давлат реестрига киритилган кўчмас мулк бўйича эса – Ўзбекистон Республикаси хукуқига бўйсунади¹.

Агарда томонларнинг розилиги билан бошқаси назарда тутилмаган бўлса, битимдан келиб чиқувчи томонларнинг субъектив хукуқ ва мажбуриятлари олдиндан битимни тузиш жойи – мамлакатининг қонунчилиги билан белгиланади.

Ўзбекистон Республикаси қонунчилигига мувофиқ, шартноманинг қўлланиладиган хукуқ тўғрисида тегишли шартнинг йўқлигига, олди-сотди шартномасида — сотувчи; ҳадя шартномасида — ҳадя қилувчи; ижара (мулк ижараси) шартномасида — ижарага берувчи; мол-мулқдан текин фойдаланиш шартномасида — ссуда берувчи; пурдат

¹ Ўзбекистон Республикасининг Фуқаролик кодекси.



шартномасида — пудратчи; йўловчи, багаж ва юк ташиш шартномасида — ташувчи; транспорт экспедицияси шартномасида — экспедитор; қарз шартномасида ёки бошқа кредит шартномасида — кредитор; топшириқ шартномасида — ишончли вакил; воситачилик шартномасида — воситачи; омонат сақлаш шартномасида — сақловчи; суғурта шартномасида — суғурталовчи; кафиллик шартномасида — кафил; гаров тўғрисидаги шартномада — гаровга қўювчи; алоҳида хукуқлардан фойдаланиш тўғрисидаги лицензия шартномасида — лицензиар ҳисобланувчи тараф таъсис этилган, тураг жойга эга бўлган ёки асосий фаолият жойи бўлган мамлакат хукуқи қўлланилади.

Тегишли шарт йўқлигига қўйидагилар қўлланилади:

а) кўчмас мулк тўғрисидаги шартномага нисбатан — бу мулк турган мамлакатнинг хукуқи;

б) биргалиқдаги фаолият тўғрисидаги шартномага ва қурилиш пудрати шартномасига нисбатан — ана шундай фаолият амалга оширилаётган ёки шартномада назарда тутилган натижалар яратилаётган мамлакатнинг хукуқи;

в) кимошди савдосида, танлов бўйича ёки биржада тузилган шартномага нисбатан — кимошди савдоси, танлов ўтказилаётган ёки биржа жойлашган мамлакатнинг хукуқи қўлланилади.

Қўлланилиши лозим бўлган хукуқ тўғрисида тарафларнинг келишуви бўлмаган тақдирда, бундай шартноманинг мазмуни учун ҳал қилувчи аҳамиятга эга бўлган ижрони амалга ошираётган тараф таъсис этилган, тураг жойга эга бўлган ёки асосий фаолият жойи бўлган мамлакатнинг хукуқи қўлланилади. Шартноманинг мазмуни учун ҳал қилувчи аҳамиятга эга бўлган ижрони аниқлашнинг имконияти бўлмаган тақдирда, шартнома энг узвий боғланган мамлакатнинг хукуқи қўлланилади¹.

¹ Ўзбекистон Республикаси Фуқаролик кодекси. 1190-модда // <https://lex.uz/docs/180550#195077>



Таъкидлаш лозимки, айрим муаллифлар чет эл ҳуқуқи нормаларини исботлаш масалаларининг тадқиқоти доирасида ижтимоий нормалар амалийлигини аниқлаш, яъни қўйидаги масалаларни ойдинлаштиришни талаб қиласиган императив элементни аниқлаш зарурлигини кўрсатишади:

1. Тегишли субъектдан норманинг ҳосил бўлиши;
2. Тегишли тартибда нормани қабул қилиш;
3. Норманинг тегишли манбада мустаҳкамланганлиги;
4. Норманинг санкциялар ва процессуал механизмлар билан таъминланганлиги.¹

Ижтимоий нормани қўллаш доирасида унинг амал қилиш қоидаларини, қўлланилиши шарт бўлган холатлар ва тегишли жиҳатларини аниқлаш зарур ҳисобланади. Бундай жиҳатлар ҳуқуқий норма эканлиги, амалдалиги ва ҳақиқатга мувофиқлиги белгилари бўлиб ҳисобланади.

С.С. Алексеев тўғри таъкидлаганидек «Ҳуқуқни қўллаш – бу ваколатли органларнинг давлат-ҳокимият фаолияти бўлиб, у мазкур муайян ҳолатга нисбатан юридик нормаларнинг амалга оширилиши бўйича маҳсус ташкилий ҳаракат (хужжат) ларда намоён бўлади. Ҳуқуқни қўллашда унинг ҳокимият-давлат характерини акс эттирувчи муҳим хусусиятларидан бири бу юридик нормаларни фақат маҳсус (ваколатли) органлар қўллай олиши мумкинлигидадир»².

Ж.Л. Бержель таъкидлайдики, судьялар ва суд ташкилотининг ролини белгиловчи принциплар давлатнинг асосий функцияларидан бирини амалга оширишда бошчилик қиласи – адолат суверенитетни шакллантирувчи элементлардан бири сифатида намоён бўлади³.

Шундай қилиб, давлат органлари ва, хусусан, судлар

¹ Толстых В.Л. Нормы иностранного права в международном частном праве Российской Федерации. Дис. ... д.ю.н. – М., 2006. – С. 196.

² Алексеев С.С. Общая теория социалистического права. Вып. IV. – Свердловск, 1966. – С. 7, 15.

³ Бержель Ж.Л. Общая теория права. – М., 2000. – С. 532.



хуқуқни қўллашга мажбур, бу уларнинг асосий функцияси.

Хуқуқни аниқлаш хуқуқни қўллашдан фарқ қилгани ҳолда, М.А. Гурвичнинг асосли фикрига кўра, «ирода эмас, билим ҳаракатининг элементи»дир. Ушбу билим ҳаракатини амалга ошириш хуқуқни қўллаш фаолиятини амалга оширишнинг зарур шарти бўлиб ҳиссобланади. Агарда суд нормаларни аниқлай олмаса (ишнинг ҳақиқатдаги ҳолатлари каби), у хуқуқни қўллашни амалга ошира олмайди. Шу билан бирга, ишнинг ҳақиқатдаги ҳолатларини аниқлашдан фарқли ўлароқ, суд хуқуқни томонлар ёрдамида эмас, балки мустақил аниқлашга мажбур¹.

В.Д. Кайгородов ҳаққоний таъкидлайдики: «Суд органдарни ташкилотнинг ўзига хос хусусиятлари ва фаолиятининг процессуал шакли туфайли алоҳида шароитда бўлиб, бу уларга оғир жиноят ёки фуқаролик хуқуқбузарликнинг мураккаб ҳолатларини тушуниб олиш, иш бўйича объектив ҳақиқатни аниқлаш, қонунни тўғри талқин қилиш ва қўллаш, қонуний, асосаланган, ҳаққоний қарор чиқариш имконини беради»². Фуқаролик ишларида адолатни амалга ошириш соҳасида англаш вазифаларини ечиш учун алоҳида тарзда маҳсус субъект – суд шакллантирилади. Малакали судьянинг англаш фаолияти субъекти сифатида ўзига хос хусусиятлари шунга келадики, у моддий ва процессуал хуқуқ соҳасида маҳсус билимларга эга бўлади³.

Таъкидлаш лозимки, тортишув принципининг ҳаракат қўлламини ишнинг ҳақиқатдаги ҳолатларини исботлаш билан чеклашда қонун чиқарувчи қўлланиладиган хуқуқни аниқлаш суд томонидан мустақил амалга оширилиши лозимлигидан келиб чиқади.

¹ Гурвич М.А. Судебное решение. – М., 1976. – С. 47-49.

² Гражданский процесс. Под ред. Ю.К. Осипова. – М., 1995. – С. 26.

³ Козлов А.С. Теоретические вопросы установления истины в гражданском процессе (логико-гносеологический анализ теоретических основ, специфики, форм и уровней судебного познания). – Иркутск, 1980. – С. 49.



Ушбу сабаблардан ҳам ҳуқуқнинг ҳар қандай нормасини, шу жумладан, ҳавола натижасида юзага келадиган нормасини ҳам аниқлаш бўйича суднинг мажбурияти келиб чиқади. Қонун чиқарувчи ҳаволани биректираётганда, у ҳуқуқни қўлловчи орган чет эл ҳуқуқи нормасини топа олади ва унинг асосида қўлланилиши керак бўлган миллий ҳуқуқ нормасини тузишга қурби етади деган фикрдан келиб чиқади.

Шундай қилиб, томонлар эмас, балки айнан суд амалдаги ҳуқуқни аниқлаш бўйича чораларни кўриши лозим. Суд томонидан ўз ташаббусига кўра чет эл ҳуқуқи нормаларига ва бошقا ижтимоий нормаларга нисбатан аниқлаш чораларини кўришда намоён бўладиган «*Jura novit curia*» принципи айнан шундан иборат.

Бунда, суднинг қўлланиладиган ҳуқуқни аниқлаш бўйича мустақил чоралар кўриш мажбурияти келиб чиқадиган асосий принцип бу қонунийлик принципидир. Ушбу принцип суддан ҳуқуқ нормаларини тўғри қўллашни талаб қиласди. Бу принцип ҳуқуқни қўлловчи орган сифатида суднинг функцияси билан тўғридан тўғри боғлиқ. Агарда ҳуқуқ нормалари аниқланмайдиган бўлса, ҳуқуқни қўллаш ҳам амалга оширилмайди, яъни суднинг асосий мажбурияти бажарилмайди.

Фикримизча, қўлланиладиган ҳуқуқни аниқлаш бўйича суд мажбурияти суднинг процессуал фаоллиги принципи билан ҳам яқиндан боғлиқ. «Суднинг процессуал фаоллиги принципи – фуқаролик ҳуқуқий муносабатларда давлатнинг ташкилий ва йўналтирувчи роли билан таъминланган, иш бўйича ҳақиқатни аниқлашни ҳамда ишда қатнашаётган шахсларга моддий ва процессуал ҳуқуқлардан фойдаланиш ва тасарруф этиш имкониятини таъминлашга қаратилган суднинг фуқаролик суд ишида фаол бошқарувчилик фаолияти»¹. Бунда суднинг процессуал фаоллиги принципи

¹ Семенов В.М. Конституционные принципы гражданского судопроизводства. – М., 1982. – С. 126-127.



судга қўлланиладиган ҳуқуқ нормасини мустақил ва ўз ташаббусига асосан аниқлаш ҳуқуқини беради. Шунингдек, тарафлармазкуржараёнда ўзфикр-мулохазаларини киритиб боришлари мумкин бўлиб ҳисобланади. Қўлланиладиган ҳуқуқни аниқлаш, талқин қилиниши; қўлланиладиган ҳуқуқни аниқлаш учун кўрилиши лозим бўлган чоралар, уларнинг етарлилигини белгилаш масалалари, жумладан қўлланиладиган ҳуқуқни излаш билан боғлиқ бўлган барча ҳолатлар судга тегишли бўлиши лозим. Шунда, суд мустақил равишда чет эл ҳуқуқи нормаларини аниқлаш тартибини белгилайди ва унга боғлиқ масалаларни ҳал қиласди.

Таъкидлаш жоизки, фуқаролик ҳуқуқининг шартнома эркинлиги ва халқаро хусусий ҳуқуқнинг эрк муҳторияти тамойилига мувофиқ томонлар ҳуқуқни танлаш тўғрисида процессуал битим тузиш ҳуқуқига эга. Бундай танлов процесс давомида ҳам амалга оширилиши мумкин. Бунда судда иштирокэтувчи тарафлар судучун процессуал ҳуқуқни танлаб беради. Масалан, Францияда ҳуқуқни танлаш тўғрисида процессуал битимларни тузиш имкониятини меъёрий асослаш Франция ФПК 12-моддаси 3-қисмида мустаҳкамланган, унга кўра судья ўзини квалификациялар ва ҳуқуқий позициялар билан боғлаши мумкин бўлиб, улар орқали томонлар низо кўламини чеклайди¹. Ўз навбатида мазкур имкониятдан судлар Францияда кенг фойдаланишади.

Миллий қонунчилик доирасида процесс давомида ҳуқуқни танлаш тўғрисида битим тузишга рухсат берувчи тўғридан-тўғри нормалар мавжуд эмас. Аммо уларни иқтисодий суд ваколати тўғрисида битимларга тенгглаштириш мумкин (Ўзбекистон Республикаси Иқтисодий процессуал кодекси, 239-модда), ишнинг судловга тегишлилиги (Ўзбекистон Республикаси Иқтисодий процессуал кодекси, 38-модда,

¹ Bureau D. (L'accord procedural a l'epreuve // Revue critique de droit international prive. 1996. – P. 597



Ўзбекистон Республикаси Фуқаролик процессуал кодекси, 36-модда), ишнинг судга тааллуқлилиги (Ўзбекистон Республикаси Иқтисодий процессуал кодекси 163-модда¹).

Процесс давомида ҳуқуқни танлаш тўғрисида битимни тузайтганда, томонлар шу билан ишнинг ҳақиқатдаги ҳолатлари ҳудудий жиҳатдан битта давлатда локализация қилинишига келишиб олишади. Бундай факт Ўзбекистон Республикаси Фуқаролик кодексининг 6-бўлимига мувофиқ қўлланилса бўлади.

Кўрилгандардан келиб чиқиб, Ўзбекистон Республикаси Фуқаролик процессуал ва Иқтисодий процессуал кодексларида суд процесси бошланишидан олдин ва кейин процессуал ҳуқуқни танлаш тўғрисида битим тузиш имконияти ва тартибини белгилайдиган тегишли нормаларни аниқлаш мақсадга мувофиқ.

М.К. Треушников тўғри таъкидлайдики, далил-исботларнинг алоқадорлиги тўғрисидаги норма асосан судга мўлжалланган, сабаби далилларни тақдим қилувчи бошқа шахслар уларнинг алоқадорлигини баҳолашда янгилиши мумкин. Далилларнинг алоқадорлиги суднинг объектив асосда шаклланувчи баҳолаш мулоҳазалари орқали аниқланади. Далилларнинг алоқадорлиги тўғрисида масалани ечишда аниқланиши лозим бўлган фактлар рўйхатини (фактларнинг алоқадорлиги), ва муайян далилларнинг ушбу фактларни тасдиқлаш ёки рад қилиш (далилларнинг алоқадорлиги) қобилиятини аниқлаш зарур¹.

Чет эл ҳуқуқи нормаларининг алоқадорлигини аниқлаш бирламчи квалификацияни бажаргандан кейин амалга оширилади. Бирламчи квалификациянинг вазифаси муайян муносабатларни ҳаволада кўзда тутилган ижтимоий муносабатлар гуруҳига киритилиши ҳисобланади. Шунинг учун суд томонидан ижтимоий муносабатларнинг муайян гуруҳини тартибга солувчи нормалар аниқланиши зарур

¹ Треушников М.К. Судебные доказательства. – М, 1997. – С. 3-4



бўлиб, судда кўрилаётган бевосита муносабатлар бундай гурухга кириши ва аниқланган нормалар ёрдамида тартибга солиниши белгиланади. Шунингдек, суд бевосита муносабатни тартибга солувчи чет эл ҳуқуқи нормасини изламайди, балки зарур фаолиятни амалга оширилиши учун зарур фаолиятни амалга оширда миллий ҳуқуқнинг моддий нормаларини шакллантиради ва бунга коллизион ҳавола асос бўлади. Шундай қилиб, чет эл ҳуқуқнинг қўлланилиши керак бўлган, алоқадрликка эга нормалар коллизион ҳаволада баён қилинган ижтимоий муносабатлар гуруҳини тартибга солувчи нормалар бўлиб ҳисобланади.

Шу сабабли чет эл ҳуқуқи нормаларини аниқлаш босқичида муносабатнинг ҳуқуқий квалификацияси амалга оширилмайди. Чет эл ҳуқуқи нормаларини аниқлашнинг вазифаси миллий ҳуқуқнинг нормаларини шакллантириш бўлиб, улар кейинчалик муайян муносабатнинг ҳуқуқий квалификацияси учун қўлланилади. Бундан ташқари, бундай ёндашувяна шусабабдан мақсадга мувофиқки, чет эл ҳуқуқи нормалари тўғрисида олинаётган маълумот ҳажми мазкур муайян муносабатни тартибга солувчи нормани топиш мақсадида бўлганимизга қараганда каттароқ бўлиб боради.

Бизнинг назаримизда ҳамда халқаро тажрибага мувофиқ, фақатгина ёзма далиллар ва ёзма эксперт хулосалари асосида чет эл ҳуқуқи мақбуллигини белгилаш асосли ҳисобланади.

Таъкидлаш жоизки, чет эл ҳуқуқи нормаларининг далиллари мақбуллиги тўғрисидаги масалани тартибга солувчи маҳсус норма мавжуд эмас.

Ўзбекистон Республикаси Фуқаролик кодексининг 1160-моддасига мувофиқ чет эл ҳуқуқи нормаларининг мазмунини аниқлаш мақсадида суд ёки бошқа давлат органи ўрнатилган тартибда кўмак ва изоҳ учун Адлия вазирлигига



ва бошқа миллий ваколатли органлар ҳамда муассасаларга, шу жумладан хориждагилариға ҳам, мурожаат қилиши, ёки мутахассисларни жалб қилиши мүмкін. Мазкур моддани тортишув принципи амал қилиш контекстида талқин қилиш керак әмбидетті. Томонлар зиммасида чет эл ҳуқуқни исботлаш мажбурияты йўқ, тегишли тарзда уларга нисбатан чет эл ҳуқуқи тўғрисида маълумот тақдим қилмаганлик натижасида қўлланилиши мүмкін бўлган санкциялар ҳам йўқ.

Ваколатли органларга мурожаат қилиш имконияти доирасида, амалиётда бундай мурожаатлар ҳолатлари жуда кам, масалан, Адлия вазирлигига чет эл ҳуқуқини аниқлаш ва қўллашда кўмаклашиш тўғрисида. Бунда, консуллик муассасаларига мурожаат амалда қўлланилмайди, гарчи бундай амалиёт ҳуқуқий ёрдам процедураларига қараганда янада самаралироқ, янада очиқроқ ва чет эл ҳуқуқи тўғрисида маълумот олишнинг янада тезроқ усули бўлиши мүмкін эди.

Масалан, Ташқи ишлар вазирлиги ва мамлакатимизнинг хориждаги консуллик муассасалари, чет элдаги ваколатли органларга мурожаат йўллаши ҳамда чет эл ҳуқуқи тўғрисида маълумотларни йиғиш имкониятига тўлиқ эга.

Орасида аксарият ҳолларда юристлар ҳам бўлган консулликлар ва консуллик ходимлари чет эл қонуни таъсирининг макон чегараларида бўлишади. Ҳаттоқи, агарда чет эл қонунчилигининг муайян соҳаси уларга тўғридан-тўғри тегишли бўлмаса ҳам, кўп ҳолларда улар керакли хужжатни танлаш ва уни миллий судга юборишга қодир бўлиб, кейин суддан фақат матннинг таржимасини амалга ошириш талаб қилинади холос. Ўша ҳолатда ҳам, агарда чет эл қонунини танлаш мураккаб вазифа сифатида кўринадиган бўлса, консуллик муассасаларининг чет эл юристларига тегишли ахборот хизматини кўрсатиш илтимосномаси билан мурожаат қилиши мүмкін бўлади.



Мазкур органларга мунтазам мурожаат қилиш амалиётини ривожлантириш уларга чет эл ҳуқуқини аниқлаш бўйича фаолиятни хатоларсиз амалга ошириш имконини беради. Бундай ривожланишнинг шарти бўлиб, энг аввало, Ташқи ишлар вазирлиги ва Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлигининг консулликларни ушбу вазифани бажаришга йўналтирувчи биргалиқдаги ҳаракатлари ҳисобланади. Бизнингча, консулликлар томонидан миллий судларнинг шунга ўхшаш мазмундаги топшириқларини ижро этиш тартиби белгиланадиган йўриқномалар Ташқи ишлар вазирлиги томонидан қабул қилиниши мақсадга бўлар эди.

Шу ўринда, тегишли сўровлар хорижий давлатларнинг Ўзбекистон Республикасидаги консуллик муассасаларига ҳам юборилиши мумкин бўлиб, бунда мазкур муассасалар ўз ходимлари малакаси етарли бўлган тақдирдла тегишли маълумотлар тайёрлаб тақдим этиши мумкин, лекин миллий амалиётда бундай ҳолатлар мавжуд эмас.

Ўзбекистон Республикаси Фуқаролик кодексининг 1160-моддаси, ваколатли давлат органларига мурожаат қилиш имкониятидан ташқари, «муассасаларга» мурожаат қилиш имкониятини ҳам мустаҳкамлади. Бундай муассасалар қаторига нашрлари мавжуд бўлган ва қиёсий ҳуқуқшунослик ҳамда чет эл ҳуқуқи бўйича тадқиқотлар олиб борилаётган олий таълим ва илмий-тадқиқот муассасалари ҳам киритилиши мумкин.

Шунингдек, савдо-саноат палаталарига мурожаат қилиш имкониятини ҳам айтиб ўтиш мумкин. Ўзбекистон Республикасининг «Савдо-саноат палатаси тўғрисида (янги таҳрир)»¹ги Қонунининг 21-моддасига мувофиқ Палата тадбиркорлик фаолияти субъектларига ҳуқуқий ва бошқа

¹ Ўзбекистон Республикасининг 2018 йил 9 июлдаги «Ўзбекистон Республикаси Савдо-саноат палатаси тўғрисида (янги таҳрир)»ги ЎРҚ-483-сон Қонуни.

DAVLAT TILIDA QONUN IJODKORLIGI:
MUAMMO VA YECHIMLAR



ёрдам кўрсатишга, Палата аъзоларининг манфаатларини халқаро ва чет эл ташкилотларида тадбиркорлик билан боғлиқ қисми бўйича ҳимоя қилиш, тадбиркорлик фаолияти субъектларигачетэлвахалқароташкилотларнингмолиявий ва техник ёрдамини жалб қилишда кўмаклашишга ҳақли.

Кўрсатилганлар доирасида қайд қилиш лозимки, Халқаро савдо палатасини унинг миллий қўмитасини очиш йўли билан Ўзбекистон Республикаси ҳудудига жалб қилиш муҳим ҳисобланади. Бу Халқаро савдо палатасига мурожаат қилиш ва ишончли маълумотларни олиш ҳам уларнинг мутахассисларини жалб қилиш имконини беради.

Чет эл ҳуқуқи нормаларининг мазмунини ҳар томонлама ва сифатли аниқлаш имкониятини таъминлаш учун Ўзбекистон Республикаси Фуқаролик кодексининг 1160-моддасига миллий ва хорижий ташкилотларга, шу жумладан Ўзбекистон Республикасининг хориждаги консулликларига ва хорижий давлатларнинг Ўзбекистон Республикаси ҳудудидаги консулликларига мурожаат қилиш имконияти тўғрисида ўзгартиришлар киритиш мақсадга мувофиқ ҳисобланади.

Г.Ж.Утегенова,

*M.Әуезов атындағы Оңтүстік Қазақстан университеті,
ф.ғ.к., доцент, Қазақстан, Шымкент*

Г.Ж.Шертаева,

*Жоғары санатты ұстаз, №52 жалпы орта мектеп,
Қазақстан, Шымкент*

ТІЛ – ҰЛТ МӘДЕНИЕТИНІҢ НЕГІЗІ

Бұгінгі таңдағы оқырманға күнделікті баспасөз беттерінен, радио, телехабарлардан, ғылыми әдебиеттен, тіпті көркем әдебиет кітаптарынан жүздеген соны сөздер, тосын тіркестер немесе байырғы сөздердің жаңа мағынада жұмсалып отырғаны жақсы сезіледі. Олардың бірқатары (тәлімгер, мердігер, құрылғы, қойылым т.б.) алғашқы сәтте құлаққа жат естіліп, оларға тосырқай қарағанымызben, бұлар жиі қолданыла келе әбден түсінкті, көнігі сөздерге айнала бастады. Бір кезде, 50-60 жылдары, оқулық, оқырман, көрермен, үшсайыс сияқты сөздерге де жатсына қарағанбыз. Кеzinde өсімдік, өнеркәсіп, кәсіподақ, баспасөз дегендер де ана тіліміздің атам заманнан келе жатқан байлығында сезіледі.

Осы мәселеге қатысты этнолингвистиканың мәнін профессор Ж.Манкеева: «Халықтың материалдық, өндірістік деңгейі мен рухани өрісін бейнелейтін ана тілінің байлығын, асылын барынша толық жиып көрсетіп, қыр-сырын анықтау этнолингвистиканың міндеті. Этнолингвистика – халық туралы шынайы хабар беретін «ақпарат қозі» [1, 5-б.], – деп түсіндіреді.

Әлеуметтік, шаруашылық, мәдени өмірімізде, халықаралық жағдайда пайда болып жатқан жаңа ұғымдар да көптеген неологизмдерді талап етіп отыр. Алтын кілт, кәсіптік бағдар, тәлімгерлік қозғалыс сияқты тіркестер-осында жаңа мазмұнда жұмсалатын атаулар.



Жаңа қолданыстар тек жаңа ұғымдарды білдіру үшін ғана емес, бұрыннан келе жатқан зат, бүйім, құбылыстарды дәлірек, дұрысырақ етіп қайта атап үшін де туып жатады.

Бүгінгі таңда әлеуметтік, саяси, мәдени, рухани өміріміз әкеліп отырған жаңа құбылыс, қарым-қатынас, тұсініктанымға қатысты ай сайын, жыл сайын туып жатқан ұғымдар өз атауларын талап етеді. Жоғарыда аталған мердігерлік әдіс, тәлімгерлік қозғалыс дегендермен қатар, аграрлық-өнеркәсіптік бірлестік, азық-тұлік бағдарламасы, айлық, орталықтандыру тәрізді сөздер – осы орайда пайды болғандар.

Кейбір тағам, жем, аң-құс, ойын т.б. аттарын да қазақша қайта атап үстінде ұмыт болған көне немесе жергілікті сөздерді пайдалану әрекеті бар. Мысалы, крокодилді қолтырауын/ қолтаурын немесе темсақ, меласса, патоқа дегенді сірне, шарап, сыра дайындағанда қалатын қалдықтардан әзірленіп, малға берілетін қоймалжың жемді төп деп беру, меню дегенді мәзір деп жаңғыртып атаулар осыны танытады.

Соны сөздерді өмірге келтіріп отырған үшінші фактор «бағалауыш» сөздерді естуімізге байланысты. Әдетте атауыш сөздер қолданылу мақсатына қарай термин сөздер және бағалауыш сөздер болып ажыратылады. Алдыңғылар белгілі бір ұғымның нақты «ресми, тұрақты атауы болса, соңғылар кейбір заттар мен ұғымдардың образды (ресми емес) атаулары болып келеді. Мысалы, мадақнама (награда), өмірнама (биография), топжарғандар (озаттар), дүниеқоңыздық (затқа табынушылық) сөздерін көрсетуге болады. Бұларда белгілі бір бағамен атау сипаты бар: «тұсініктілік» бағасы (мадақнама, өмірнама), экспрессия (топжарғандар, дүниеқоңыздық), көтеріңкілік (мақсаткер) т.т. Мұндай қосалқы атауларға күнделікті баспасөз берілгендердің атаулары жиі жүргінеді, өйткені бұлардың алдында ойды әсемдеп, бейнелеп айтуда – образдылыққа иек



арту мақсаты тұрады, осы арқылы сөзді көпшілікке әсерлі етіп ұсыну көзделеді. Оның үстіне бір сөзді қайталай бермеу үшін де «бағалауыш» қосалқы сөздер оңтайлы соғады.

Қазіргі қазақ тілінің сөздік қоры қазақ халқының тарихымен қатар дамып қалыптасқан. Сондықтан да сөздердің пайда болуы әр түрлі себепке және тарихқа байланысты. Тіл-тілдің өзіне тән төл лексикасы мен грамматикалық құрылымы болады. Тірақ онымен шектеліп қалатын тіл жоқ. Халықтар қашанда тұйық өмір сүрмейді, өзге халықтармен экономикалық, саяси, мәдени байланыста болады. Ал, бұл қатынас тілге әсерін тигізіп отырады. Соның ішінде тез қабылданатын, тез құрамын байытып отырған.

Тілдің шежірелік қыры мен танымдық қызметі туралы академик Ә.Қайдарбылай дейді: «Кез келген этностың (бүгінгі ұлыстың, халықтың не ұлттың) тілінде оның басынан өткен бүкіл ұзақ өмірінің өрнегі жатыр. Халықтың, яғни этностың шын мәніндегі болмысы мен дүниетанымы оның тек тілінде ғана сақталады. Әр түрлі заттың, құбылыстың аты-жөні, сыр-сипаты, қоғамдық қатынастар, әдет-ғұрып, салт-сана мен дәстүрлер жайлы мағлұматтардың бәрі де кейінгі буынға тек тіл фактілері арқылы ғана, яғни тілдегі сөздер мен сөз тіркестері, фразеологизмдер мен мақал-мәтелдер, азызертегілер арқылы келіп жетуі мүмкін» [2, 21-б.].

Профессор Е.Жанпейісов «Этнокультурная лексика казахского языка» еңбегінде М.Әуезовтің «Абай жолы» эпопеясындағы этнографизмдерді тілдік әрі халықтың болмыс тұрғысынан зерттеуі қазақ халқының мәдениетін тіл деректері арқылы танытуда қосқан зор үлес деп білеміз. Академик Р.Сыздық: «Қазақтың ауыз әдебиеті мен өткен ғасырда өмір сүрген ақын-жырауларының тілінде, жырларда ескі тұрмыс-салтқа байланысты бұл күнде ұмыт бола бастаған немесе мүлде ұмытылған, я болмаса мағынасы өзгерген сөздер мен сөз тіркестерінің кездесуі табиғи құбылыс» [3, 5-б.], – деп көрсетеді.



Тұрақты сөз орамдарының мәдени-ұлттық мазмұнын халық тілінің байырғы лексикасының сан алуан сырына байланысты ғалым Н.Уәлиұлы: «Халық өзінің өткен дәүірлердегі наным-сенімін, түйсік-түсінігін, ой-қиялышын, тыныс-тіршілігін аз сөздің аясына сыйдырып әрі нәрлі, әрі әрлі етіп ерекше өрнектей білген. Түп төркіні беймәлім сөздердің сәті түсіп, кілті табылғандай болса, көп нәрсені баян етіп, халықтың өткендегі ой-қиялышы, тыныс-тіршілігі, дүниетанымы туралы сыр шертіп тұрады» [4, 12-б.], - дейді.

Осындай атаулардың сақталуы тілмен сабақтас болып, «тіл әлемі» арқылы танылуы этнографизмдердің сипатында. Себебі этнографизмдер - «тұрмысымызыда болған, әлі де қолданып келе жатқан құнқөріс бүйімдардың белгілі бір кәсіпке, шаруашылыққа, салт-дәстүрге, әдет-ғұрыпқа, наным-сенімге, баспананаға, киім-кешекке, ішер асқа, туыстық қатынасқа, ел билеу ерекшелігіне, заң тәртібіне, әдettік құқыққа байланысты қолданылатын, халқымыздың тұрмыстық және тілдік өзіндік ерекшелігін көрсететін арнаулы атаулар мен сөз тіркестері» [2, 22-б.].

Халықтың әр дәуір, әр ғасырдың өзінде жасаған өмірі туралы бүгінге тарих деректерінен, археологиялық қазба материалдарынан, этнографиялық мәліметтердің айналасынан көптеп табуға болады. Мұның барлығы материалдық бүйімдардың бір кезеңдегі рухани өмірдің пайда болуының тікелей себебін аңғартады, яғни материалдық заттарсыз рухани мәдениет жекелей дамымайды деуге болады. Осыған байланысты философ Н.С.Сәрсенбаев: «Общепринято под культурой подразумевать духовную культуру, ибо сфера последней включает в себя образцы и традиции материальной культуры пронизана элементами культуры духовной» [5, 37-б.], - дейді. Этнографизмдердің қасиетін Е.Н.Этерлей: «Этнографизмы – это слова, обозначающие предметы и



понятия, связанные с особенностями быта, материальной и духовной культуры данного народа, народности или местности» [6, 13-25-б.], – деп көрсетеді.

Әр этностың тілінде заттық атаулардың мәні сол халықтың өзіне тән дүниетанымдық, тұрмыстық ерекшелігін танытады, яғни жаратудағы заттық тұра өзі емес, оның халық шығармашылығынан туындаған бейнесі ғана сол елге қызмет етеді. Осы орайда, ғалымдар (В.фон Гумбольдт, А.Потебня) тіл дүниені тікелей бейнелемейді, онда адамның дүниені қалай түсінетіні көрініс береді деген болжамдары шынайылықты ақиқаттайды. Бұл атаулардың өзіндік ерекшелігін профессор Ж.Манкеева: «Заттық мәдениет лексикасы ұлттық рух пен талғам негізінде, ұлттық тұрмыс пен шаруашылық ерекшелігіне сай технологиялық процесс нәтижесінде, өз мәні мен атқаратын қызметіне сай сөз тудыруши модельдер арқылы жасалатын лексика-семантикалық категория ретінде, куммулятивтік қызметі негізінде сақталған материалдық өндіріс пен мәдени туындылардың атаулары» [7, 13-б.], – деп тұжырымдаған.

Материалдық мәдениет атаулары көне тұрмыс пен бүгінгіні байланыстыратын әр дәүірдің тарихын сипаттайтын тілдің тарихи категориясының негізін құрайды. Бұл жайында ғалым Ә.Жәнібек: «Қазақ қоғамы «қарға тамырлы» қазаққа тән бет-пішін мен түрпаттың үш мың жыл бойы желісі үзілмей, жалғасып келе жатқанынан, ұлан-ғайыр кеңістікте қалыптасқан заттық мәдениеттен, дәстүрлі өнердің кесіпшілікten көрінетін белгілермен де қызықтырады» [8, 65-б.], – дейді. Заттық мәдениет атауларын сан ұрпаққа мұра болып жалғасатын байлықтың көзі екендігін А.Сейдімбек: «Материалдық мәдениет – жер бетінде тіршілік еткен адамдардың өзі өмір сүруі үшін жасаған түрлі еңбек құралдарымен қоса, мекен-жайы, киген киімі, жүрген көлігі, тұрмыста қолданған дүние



атауларының өзінен кейінгі үрпағына қалдырған заттық байлығы» [9, 24-б.], – деп танытады.

Тіл біліміндегі көптеген зерттеу жұмыстарының жаңа бағыттарын, атап айтқанда тіл байлығын батырлар жырының лексикасы негізінде тарихи-этнолингвистикалық түрғыдан зерттеудің маңызы зор. Осылымен байланысты, ана тіліміздің асыл қазынасы және ұлттық мәдениетіміздің мұрасын тарихи лексика негізінде таныту, қазіргі тіл зерттеудің кешенді бағыттарына сәйкес тіл мен мәдениет сабактастығы түрғысынан қарастырыады.

«Тіл – ұлттық тірегі, ұлт мәдениетінің негізі» деген ұстаным, негізінен, тіл мен ұлт мәдениеті арасындағы байланыс екені белгілі. Олай болса, осы байланыстың арқауы ана тіліміздің бойында сан ғасыр өтсе де үрпақтан үрпаққа сақтап жеткізетін тілдің өміршешендік қасиетімен танылады.

Әр халықтың болмысы тілінде сақталады, тілдік деректердің жан-жақты зерттеу арқылы халқымыздың өткені мен бүгінгісін байланыстырып, оның рухани жан-дүниесін түсінеміз. Тілдің дәл осындағы өткен өмірдің тәжірибесі мен өнегесін жадына сақтау қасиеті мен мұрагерлік қызметі негізінде халықтың шын мәніндегі даналығы, дүниетанымы, сол дәүірдегі өмірге қажетті болған құрал-сайманы, қару-жарагы, киер киімі, ішер асы, тұрмыстық т.б. заттары, салт-саны, әдет-ғұрыпқа байланысты ұғымдардың сыр-сипатының біразы тарихи жырдың тілдік деректері арқылы дәйектелгені нақты анықталды. Осы орайда этнос пен оның тілі бірге туып, бірге өсіп, біте қайнасқан құбылыс екенін көреміз.

Пайдаланылған әдебиеттер тізімі

1. Манкеева Ж.А. Қазақ тілінің заттық мәдениет лексикасы: филол. ғыл. докт... автореф. Алматы, 1997. -53 б.

DAVLAT TILIDA QONUN IJODKORLIGI:
MUAMMO VA YECHIMLAR



2. Қайдар Ә.Т. Қазақ тілінің өзекті мәселелері. – Алматы: Ана тілі, 1998. – 304 б.
3. Сыздықова Р. XYIII-XIX ғ.ғ. қазақ әдеби тілінің тарихы. – Алматы: Мектеп, 1984. -245 б.
4. Уәлиұлы Н. Фразеология және тілдік норма. –Алматы: Республикалық баспа кабинеті, 1998. –128 б.
5. Сарсенбаев Н. Обычаи, традиции и общественная жизнь. – Алма-Ата: Қазақстан, 1974. –180 с.
6. Этерлей Е.Н. Об этнографизмах и их месте в диалектном словаре // Диалектная лексика. -М., 1976.
7. Манкеева Ж.А. Қазақ тілінің заттық мәдениет лесикасы. Филология ғылымдарының докторы ғылыми дәрежесін алу үшін дайындалған диссертацияның авторефераты. –Алматы, 1997. –53 б.
8. Жәнібек Ә. Жарияланбаған жазбалар мен ол туралы естеліктер. –Алматы: Арыс, 1991. –240 б.
9. Сейдімбек А. Құй шежіре. –Алматы: Ғылым, 1997. –227 б.

Л.М.Бурханова,
доцент кафедры «Гражданское право»
Ташкентского государственного
юридического университета,
кандидат юридических наук

В.А.Артикова,
к.ю.н., старший преподаватель
междисциплинарной кафедры,
Улан-Баторский филиал РЭУ
имени Г.В. Плеханова,
Улан-Батор, Монголия

СФЕРА ПРИМЕНЕНИЯ И ФУНКЦИИ ГОСУДАРСТВЕННОГО ЯЗЫКА: ПРАВОВОЙ АСПЕКТ И НЕКОТОРЫЕ ВОПРОСЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ

В соответствии с Указом Президента Республики Узбекистан от 21 октября 2019 года «О мерах по кардинальному повышению роли и авторитета узбекского языка как государственного языка» [1] день 21 октября объявлен Праздником узбекского языка.

Государственный статус узбекскому языку был дан на основе принятого 21 октября 1989 года Закона «О государственном языке» [2], благодаря которому узбекский язык обрел прочную правовую основу и высокий статус.

Принятый в новой редакции Закон Республики Узбекистан «О государственном языке» закрепил такие вопросы как использование государственного языка в деятельности государственных органов и организаций, а так же при обращении физических и юридических лиц, ведении делопроизводства. Определено и использование государственного языка в официальных мероприятиях, издании в нормативно-правовых документов.



Правовое регулирование придания статуса узбекскому языку государственного имеет определенную правовую основу – это Государственная программа по обеспечению реализации Закона Республики Узбекистан «О введении узбекского алфавита, основанного на латинской графике» [3]; Указ Президента Республики Узбекистан «О мерах по кардинальному повышению роли и авторитета узбекского языка в качестве государственного языка» [1; Указ Президента Республики Узбекистан от «О мерах по дальнейшему развитию узбекского языка и совершенствованию языковой политики в стране» [4]; Концепция развития узбекского языка и совершенствования языковой политики в 2020-2030 годах [5]. Необходимо отметить разработку и принятие Модельного закона государств-участников СНГ «О языках» 2004 года.

Самая важная составляющая государственного языка в том, что он выступает в качестве символа данного государства.

Определяя статус узбекского языка в качестве государственного языка необходимо рассмотреть понятие и признаки государственного языка. Государственным языком является язык, который имеет законодательно закрепленный юридический статус в государстве, то есть признанный таковым на основе специального закона и подзаконных нормативных актов. Государственный язык в большинстве государств законодательно закрепляется в конституциях государств и в специальных законах о языках. Государственный язык выполняет интеграционную функцию в политической, социальной, экономической и культурной сферах, то есть его применение охватывает все сферы государственной и общественной жизни страны.

Государственный язык используется в законодательном порядке в официальных сферах общения, то есть на нем издаются законы и другие нормативные акты



государства, публикуются официальные документы, государственно-административные тексты, протоколы и стенограммы заседаний, делопроизводство и официальная переписка, ведут свою работу органы государственной власти, государственного управления, судебные и правоохранительные органы, предприятия, учреждения и организации. Проекты нормативно-правовых актов разрабатываются и выносятся на общественное обсуждение на государственном языке, при необходимости — и на других языках, наряду с государственным языком.

В новой редакции Закона Республики Узбекистан «О государственном языке» [2] закреплены вопросы использования государственного языка в деятельности госорганов и организаций, на мероприятиях, проводимых госорганами и организациями, языка, используемого в нормативно-правовых и иных документах, а также их проектах, языка, используемого в обращениях физических и юридических лиц, языка, на котором ведется делопроизводство, судопроизводство, который используется при записи актов гражданского состояния, удостоверении личности.

В статье 10 Закона Республики Узбекистан «О государственном языке» в новой редакции [2] закреплено, что на предприятиях, в учреждениях, организациях и общественных объединениях делопроизводство, учетно-статистическая и финансовая документация ведутся на государственном языке, а в коллективах, где большинство работающих не владеет узбекским языком, наряду с государственным языком может осуществляться и на других языках.

Взаимная переписка между госорганами и организациями, согласно новой редакции, ведётся только на государственном языке. Переписка госорганов и организаций с иностранными организациями, работающими



на территории страны, а также дипломатическими представительствами зарубежных государств может вестись на государственном языке или на соответствующем иностранном языке, с условием изложения перевода на государственный язык. Статья 14 Закона Республики Узбекистан «О государственном языке» в новой редакции [2] предусматривает, что физическим и юридическим лицам обеспечивается право обращения в госорганы и организации с заявлениями, предложениями, жалобами на государственном и других языках. Ответы на обращения излагаются, по возможности, на языке обращения.

Использование государственного языка является обязательным и в военной сфере - в армии, национальной гвардии.

Государственный язык используется при названии городов, населенных пунктов, наименовании улиц. Печати и штампы, используемые в деятельности всех органов, должны быть на государственном языке. Сферами применения государственного языка являются различные средства массовой информации, а также телевидение и радио.

Важным моментом является и то, что на государственном языке проводится обучение в школах и других учебных заведениях. Статьёй 18 Закона Республики Узбекистан «О государственном языке» в новой редакции [2] определено, что образование в Узбекистане ведётся на государственном и других языках. Обучение государственному языку в государственных общих средних и средних специальных образовательных учреждениях осуществляется бесплатно.

Примером практической реализации этого положения может служить обучение студентов в Ташкентском Государственном юридическом Университете на государственном языке, а также на русском и английском языках. Большой вклад в изучение и совершенствование



узбекского языка как государственного языка вносит кафедра «Узбекского языка и литературы» Ташкентского государственного юридического университета, на которой работают квалифицированные педагоги с большим опытом работы, имеющие определенные наработки в области изучения и преподавания языков, в том числе государственного языка. В качестве таких работ можно назвать публикации Д.Хошимовой [6], Г.Гулямовой [7], Н.Рамазонова [8], Н.Ниязовой [9], О.Чориева [10] и других ученых.

Преподавание узбекского языка как государственного языка в рамках учебной программы для всех направлений обучения в Ташкентском Государственном юридическом Университете определяется и тем, что студенты нашего вуза - это будущие работники государственных, судебных и правоохранительных органов, при работе в которых знание государственного языка является обязательным. Согласно статье 9 Закона Республики Узбекистан «О государственном языке» в новой редакции [2] в органах государственной власти и управления **работа ведется на государственном языке** и при необходимости обеспечивается перевод на другие языки.

Государство несет ответственность за сохранение, развитие и заботу о государственном языке. Но привилегированный статус государственного языка означает обязательность его использования в установленных законодательством случаях, но не означает, запрещения использования иных

языков народов данного государства. Поэтому важной функцией государственного языка в многонациональном государстве, каким является Узбекистан, является его назначение быть языком или одним из языков межнационального общения народов нашего государства. Статья 2 Закона Республики Узбекистан «О государственном



языке» в новой редакции [2] определяет, что приданье узбекскому языку статуса государственного **никаким образом не ущемляет конституционные права наций и народностей, проживающих на территории республики**, по употреблению родного языка, то есть выбора языка межнационального общения и обучения по своему усмотрению, по обращению в государственные органы и организации на своем языке.

Действительно, как сказал Президент Республики Узбекистан Ш.Мирзиёев «Знание узбекского языка – это «преданность и уважение к Родине»! Поэтому необходимы и определенные практические рекомендации по изучению узбекского языка. Это и разработка методики обучения государственному языку различных возрастных групп с различным уровнем знания языка. Это и создание в каждой махалле бесплатных курсов по обучению узбекского языка всем желающим с привлечением к процессу преподавания опытных педагогов. Такие наработки существуют на специализированных кафедрах по преподаванию узбекского языка в вузах, но они должны найти воплощение в процессе обучения государственному языку.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ

Стоит отметить, что полилингвальное образовательное пространство - это пространственный конструкт развития языковой личности (владение несколькими языками), интеллектуальной личности (способность решать задачи в поликультурном обществе), толерантной личности (открытость для культуры своего и других народов), а также личности, готовой к непрерывному саморазвитию в условиях международного взаимодействия.

Принимая во внимание выше изложенные факты, мнению учёных, законодательные основы и требования времени, необходимо констатировать, что организация мультилингвального образовательного пространства в ТГЮУ является одной из основных целей развития современной системы высшего юридического образования в Республике Узбекистан. Тенденция изучения родного и иностранных языков усиливается ежегодно, а межкультурное взаимодействие становится все более актуально в условиях открытого информационного общества.

Подтверждением наших слов является точка зрения профессоров Бахтикиреева У.М. и Ташенов С.Б., которые утверждают, что будущим специалистам крайне важно уметь выстраивать коммуникации, как на родном, так и на иностранных языках, понимать ценности и нормы других культур, знать и чтить традиции и культуру своего государства.



Таким образом, с учетом мульти лингвальной направленности развития образования в университетах необходимо обратить внимание на формирование не только мульти-лингвального профессорско-преподавательского состава, но и охватить в этот круг и иных ключевых кадров (библиотекари, сотрудники Редакционно-издательского отдела, Отдела стратегического развития и пр.) во всестороннем развитии университета.

Список использованной литературы

1. Язык закона / Под ред. А.С.Пиголкина. – М.: Юридическая литература, 1990. 200 с.
2. Khashimova D. et al. The role of electronic literature in the formation of speech skills and abilities of learners and students in teaching Russian language with the Uzbek language of learning (on the example of electronic multimedia textbook in Russian language) //Journal of Language and Linguistic Studies. – 2021. – Т. 17. – №. 1.
3. Киракосян М.Б. «Роль языка в профессиональной деятельности юриста» Тамбов: Грамота, 2014. № 6 (36): в 2-х ч. Ч. I. С. 89-91. ISSN 1997-2911.
4. Ниязова Н. Дискуссия и дебаты как средства совершенствования культуры речи у студентов юридических факультетов // Review of law sciences. – 2020. – Т. 3. – №. Спецвыпуск. // <https://orcid.org/0000-0002-6276-5178>
5. Языковые преобразования: монография / В.Г.Гак. – Москва: Языки русской культуры, 1998. – 768 с.
6. Ниязова Н., Ардатова Е., Сойипов Х. Обучение языкам как основа развития юридической науки и образования // Общество и инновации. - 2021. - Т. 2. - №. 2. - С. 137-143.
7. М.А.Бердиева. Практикум по культуре речи юриста. // Учебное пособие для студентов-юристов. – Т., 2018. 180 с.
8. Н.Н.Ивакина Основы судебного красноречия (риторика для юристов). Учебное пособие 2-е издание. <http://www.pseudology.org/legis/OsnovySudebKrasnorechiya2.pdf>



9. Niyazova N. J. The role of regional texts in language learning // Проблемы современной науки и образования. – 2020. – №. 1. – С. 41-4602-6276-5178 // <https://orcid.org/0000-0002-6276-5178>
10. Осиянова О. М. Многоязычие как определяющий подход языковой политики в современном лингвистическом образовании // Вестник ОГУ. № 1. 2005. С. 101-106;
12. Хакимов Э.Р. Проблемы и перспективы развития поликультурного образования / Образование и межнациональные отношения. Educationand Interethnic Relations -IEIR 2012 / под ред. Э.Р. Хакимова. Ч.1. Ижевск: Издательство «Удмуртский университет», 2012. С. 19-23
13. N.Niyazova, U. Pulatova. D.Talipova. The progressive development of Uzbekistan on influence of pedagogical staff // International Journal of Psychosocial Rehabilitation, 2020. №2.
14. Бахтириева У. М., Ташенов С. Б. Проблемы и перспективы билиполицентрического образования в рамках постсоветской макросистемы. [Электронный ресурс]. Режим доступа: www.ict.edu.ru/ft/003609/chapter5.pdf
15. RAMAZONOV N. Alisher Navoiyda tahrirni tahrir //Editing the Editing in 'Alī Shīr Nawā'ī's Poetry], O'zbek tili va adabiyoti. – 2006. – №. 1. – С. 17-23;
16. Зиямухamedова Ш. Т. Структурный анализ информационно-коммуникационных терминов в узбекском языке //International Journal of Innovative Technologies in Social Science. – 2019. – №. 4 (16);
17. Чориев О. Сочетание права и литературы в понимании сущности криминала юридическими кадрами //Review of law sciences. – 2020. – Т. 3. – №. Спецвыпуск.

Q.M.Olloyorov,

UrDU O'zbek tilshunosligi kafedrasи dotsenti,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sh.Q.Madiyorov,

Urganch davlat universiteti filologiya
fakulteti 3-kurs talabasi

DAVLAT TILI VA IMLOSINING RAVNAQI UCHUN BARCHAMIZ MAS'ULMIZ

O'zbek tili dunyo tillari orasida o'zining ifoda imkoniyatlari, so'zboyligivayaratilgan manbalarning salmog'iijihatidan yetakchi o'rnlarni egallaydi. Tilimizga tarixning turli davrlarida bir necha marta jiddiy ta'sirlar sodir bo'lganligi tarixiy ma'lumotlardan ko'pchilikka ma'lum. Jumladan, qadimgi davrlardagi hind (sanskrit) tillarining [Rahmonov., Sodiqov. 2009.8], milodning VIII asrlaridagi arabiylar tillarning, XIII asrlarga kelib sharqiy (mo'g'ul-xitoy) tillarning va XIX asrlarda esa yevropa (rus) tillarining o'zbek tiliga ta'siri tilimizning bugungi qiyofasida ham o'z chandig'ini qoldirganligini inkor etib bo'lmaydi.

Tilimizning tadrijiy rivojlanishi muayyan davrlarda qo'llanilgan yozuvlar, jamiyatning o'sha davrdagi mafkuraviy qarashlari, urf-odatlari va yashash tarzi kabilar bilan hamohang ro'y beradi. Osiyo qit'asida yashagan avlod-ajdodlarimiz **runik, xorazmiy, oromiy, so'g'd, parfiyoniy, baqtariy, monaviy, suryoniy, pahlaviy** deb nomlangan yozuvlardan foydalanib kelganligi tarixiy va ilmiy manbalardan bizga ma'lum. Markaziy Osiyo xalqlari, xususan, turkiy xalqlarning yozuv madaniyati tarixida qator, har qaysisi o'zicha takomil bosqichiga erishgan butun boshli yozuvlar tizimi amal qilgan [Sodiqov. 2009.80].

O'zbek tili juda ko'p sinovlarga dosh bergen, ko'p martalab unga qilingan tajovuzlarni yengib o'tib kelayotgan kuchli tillardan deb hisoblasak xato bo'lmaydi. O'tgan asr davomida

DAVLAT TILIDA QONUN IJODKORLIGI:
MUAMMO VA YECHIMLAR



o'zbek tili eng katta va jiddiy ta'sirni boshidan kechirdi va hatto, ayrim tadqiqotchilarning fikricha, o'lik tilga aylanish xavfini boshidan kechirdi.

Tilimizni himoyalash uchun qilingan muhim harakatlardan biri unga 1989-yilda Davlat tili maqomining berilishi bo'ldi. O'zbek tilining o'sha paytlardagi holati uning tarkibida o'zlashgan qatlam birliklarining eng katta foizga ko'tarilgani bilan xarakterlidir. Buni oddiy usulda ham aniqlab ko'rish mumkin. Masalan, 80-yillarda nashr qilingan ommaviy-axborot vositalari, xususan, gazeta, jurnallardagi «o'zbekcha» deb hisoblangan matnlar bilan bugungi kunda chiqayotgan shunday matnlarni qiyoslanganda bu holat mutaxassis bo'limgan kishilarga ham yaqqol ayon bo'ladi.

Tilimizga davlat miqyosida e'tiborning kuchaytirilayotgani va bu borada turli darajadagi qonun va qarorlar qabul qilinayotganining ham beqiyos ahamiyati mavjud. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning ta'kidlab: «Barchamizga yaxshi ayonki, ona tili – millat ma'naviyatining mustahkam poydevoridir... Turkiy tillarning katta oilasiga mansub bo'lgan o'zbek tilining tarixi xalqimizning ko'p asrlik kechmishi, uning orzu-intilishlari, dard-u armonlari, zafarları va g'alabalari bilan chambarchas bog'liqdir... Davlat tili masalasi milliy g'oyamizning asosiy tamoyillaridan biri bo'lishi zarur», deya aytgan fikrlari barchamizni tilimiz himoyasiga chorlaydi [Mirziyoyev nutqi. 4.2019].

Tilimizni himoyasini kuchaytirish bo'yicha amalga oshirilgan yana bir muhim harakatlardan biri 2019-yil 21-oktabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan «O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi farmonning imzolanishi bo'ldi.

Farmonning eng asosiy o'rinalidan biri – «Davlat tilini rivojlanтиrish departamenti»ning tashkil etilishi bo'ldi desak mubolag'a emas. Bugungi kunda viloyatlar va tumanlar kesimida mazkur tuzilma jadal faoliyat yurita boshladi. O'zbek tilini

DAVLAT TILIDA QONUN IJODKORLIGI:
MUAMMO VA YECHIMLAR



rivojlanadirish va xalqaro nufuzini oshirish bo'yicha yil davomida ommaviy axborot vositalari va boshqa tarmoqlarda keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda.

Haqiqatan ham, o'zbek tili bugungi kunga kelib siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy sohalarda o'z mavqeyini tiklab oldi. Buning yorqin isboti sifatida 2020-yil 23-sentabrda BMT bosh assambleyasining 75-sessiyasida dunyo sahnasida birinchi bor o'zbek tilida yangragan Prezidentimizning nutqi butun o'zbek millati qalbini g'urur va iftixor tuyg'usi bilan to'ldirdi. Ushbu nutq o'zbek tilining himoyasi uchun amalga oshirilgan eng katta jasorat deb baholanmoqda [Mirziyoyev nutqi. 5.2020].

Yuqorida keltirib o'tilgan ijobiy harakatlar bilan bir qatorda, hali tilimiz himoyasi va imlomizning mukammal bo'lishi borasida qilinadigan bir talay ishlarimiz bor ekanligi, ko'rيلayotgan choralar hali yetarli darajada bo'lmayotganligini ham e'tirof etish joyiz deb o'ylaymiz. Jumladan, bugungi kunda mamlakatimizda yashab kelayotgan o'zbek tilli aholining kundalik muomala so'zlarining katta qismi varvar birliklarni tashkil qilmoqda. To'g'ri, «el og'ziga elak tutib bo'lmaydi» degan naql ham bor, ammo biz radio, televide niye va boshqa ommaviy-axborot vositalaridan foydalanaib tilimizning jozibadorligini, nozik ifoda imkoniyatlarini kishilarimiz ongiga yetarli darajada yetkazib berolmayapmiz.

Tilimizning rivojlanishini uning imloviy maslalaridan ayricha hal qilib bo'lmaydi. O'zbek tilining imloviy masalalarida ham bugungi kunda hal qilinishi kerak bo'lgan bir qancha muammolar ochiq qoldirib kelinmoqda.

Jumladan, **yo**-lashgan unlilar bilan bog'liq muammolar mutaxassislar oldida hali ham ko'ndalang bo'lib turibdi. Kirill-o'zbek alifbosidagi **e**, **ë**, **ю**, **я** harflarining yangi o'zbek-lotin alifbosida ifodalash masalasida stabillik buzilgan. Odatda, har bir so'zning imloviy shaklini maxsus imlo lug'atlaridan bilib olish talab etiladi. Ammo o'zbek tili uchun bir necha imlo lug'atlari



nashr etilgan va buning yomon jihatni ularda **yo**-lashgan unlilar masalasi har xil keltirilgan.

Jumladan, zabardast o'zbek tilshunoslari Sh.Rahmatullayev va Azim Hojiyevlar tomonidan nashr qilingan «O'zbek tilining imlo lug'ati»da kirill-o'zbek alifbosidagi валюта, октябрь, сентябрь каби leksemalar imlosi tarkibida **y** undoshi ishlatilmagan bo'lsa [Rahmatullayev., Hojiyev. 2011. 132, 169, 200], boshqa bir zabardast tilshunoslari E.Begmatov va A.Madvaliyevlar tomonidan nashr qilingan imlo lug'tida mazkur so'zlar imlosida **y** harfi mavjud holda tavsiya etilgan [Madvaliyev., Begmatov. 2013.281,364,439].

Biz bu o'rinda bu ikkala imlo lug'atlarining birontasiga e'tiroz bildirmoqchi emasmiz, biroq bunga o'xhash holatlari ko'pchilikni gangitib qo'ymoqda. Ko'chalarda do'konlar peshtoqlari-yu, reklama bannerlarida kuzatilayotgan xatoliklarni tuzatishga harakat qilamiz. Bir tomonidan qonun yo'li bilan tilimiz va imlomizni himoya qilamiz, ya'ni kamchilikka yo'z qo'yilgan holatlarga nisbatan chora ko'ramiz va boshqalar. Ikkinchisi tomonidan qanday yozish kerakligi borasida uzil-kesil qat'iy shakllarni qo'llay olmaymiz.

Yoki kirill-o'zbek alifbosidagi **п** harfining qo'llanishidagi ayrim holatlarda ham yuqoridagi kabi har xilliklarni kuzatishimiz mumkin. Bugungi kunga kelib, imlomizni tuzatish, kamchiliklarni bartaraf etish harakatlari kuchaymoqdaki, bunday harakatlar o'tgan asrning 30-40-yilarida ham kuzatilgan. Oxir oqibatda, o'zbek yozulari necha martalab o'zgargan va turli xil salbiy natijalarini namoyon etgan.

Nazarimizda, hozirgi lotin-o'zbek imlomizga ham ko'pchilik ko'nikib ulgurdi. To'g'ri, ma'lum kamchiliklarni tuzatish mumkin, lekin buni doimiy ravishda amalga oshirish to'g'ri emas. Bu holda har bir davrda o'ziga xos yozuv qoidalari ishlatilishiga to'g'ri keladi va kelajak nasllar uchun ma'lum davr manbalarini o'rganishda muayyan mushkulliklar paydo bo'ladi.



Ba'zan talabalar yoki boshqa soha vakillari orasida tilimizning bu kabi qo'llab quvvatlanishing ahamiyati borasida yaxshi tasavvurga ega bo'lmaslik holatlariga ham duch kelib qolamiz. Bilishimiz zarurki, o'zbek millatining mavjudligini bildiruvchi, allomalarimiz jumlalari bilan aytganda, «dunyoda borlig'ini ko'rsatadurg'on, oinayi hayoti» o'zbek tili hisoblanadi.

Siyosiy mustaqillikdan keyin iqtisodiy mustaqillikka, undan keyin ma'naviy mustaqillikka erishish va uni mustahkamlash – Vatanimiz, jamiyatimiz, ta'limimiz oldida turgan eng muhim vazifalardandir [Пасулов. 2010.5]. Birlashgan millatlar tashkiloti nizomlarida qaysi etnik guruhning millat deb tan olinishi va millat deb tan olingan etnosninggina dunyoda o'z yeriga, davlatiga ega bo'lish huquqi paydo bo'lishi mumkinligi keltiririladi. Faqat bugina emas, millatning o'ziga xos belgilari orasida, uning madaniyati, san'ati, urf-odatlari, irqiy belgilari kabilar ham mavjudki, bularning hech biri uning tilichalik millatning borligini ta'kid etolmaydi.

Demak, o'zbek tilining yuqori maqomda bo'lishi, uning qonunalar bilan himoyalanishi mustaqil yurtimizning dunyo xaritasidan mustahkam o'rin olishiga xizmat qilib kelayotgan, strategik ahamiyatga ega bo'lgan o'ta muhim ma'naviy boyigimiz ekanligini har doim his qilib turishimiz zarur.

Foydalanimgan adabiyotlar

1. Авлоний. Туркий гулистон ёхуд ахлоқ. -Тошкент: Ўқитувчи, 1992. -B.164.
2. Rahmonov N., Sodiqov Q. O'zbek tili tarixi. -Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2009. -B.8
3. Sodiqov Q. Turkiy til tarixi. -Toshkent: Sharqshunoslik instituti nashriyoti, 2009. -B.370.
4. Mirziyoyev Sh. «Davlat tili masalasi milliy g'oyamizning asosiy tamoyillaridan biri bo'lishi zarur» <https://www.gazeta.uz/oz/2019/10/21/uzbek-tili/>

DAVLAT TILIDA QONUN IJODKORLIGI:
MUAMMO VA YECHIMLAR



5. Mirziyoyev Sh. « BMT bosh assambleyasining 75-sessiyasida o'zbek tilida so'zlagan nutqi. 23.09.2020» <https://www.gazeta.uz/oz/2020/09/23/bmt/>
6. Расулов Р. Умумий тилшунослик. -Тошкент: Фан ва технология маркази нашриёти, 2010. -Б. 328.
7. O'zbek tilining izohli lug'ati. Nashrga tayyorlovchilar: Madvaliyev A., Begmatov E. -Toshkent: Akademnashr, 2013. -B. 528.
8. O'zbek tilining izohli lug'ati. 2-nashr. Nashrga tayyorlovchilar: Rahmatullayev Sh., Hojiyev A. -Toshkent: O'qituvchi, 2011. -B. 240.

R.R.Xalilova,

Buxoro davlat universiteti Boshlang'ich ta'lif nazariyasi
kafedrasи o'qituvchisi

VIRTUAL MAYDONDA NUTQIY MULOQOTNING FARQLI JIHATLARI

Muloqotni jamiyat a'zolarining o'zaro aloqa-aratishuvvisiz va ularning bir-biriga ta'sirini fikr almashish (axborot berish va axborot olish)siz tasavvur qilish mumkin emas. Muloqotning tarkibiy qismida nutq, fikr almashish, axborot berish mujassamlashgan. Fikr bayon qilish jarayoni, shubhasiz, ko'p holatlarda lisoniy imkoniyatlarning yozma yoki og'zaki shaklda moddiy voqelanishi bilan bog'liq. Lekin lisoniy birliklarning voqelanishi bilan bog'liq bo'lмаган muloqot turlari ham oz emas [1]. SHunga ko'ra, lisoniy vositalarning moddiy shaklda voqelanmagan muloqot turlari nutqsiz muloqot deb baholanadi. Muloqot ko'p hollarda verbal, ya'ni so'z, lisoniy vositalar orqali va noverbal, so'zsiz – noverbal vositalar (imo-ishora, har xil belgi, nishona, ramz, simvollar) orqali axborot berish bilan bog'liq bo'lib, bir-biriga ta'siriga ko'ra verbal yoki noverbal muloqot sifatida tasnif qilinadi [2].

Nutqiy muloqot deganda muloqot jarayonida lisoniy verbal va noverbal vositalarning (birgalikda) hamkorlikda ishlatalishi tushuniladi. Muloqotning yana shunday bir ko'rinishi borki, uni "virtual nutqiy muloqot" deb atash mumkin. Axborot texnologiyalari rivojlanishi bilan turli xil global muloqot imkoniyatlar bo'ldi. Internet paydo bo'lishi bilan vositachilik aloqalari sezilarli darajada oshdi, ma'lumotlarni uzatishning har xil usullari paydo bo'ldi. Chunonchi, elektron pochta xabarları, forumlar, ijtimoiy tarmoqlar, bloglar, chatlar va boshqalar [3]. Virtual nutqiy muloqot odamlarning muloqotini yangi darajaga olib chiqadi. Bu esa katta hajmdagi ma'lumotlarni saqlash va uzatish, on-layn muloqt qilish, audio-vizual muloqot kanallaridan



foydalanish imkonini bermoqda. Virtual nutqiy muloqot boshqa muloqot turlaridan farqli o'laroq keng miqyoslidir.

Virtual nutqiy muloqotning o'ziga xos xususiyatlari quyidagi: virtuallik - noma'lum suhbatdosh bilan muloqot qilish qobiliyati; "masofada" turib axborot almashish qibiliyati; kommunikatorlarning teng huquqliligi; gipertekst uslubi; maxsus belgilar (kulgichlar) yordamida hissiyotlarni ifodalash; undov va savol belgilarini takroriy qo'llash, bir xil harfni takror ishlatalish, qo'pol so'zlar o'rniغا yulduzcha belgilaridan foydalanish, matnda ko'pincha qisqartmalar ishlatalish.

Virtual suhbat quyidagicha tavsiflanishi mumkin: 1) muloqotning ommaviy xarakteri; 2) aloqa yo'naliishi: ko'pdan ko'pgacha; 3) sinxron aloqa; 4) xabar oluvchiga xabar berishning o'rtacha tezligi; 5) xabar shakli va mazmuniga qat'iy talablarning yo'qligi. Bugungi kunda yangi elektron muloqot muhiti shakklandiki, bunday kommunikatsion xizmat ikki xil usulda amalaga oshiriladi: bevosita (PC, chat) va bilvosita muloqot (elektron pochta, forum, telekonferensiya) [1,2,3].

Bevosita kommunikatsion xizmat usulidan biri bu – chat. U muloqotni ta'minlab beruvchi dasturiy ta'minot bo'lib, real vaqt tizimida Internet tarmog'i orqali xabarlarni tezkor almashish vositasidir. Forumga nisbatan chat tizimida muloqot qilish va xabarlar almashish real vaqt tizimida sodir bo'ladi. Chat so'zi ingliz tilidan olingan bo'lib, «do'stona suhbat, hangoma» – elektron suhbatlar, real vaqtidagi kompyuter muloqoti kabi ma'nolarni anglatadi. Chat – bu bir vaqtning o'zida bir necha foydalanuvchining Internet orqali muloqotidir [3]. Bunda foydalanuvchilar Internet orqali so'zlashadi, ya'ni matn yozishish orqali yangiliklar bilan almashadi, biror mavzuni muhokama qiladi yoki o'zaro gaplashadi. Bunday virtual kommunikativ maydonda barcha foydalanuvchilar o'zaro yozuv ko'rinishidagi xabarlarni almashish orqali muloqot qiladi. Virtual kommunikativ maydonda nutqiy diskurs deganda ikki yoki undan ortiq foydalanuvchilarining bir vaqtini o'zida, bir-birlari bilan internet



tarmog'i orqali muloqot o'rnatishi, fikr almashishi tushuniladi. Virtual kommunikativ maydonda foydalanuvchilarning joylashuv o'rni, ya'ni foydalanuvchilar qaerda bo'lishi ahamiyatli emas. Faqat quyidagi maxsus dasturlardan bir bo'lishi shart: Skayp, Meyl Agent, Google Talk, ICQ kabi. Virtual kommunikativ jarayonda mikrofon va eshitish qurilmasini kompyuterga ulagan holda va dasturlar yordamida foydalanuvchilar so'zlashib muloqot qilishlari mumkin.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, kishilar o'rtasida og'zaki va yozma shakllardagi o'zaro muloqot masalalari faylasuflar, sotsiologlar va tilshunoslar tomonidan qayta-qayta ko'rib chiqilishi, nutqiyligi muloqot nazariyasining paydo bo'lishi va yanada rivojlanishiga olib keladi. Juhon kompyuter tarmog'i turli etnik va madaniy jamoalar vakillari o'rtasida muloqot uchun yangi imkoniyatlar eshigini ochib berar ekan, Internet tilshunoslikda til va madaniyat muammosini yoritib berish yuzasidan ilmiy tadqiqotlarni yanada chuqurlashtirish zarurati mavjudligini taqozo etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Жичкина, А.Е. Социально-психологические аспекты общения в Интернете <http://floqiston.ru/projects/articles/strateqy.shtml>.
2. Карцевский С. Об асимметричном дуализме лингвистического знака // Звегинцев В.А. История языкоznания в очерках и извлечениях. Ч.II. -Москва: Просвещение, 1965. -85 с.
3. Кремлева, С. «ЧАТ» как разновидность виртуального общения // <http://sociology.extrim.ru/dip/start.htm>

М.А.Бердиева,
заведующий кафедрой русского языка
Технического института Ёджу в городе Ташкент,
Узбекистан

ВНЕДРЕНИЕ СИТУАТИВНО-ТЕМАТИЧЕСКОГО ПРИНЦИПА В ПРАКТИКУ ПРЕПОДАВАНИЯ РУССКОГО ЯЗЫКА

Большую роль в формировании профессиональной компетенции студентов играет такой прием интерактивной методики, как моделирующие упражнения (ролевые игры). Для выполнения ролей студентам предоставляются определенные реквизиты: специальная лексика, необходимая в процессе упражнений; план, в соответствии с которым предлагается посмотреть модель.

Во время подготовки игры и её проведения студенты приобретают навыки как монологической, так и диалогической речи; у студентов развиваются и навыки самостоятельного мышления: им самим часто приходится выбирать те или иные решения, придерживаться определенных правил игры, вспоминать и использовать в речи отработанные конструкции.

При отборе коммуникативно-ситуативных тем и подборе речевого материала для каждой из них нужно оценивать каждую тему и каждую фразу с точки зрения их употребительности в естественных актах общения, т.е. учитывать, подготавливает ли отрабатываемый на занятиях учебный материал студентов к участию в реальной коммуникации или нет. Каждая отрабатываемая на занятиях фраза должна войти в фонд «готовых» языковых знаков для речевого обслуживания в условиях естественной коммуникации.



Следовательно, задачи повышения эффективности обучения русскому языку как средству общения предполагают широкое использование речевых ситуаций.

Далее надо разработать систему коммуникативных упражнений, нацеленных на формирование речевого умения; и затем продумать ситуации, в которых протекало бы естественное речевое общение.

Рассмотрим подробнее перечисленные этапы в создании условно - речевых ситуаций:

1. Отбор материала надо продумать с учетом следующих моментов:

что содержит в себе учебник, пособия, словари; что известно студентам на основе собственного речевого опыта; какая фактическая информация нужна для введения ситуации; при подборе опорной лексики надо следить за тем, чтобы было достаточно глаголов, имен (существительных, прилагательных ...) и т.д.; как сделать опорный языковой материал достоянием студентов еще до занятий.

2. При введении и первичной активизации нового материала целесообразно использовать функциональный подход, чтобы студенты поняли значимость тех или иных грамматических явлений. При этом желательно использовать подстановочные таблицы, составленные на основе структурных моделей.

3. Обучение говорению начинается с диалога. Здесь рекомендуется следующая последовательность операций: слушается запись диалога; диалог читается в парах, двумя участниками; производится замена подвижных частей диалога реальными для студентов компонентами; диалог обговаривается «в парах»; создается диалог по аналогии; новый диалог «обговаривается» в парах; диалог инсциенируется.

В ходе разговора инициатива может переходить от одного собеседника к другому. Важным является



правильное использование реплик-стимулов и реплик-реакций, а также учет особенностей русского речевого этикета. Использование коммуникативных упражнений имеет целью показать, что язык – средство общения, а не материал для упражнений. Поэтому исключительно важным является психологически правильно построить вопросно-ответные упражнения, избегая при этом формальных вопросов. Так, например, на сообщение *Вы слышали, вчера произошла кража*. Естественными будут вопросы: *Где же это случилось?; Когда это произошло?; Сообщили уже о каких-либо подробностях?*

Студентов надо готовить к естественному ведению разговора. Для этого надо показать особенности реплик-стимулов и реплик-реакций, показать краткость, компрессию диалогической речи.

Большинство реплик состоит из трех фаз:

1. Отношение говорящего.
2. Объяснение причин такой реакции.
3. Вопрос или новое сообщение, требующее реакции.

Для привития нерусским студентам навыков образцовой диалогической речи надо активизировать выражения русского речевого этикета, воспитывать у них наблюдательность за речевым поведением людей разного возраста, разных профессий. Показать, что люди по-разному пишут об одном и том же событии друзьям, преподавателю, официальным лицам. Эту работу полезно начинать с упражнений-наблюдений за устной речью разных людей.

1. *Объясните ситуации, в которых можно употребить следующие обращения...*

2. *Охарактеризуйте участников диалога по их речевому поведению (возраст, взаимоотношения и т.д.).*

После упражнений-наблюдений рекомендуются задания на воспроизведение диалога, затем составление аналогичных, наконец, самостоятельных диалогов сопорой



на заданную ситуацию. Желательно детерминировать и адресат высказывания.

Методика проведения занятий с использованием речевых ситуаций зависит от ряда факторов: от целей занятия (формированию каких навыков и умений посвящается занятие); от темы занятия (значимость темы для устной речи. Не все темы требуют ситуативного подхода. Речевые ситуации надо использовать при усвоении тем, актуальных для данного контингента студентов); от этапа преподавания; от этапа занятия, на котором применяется ситуация.

Готовясь к занятию, на котором будет использована ситуация, преподаватель определяет следующие вопросы:

1) в какой коммуникативной ситуации актуален учебный материал; 2) какую новую информацию может получить студент на данном занятии; 3) на что следует обратить внимание с точки зрения развития познавательной активности студентов; 4) как «связать» материал с жизненным опытом студентов; 5) какие тренировочные упражнения будут способствовать выработке грамматических умений и навыков; 6) какой стимул необходимо создать для реализации ситуации.

Ситуативно-тематический принцип лингводидактики призван реализовать систему развития свободной (т.е. не-подготовленной) речи с опорой на достаточный минимум учебных и естественных ситуаций, базовой тематической лексики и фразеологии, с учетом всех основных уровней речевой деятельности (аудирование, говорение, чтение, письмо, перевод) обучающихся.

При внедрении ситуативно-тематического принципа в практику преподавания русского языка лингводидактика исходит из закономерностей социологического и психологического характера, что предполагает:

1) учет неравномерного развития речи студентов на русском языке по конкретным тематико-смысловым и ситуа-



тивным параметрам; 2) необходимость отработки навыков речевой деятельности, всемерной активизации у студентов ассоциативной памяти; 3) прямую зависимость в учебном процессе числа ситуаций и лексико-тематических кругов, реальной активизации вводимого в занятие языкового материала, от степени усвоения их студентами, от уровня развития у них мышления на изучаемом языке; 4) прогресс в развитии речи на русском языке (например, по «расширяющейся спирали»); 5) лингводидактическую и тренинговую ориентацию на обеспечение преемственности в постепенном переводе исходного учебного языкового материала из рецептивного в репродуктивный и продуктивный, т.е. возможности постановки достаточной речевой деятельности обучающегося в данной конкретной ситуации должна предшествовать постановка первичных речевых умений и навыков в рамках языкового обеспечения разговора по требованиям соответствующей ситуации.

Реализации ситуативно-тематического принципа содействует:

1) отбор речевых ситуаций тематически ориентируемого учебного материала, распределение по этапам обучения с переходом от ситуации к ситуации; 2) комплектование рождающих высказывания упражнений в единой системе ситуативно-речевой коммуникации; 3) интеграцию различных форм и уровней речевой деятельности с учетом грамматического обеспечения ситуаций и определенным образом дозированного тематически ориентируемого лексического материала; 4) опора на достаточно полный набор проблемных речевых ситуаций, так называемых «конфликтных» ситуаций, которые вызывают потребность в проведении аудирования, говорения, в письме и чтении по конкретно отрабатываемой теме; 5) отбор учебных текстов.

Обучение русскому языку студентов-юристов с учетом будущей специальностью дает возможность



активно использовать ситуативно-тематические задания. Привлечение студентов к участию в ситуации состоит из нескольких последовательных этапов. Работая с учебным материалом, на основе которого будет происходить научное общение, студенты, прежде всего, уточняют значение непонятных им слов, фраз; далее выделяют и формулируют проблему, которую им предстоит обсудить; оценивают материал; интересуются мнением речевых партнёров и т.п. Недостаточно научить студента оформлению содержания основной информации: он должен уметь включаться в научную беседу, комментировать выступления участников беседы, реагировать на услышанное невербальными средствами (жестами, мимикой и т.п.).

К поэтапности обучения относится и последовательная реализация учебного материала. Первоначально студенты учатся работать в искусственной речевой ситуации; они общаются с заданной целью и при заданных преподавателем условиях. С помощью упражнений отрабатываются умения использования лексико-грамматического материала, формул речевого этикета. Выполняя эти упражнения, студенты отрабатывают навыки речевого поведения. Это могут быть упражнения типа: *Задайте вопрос собеседнику; Уточните его высказывание; Согласитесь/Не согласитесь с ним (используя речевые формулы); Выразите сомнение по поводу услышанного и т.п.*

Далее студентам предлагаются так называемые условно-речевые ситуации, которые моделируют естественное общение. Студенты, хотя и ограничены материалом текстов, всё же имеют возможность логически использовать его. Система упражнений должна предоставить возможность выбора языковых средств для выражения своих мыслей. Умение пользоваться языковыми средствами вырабатываются с помощью упражнений типа: используя данную модель, ответьте на вопросы собеседника;



согласитесь/не согласитесь с мнением собеседника, постарайтесь продолжить беседу; выразите сомнение по поводу услышанного, мотивируйте своё мнение; составьте диалог на основе предложенной ситуации и т.п.

Теперь студенты должны быть подготовлены для работы в естественных ситуациях. На этом этапе обучения студенты в реальных условиях используют полученные знания, сформированные умения работы со специальными текстами: они должны участвовать в беседе после прослушанного (или прочитанного) текста, доклада, лекции; подготовиться к докладу на русском языке на заданную научную тему, выступить с сообщением на заседании научного кружка, докладом на студенческой научной конференции; принять участие в обсуждении итогов конференции.

Использованная литература

1. Ахрапова Г.П., Воинова М. Г., Хашимова Д.У. «Обучение профессиональному общению». – Т.: ТГЮИ, 2007. – С. 175.
2. Воинова М.Г. Соотношения языка и речи в практической деятельности юриста /Теоретические и практические аспекты обучения языкам и литературе в вузах. Вып. 11. – Т.: ТГЮИ, 2006. – С. 33-39.
3. Изаренков Д.И. Обучение диалогической речи. М., 1986.
4. Изучаем язык специальности / Безбородова Т.Н., Воинова М.Г. и др.: под редакцией И.Р.Мирзаевой.- Т.:Адолат, 1998. -240с.
5. Скалкин В.Л. Системность и типология упражнений для обучения говорению // Иностранные языки в школе, 1979, №2, с. 19-25.

Gulhayo Boltayeva,
Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti
Gumanitar fanlar fakulteti
O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 3-bosqich talabasi

QONUN NOMLARIDA QARATQICH KELISHIGINING IFODALANISHI VA BOSH HARFLAR IMLOSIGA DOIR

Dunyoda mamlakatlar borki, ular o'z davlatini rivojlantirish, dunyoga tanitish uchun islohotlar olib boradi. Islohotlar qonun ko'rinishida ishlab chiqiladi. Har bir davlatning qonuni o'z fuqarolarini to'g'ri yo'lga, to'g'ri hayotga boshlash uchun xizmat qiladi. Demakkim, qonun o'zi qanday to'g'ri bo'lsin, uning nomlanishi hamda bayonida so'zlar ham to'g'ri qo'llanishi, imlo va uslubiyat qoidalariga to'liq javob bera olishi kerak. Bu boradagi xatoliklar ma'lum darajada qonunga nisbatan hurmatsizlikni ham shakllantirishi mumkin. Hozirgi kunda muhokamalarga sabab bo'layotgan bir necha misollarni ko'rib o'tamiz:

1. Voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi to'g'risida¹.
2. Voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida.

Birinchi variantda **-ning (qaratqich kelishigi)** affiksining belgili qo'llanilishi, ikkinchi variantda esa uning belgisiz qo'llanilishidan qaysi biri imlo qoidalariga mosligini tahlil qilsak.

Bu yerda *voyaga yetmaganlar, nazoratsizlik va huquqbuzarliklar* so'zları bir umumiy ma'noni anglatyapti. Ya'ni, umuman butun O'zbekiston uchun tegishli bo'lgan, voyaga yetmaganlarning nazoratsizligi va huquqbuzarligi haqida gap boryapti. Umumiylar ma'no anglatganda **-ning** affiksi (**qaratqich kelishigi**) belgili qo'llanilishi uslubiy xato sanaladi. Aynan ma'lum bir hudud bo'yicha bo'lganda **-ning** affiksi qo'llanilishi

¹ <https://lex.uz/docs/-1685726>.



talab etiladi. Masalan, *Buxoro viloyatidagi tumanlarda voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi olib borilmoqda*. Bunda aniqlik mavjud bo'lib, aynan Buxoro viloyatiga tegishli bo'lgan voqeа-hodisa ifodalananayotgani uchun **-ning** affiksi belgili qo'llaniladi. Umumiylik ifodalansa, **-ning** affiksi (qaratqich kelishigi) belgisiz qo'llaniladi, xususiylik, aniq ma'no ifodalansa **-ning** affiksi (qaratqich kelishigi) belgili qo'llaniladi. Buni hayotiy misollarda ham ko'rib chiqaylik.

1. Maktab direktori tashkilotchi bo'lishi kerak.
2. Bu mактабning direktori tashkilotchi.

Birinchi misolda umumiy va noaniq ma'no ifodalanyapti, allaqanday va hamma maktablar direktorlari nazarda tutilyapti. Ikkinci misolda esa xususiy va aniq ma'no ifodalanyapti, aynan *bu* maktabning direktori. Ko'rsatish olmoshi ishtiroki ham aniqqlikni ifodalaydi va qaratqich kelishigining belgili qo'llanilishini talab etadi.

Ta'kidlash maqsad qilib qo'yilsa, qaratqich kelishigi belgili ishlataladi: ...*ko'proq vaqtি raisning xizmatida o'tadiganga o'xshardi*. (A. Qahhor). Bu gapda umuman rais emas, ma'lum rais ko'zda tutilgani ta'kidlanyapti.

Yoki yuqoridagi qoida bo'yicha yana bir misolni ko'rib chiqamiz:

1. Tergov organlarining jinoyatlarni oldini olish faoliyatini takomillashtirish;
2. Tergov organlarining jinoyatlarning oldini olish faoliyatini takomillashtirish;
3. Tergov organlari tomonidan jinoyatlar oldini olish faoliyatini takomillashtirish.

Bu misollarda biz asosiy e'tiborni *jinoyatlar so'ziga* qaratamiz.

Birinchi gapimizni so'z birikmalariga ajratamiz: 1) oldini olish faoliyatini takomillashtirish, 2) jinoyatlarning oldini olish faoliyati, 3) organlarining jinoyatlarning oldini olish faoliyati, 4) tergov organlari. *Jinoyatlar so'zi oldini olish faoliyati* birikmasiga tobelanadi. *Oldini olish faoliyati so'zidagi -i* egalik affiksi unga



tobelanayotgan *jinoyatlar* so'zining qaratqich kelishigida ekanligini bildirib turibdi. Demak, birinchi variant ya'ni **-ni** tushum kelishigini qo'llash usluban xato. *Jinoyatlarning* so'zi aniq ma'no ifodalayotgani, ya'ni aynan *jinoyatlarni* anglatayotgani, aynan *jinoyatlar* so'zini ta'kidlab kelayotgani va qaralmishning bir necha so'z bilan ifodalanayotganiga asoslanib **-ning** affiksi (qaratqich kelishigi) belgili qo'llaniladi. Bu ikkinchi variant imlo qoidalariiga va uslubiyatga to'liq javob bera oladigan variantdir, deyishimizga asos bo'ladi.

Har bir qonun ishlab chiqilib, tasdiqlanishdan oldin albatta lingvistik ekspertizadan o'tkaziladi. Lingvistik ekspertiza qonunning bayonini ko'rib chiqish va tahlil qilishda "O'zbek tilining asosiy imlo qoidalari" va grammatik qoidalarga tayanadi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi 1995-yil 24-avgustda 339-sonli "O'zbek tilining asosiy imlo qoidalarini tasdiqlash" haqida qaror qabul qilgan bo'lib, u 82 banddan iborat.

Tahrirlash jarayonida mana shu 82 band, 8 bo'limdan iborat qoida talablariga to'liq javob beradigan matn holiga keladi va tasdiqlash uchun tegishli vazirliklarga jo'natiladi.

O'zbek qonunchiligidagi so'zlarning bosh harflar imlosi bilan bog'liq bir necha muammolar ham mavjud. Buni quyidagi misol bilan ko'rib chiqamiz:

1. O'zbekiston Respublikasi Energetika vazirligi
2. O'zbekiston Respublikasi Energetika vaziri
3. O'zbekiston Respublikasi Energetika vazirligi
4. O'zbekiston Respublikasi energetika vaziri

Yuqorida keltirilgan juftliklardan qaysi biri imlo qoidalari talablariga to'liq mos keladi?

Bu masalaga yechim topish uchun biz "O'zbek tilining asosiy imlo qoidalari"ga yuzlanamiz¹.

Ma'lum bo'ladiki, "O'zbekiston Respublikasi Energetika vazirligi / O'zbekiston Respublikasi Energetika vaziri" juftligi

¹ Ramazonov N., Choriyev O. Juristlar uchun o'zbek tilining lotin yozuvidanagi imlo qoidalari: O'quv qo'llanma. – T.: TDYU, 2021. – B. 54.



bosh harflar imlosi nuqtayi nazaridan eng to'g'ri variant hisoblanadi. Ammo lex.uz bazasini ko'zdan kechiradigan bo'lsak, "O'zbekiston Respublikasi Energetika vazirligi / O'zbekiston Respublikasi energetika vaziri" tarzida ishlatilganligiga guvoh bo'lamiz¹. Bu holning kelib chiqishi esa kirill grafikasi qonun-qoidalariiga ko'ra "Ўзбекистон Республикаси Энергетика вазири / Ўзбекистон Республикаси энергетика вазири" tarzida yozish shakli qabul qilinganligidir. Normativ hujjatlar lotin grafikasiga o'tkazilganda faqat harflar lotin yozuviga o'zgaryapti, qoidalalar esa kirill grafikasida qanday bo'lsa, shundayligicha qolib ketmoqda.

Fikrimizni tasdiqlaydigan boshqa misolga murojaat qilaylik. U ham bo'lsa bir hujjatda ikki alifbo qo'llanilgan holatlarning mavjudligidir. Masalan, "Sudyalik lavozimlariga nomzodlarni tayyorlash, sudyalar va sudlar apparati xodimlarini qayta tayyorlash, ularning malakasini oshirish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4096-son qarorning 2-ilovasi (O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi² huzuridagi Sudyalar oliy maktabining tuzilmasi) kirill alifbosida berilgan³. Bu ham asos hujjatning kirill alifbosida tayyorlanib, keyinchalik lotin grafikasiga transliteratsiya qilinganligini ko'rsatadi.

Ushbu holatlarning oldini olish uchun taklif o'rnidagi shuni ta'kidlashni istardikki, ***normativ hujjat avvalo lotin grafikasida tayyorlanishi maqsadga muvofiqdir***, yoki qonun tashabbuskori / ijodkorining yozuv ko'nikmasidan kelib chiqqan holda, qaysi grafikada tayyorlanishidan qat'i nazar, tasdiqlanishi, tarqatilishi va rasmiy lex.uz saytiga joylashtirilishidan oldin o'zbek tilining lotin grafikasiga asoslangan imlo qoidalariiga muvofiq ***lingvistik ekspertizadan o'tkazilishi*** shart.

¹ *Qarang:* <https://lex.uz/docs/-5124086>; <https://lex.uz/docs/-5691402>; <https://lex.uz/ru/docs/-3843065> va b.

² Aslida *Sudyalar Oliy Kengashi* tarzida yozilishi kerak.

³ *Qarang:* <https://www.lex.uz/ru/docs/-4141425>.

DAVLAT TILIDA QONUN IJODKORLIGI:
MUAMMO VA YECHIMLAR



Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 10-fevraldagi 61-son qarori¹ bugungi kunda lingvistik nuqtai nazaridan eng to'g'ri tuzilgan, bexato hujjat namunasi bo'lib turibdi va bu quvonarli hol. Biz ushbu hujjatni etalon sifatida taqdim etishni istar edik. Chunki aynan ushbu hujjat til nuqtai nazaridan mutlaqo bexato tuzilgan, ayniqsa uning 2-ilovasida maqolamiz mavzusi bo'lgan vazir maqomidagi lavozim nomlari to'g'ri yozilgan.

Shu o'rinda anchadan buyon tilshunos mutaxassislarni bezovta qilib kelayotgan, ammo haligacha amalga oshirilmagan bir taklifni ilgari surishni istar edik. Bizningcha, lex.uz bazasiga joylangan va bugungi kunda amalda bo'lgan qonun hujjatlarini to'liq, kerak bo'lsa, moddama modda til nuqtai nazaridan tahlildan o'tkazish zarur. Buning ahamiyati nechog'li katta ekanligini bugungi kunning o'zi yaqqol ko'rsatib turibdi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, davlat tili – o'zbek tilining qonun ijodkorligi bilan bog'liq imkoniyatlari juda keng. Undan to'g'ri foydalanish esa, avvalo, qonunlarning jamiyatning barcha a'zolari uchun tushunarli bo'lishi, tilning taraqqiy etishiga xizmat qiladi.

¹ <https://www.lex.uz/docs/-5281850>.



Nazira Suyunova,
Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti
Gumanitar fanlar fakulteti
O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 3-bosqich talabasi

MAKTAB DARSLIKLARIDA ONA TILI FANINI O'RGANISH

Hammamizga ma'lumki, barcha davlatlarning ta'lif tizimida o'sha millatning tili fan sifatida mavjud. Bundan asosiy ko'zda tutiladigan maqsad shuki, o'sib kelayotgan avlodning milliy tilda o'z fikrlarini to'liq bayon eta olishi va mustaqil fikrlashini shakllantirishdir.

Bizning tilimiz ham fan sifatida darsliklarga kiritilgan va barcha yoshlar shu fanni o'qydi. Shu o'rinda bir savol tug'iladi, Ona tili va adabiyot fanini o'rganishning insonga qanday foydasi bor? Nega uni o'rganishimiz kerak, axir shu tilda tilimiz chiqqan, odatiy turmushimizda keng foydalanamiz-ku? Avvalo, mana shu savollarga javob topa olsak, keyingi fikr-mulohazalarimiz tushunarli va mantiqiy bo'ladi. Ona tilini o'rganish bizga birinchi navbatda, shu tilda fikrimizni to'liq va chiroyli bayon etishimiz, barcha grammatik vositalarni bemalol va o'z o'rnida qo'llay olishimiz, og'zaki, yozma nutqimizning to'g'ri va ravon bo'lishi uchun kerak.

DTSda "Ta'lif muassasalarida ona tilini o'qitishning asosiy maqsadi – o'z fikrini og'zaki va yozma tarzda to'g'ri va ravon bayon qiladigan, kitobxonlik madaniyati shakllangan, mustaqil va ijodiy fikrlaydigan, o'zgalar fikrini anglaydigan – muloqot va nutq madaniyati rivojlangan shaxsni kamol toptirish" degan purma'no qaydlar mavjud. Xo'sh, biz shu maqsadni ta'lif tizimimizda, jamiyatda aks ettira olyapmizmi? Darsliklarimiz shu talabga qanchalik mos?

Ma'lum vaqt davomida chiqarilgan darsliklarimizda grammatikaga diqqat qaratilgan, yozma mashqlar ko'p uchrar edi. Bu o'quvchining fanga qiziqishini so'ndiradi, aytish mumkinki,



shu kitobga, fanga nisbatan zerikishini uyg'otadi. Adabiyot darsliklaridagi asarning o'zidan ham ko'p va tushunarsiz bo'lgan tahlillari esa o'quvchi fikrlarini qafasga solib qo'yardi. Oliy ta'limga tayyorlanayotgan abituriyentlarning yomon ko'rib o'qiydigan qismlariga aylanib ulgurgandi. Kishini quvontiradigan o'zgarishlardan biri shuki, yangi nashrlarning saviyasi ancha yuqori va zamon talablariga mos. N.Mahmudov, A.Sobirov, Sh.Sattorov, Sh.Toshmirzayeva, D.Mannopova muallifligi ostida chiqarilgan 5-sinf uchun ona tili darsligi o'quvchining mustaqil fikrashi, og'zaki va yozma nutqi rivojlanishi uchun keng yo'l ochgani bilan ahamiyatlidir. Darslikda grammatik qoidalar sodda va qisqa bayon etilgan. Grammatik topshiriqlardan ko'ra ko'proq suhbat, munozara uchun mavzular berilgan. Zamonaviy, ya'ni yaqin orada tilimizda paydo bo'lgan, chetdan o'zlashgan so'zlar izohiga urg'u berilgan. Internetdan foydalanish madaniyatini shakllantirishga qaratilgan bir nechta suhbatlar bor. Terminlar mavzusiga o'zgartirish kiritilib, iqtisodiyotga, internetga oid terminlar kabi bo'limlar bilan to'ldirilgan. Albatta, bu – zamon talabi. Mashqlar ham shu mavzuni o'rganish uchun sadda qilib berilgan. Masalan, darslikdagi 104-mashq orqali urg'uning ma'no farqlash vazifasini chuqurroq tushunish mumkin. Unda shunday misollar keltirilgan: "Suzmá (ot, quyuq qatiq) – súzma (fe'l, suvda yoki ovqatni suzish); Tortmá (ot) – tórtma (fe'l); Akadémik (ot) – akademík (sifat); Fízik (ot) – fizík (sifat)". Bunday misollar, albatta, o'quvchining mavzuni oson o'zlashtirishiga imkon beradi. Bundan tashqari mantiqiy fikrash va test ishslash ko'nikmasini shakllantirish uchun matn bo'yicha testlar ham berilgan. Bu usul Baxtiyor Mengliyev, Sharofat Toshmirzayeva, Saodat Atoyeva, Saida Majidova muallifligi asosida nashr ettirilgan 11-sinflar uchun ona tili darsligining II qismida ham qo'llanilgan. Bu darslikda ham axborot-texnologiyaga oid terminlar keltirilgan. Ko'pchilikka notanish, ammo hayotimizga kirib kelgan va ko'p qo'llanilayotgan zamonaviy so'zlar izohi berilgan.



10-11 sinf ona tili darsliklarida asosiy maqsad to'g'ri nutq tuzish, mustaqil fikrlash va lug'aviy, sintaktik vositalardan to'g'ri foydalana olish ko'nigmalarini shakllantirishga qaratilgan. Masalan, 10-sinflar uchun ona tili darsligining II qismida shunday nazariy ma'lumot keltirilgan: "So'zlashuv uslubida -gach qo'shimchasi qo'llanmaydi. Murakkab qo'shma gaplar ko'pincha kitobiy uslublarda qo'llanadi. Bir uslubda unga xoslanmagan so'z, qo'shimcha, gap qurilishlarini qo'llash nutqiy me'yor emas". Bular to'g'ri, izchil, mazmunli nutq tuzishda qo'l keladi.

Testlarda g'alizliklar, kitobda imloviy xatolar mavjud, bularni keyingi nashrlarda tuzatish imkonи bor. Ammo bundagi yutuq eshitish, gapirish, yozish, o'qish ko'nigmalarini rivojlanitura oladigan kitoblar nashrinining yo'lga qo'yilganidir. Aytish mumkinki, ushbu darsliklarni mukammal o'rganib, ya'ni maktabda yaxshi o'qib, DTM testlaridan ijobjiy natijaga erishish va repetitorlarsiz OTM talabasi bo'lish imkonи oshgan.

Yangi darsliklardagi o'zgarishlar o'quvchilarning dogmatik fikrlamasligiga, faqat grammatika bilan cheklanib qolmasligiga yo'l ochadi. Bu, albatta, ijobjiy o'zgarish. Bu orqali DTSda ko'rsatilgan maqsadga osonroq erishish mumkin. Bunday soddalik boshqa fanlarga ham joriy etilsa, nur ustiga a'lo nur bo'ladi. Endi bunday darsliklardan dars o'ta oladigan, zamonaviy terminlarni tushunadigan, intellekti yuqori o'qituvchilar zamon talabi hisoblanadi. Chunki kishi to'g'ri yo'lni o'qituvchilar orqali ko'radi.

O'zbek tiliga e'tibor faqat tadbirlar va uzundan-uzoq ma'ruzalarda emas, amaliy suratga ham ko'chib, darsliklarda aks etgani barcha uchun ayni muddao. Zero, tafakkur til orqali namoyon bo'ladi va til orqali rivojlanadi. O'zbek tili millatimizing tafakkur tilidir. Unga bee'tibor bo'lish yaxshi natijalarga olib kelmasligiga tarix guvoh.

S.Turdiyev,

Toshkent davlat yuridik universiteti,
Jinoiy odil sudlov fakulteti 2-kurs talabasi

TIL – MILLAT KO‘ZGUSI

Til - qalbning qoni. Uning vositasida
tushunamiz va tushuntiramiz.

Oliver Vendell Xolms

Bu dunyoda biror-bir millat borki, har biri o‘z tili, urf-odatlari, an’analari va madaniyatiga ega. Aynan shu omillar millatni alohida millat sifatida e’tirof etish uchun asos bo’ladi. Ular orasida eng ahamiyatlisi bu, shubhasiz, tildir. Chunki, aynan millatning tili dunyoda shunday millat bor ekanligi bildirib turadi. Va millatning qolgan o‘ziga xos an’ana, urf-odatlar va madaniyati ham o’sha millat tili bilan uzviy bog’liqdir. Misol uchun, ba’zi millatlarda shunday urf-odat va an’analar borki, ularning ma’nosini boshqa tilda aynan ifodalashning iloji yo’q. Ya’ni, har bir millatning o‘ziga xos an’ana yoki urf-odatini ifodalaydigan birdan-bir vosita bu shu millat tilidir. Statistik ma’lumotlarga qaraganda, bugungi kunda, shevalarni ham qo’shib hisoblaganda, dunyoda yetti mingdan ortiq jonli til mavjud. Mazkur tillar orasida o‘zbek tilining ham borligi bu quvonarli, albatta. Chunki, dunyoda ba’zi millatlar borki, aslida, ular alohida millat, lekin o‘z milliy tiliga ega emas. Ularning ko‘pchligi kuchli davlatlar tomonidan mustamlaka qilingan davrda o‘z tillarini unutishgan yoki uning sofligini saqlab qola olishmagan. O‘zbek xalqi esa, 150 yillik rus mustamlakasi davrida o‘zbek tiliga qarshi olib borilgan siyosatga qaramasdan, o‘z tilinig sofligini kerakli darajada saqlab qoldi va istiqlol davri avlodlarigacha yetkazib bera oldi. Bu ham bir katta yutuq, albatta.

1989-yil o‘zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi o‘zbek xalqi tomonidan juda katta xursandchilik bilan kutib olindi.



“Davlat tili to‘g‘risida”gi Qonun qabul qilinib, davlat tili bilan bog‘liq huquqiy asoslar o‘rnatildi. Davlat organlarida barcha ishlar o‘zbek tilida yuritila boshlandi. Va, nihoyat, xalqimiz o‘z ona tilida erkin gapirishdek orzusiga erishdi. Maktabgacha ta’lim muassasalari, mакtab va oliy ta’lim muassasalaridan o‘zbek tili chuqurlashtirilgan holda o‘qita boshlandi. Bundan tashqari, o‘zbek tili va adabiyotiga qo‘sган hissasi uchun ijodkor qizlarni “Zulfiya” mukofoti bilan taqdirlash tizimining joriy etilishi ham milliy tilimiz rivojida muhim ahamiyat kasb etdi.

Yaqin yillarda ham davlat tilini rivojlantirishga doir bir qator muhim ishlar amalga oshirildi. Jumladan, o‘zbek tilida ham jahonning mashhur tillarida bo‘lgani kabi tilni bilish darajasini aniqlaydigan tizim yaratildi va yo‘lga qo‘yildi. Kamchiliklarga qaramasdan, mazkur tizim o‘zbek tilida nafaqat grammatika balki, qolgan ko‘nikmalarni ham rivojlantirishga katta hissa qo‘shamoqda.

Shunindek, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining tashkil etilib, o‘zbek tilining tarixiy ildizlarini chuqur o‘rganish, uni ilmiy asosda har tomonlama rivojlantirish va qo’llanish doirasini kengaytirish, filolog kadrlar tayyorlash borasida keng qamrovli ishlar yo‘lga qo‘yildi. 2020-yil 10-aprelda qabul qilingan “O‘zbek tili bayrami kunini belgilash to‘g‘risida”gi Qonunga muvofiq 21-oktyabr O‘zbek tili bayrami kuni etib belgilanishi o‘zbek tilini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratiloyotganidan dalolat beradi.

Ko‘plab yutuqlarga erishishimiz o‘laroq, til borasida og‘riqli nuqtalarimiz va o‘z yechimi kutayotgan muammolarimiz bisyor. Ularning ba’zi birlarini atroflicha ko‘rib chiqamiz.

Biz yashayotgan asrda axborot-texnologiyalar va globallashuv shu darajada kuchaydiki, deyarli har kuni xorijiy tillardan o‘zbek tiliga so‘z kirib kelmoqda. Bu jarayon chetdan qaragada uncha muhim bo‘lib ko‘rimmasligi mumkin. Lekin, bu bora-bora tilning yo‘q bo‘lib ketish bosqichigacha olib boradigan, millatimiz uchun o‘ta xavfli jarayondir. Ayniqsa,



XXI asrdan boshlab chetdan xorijiy so'zlarning kirib kelib o'zbek tiliga o'zlashtirilishi darajasi shunchalik kuchaydiki, o'z tilimizda o'sha so'zlar mavjud bo'la turib, uning chetdan kirib kelgan variantini qo'llash holatlari xalqimiz orasida ko'p uchramoqda. Masalan, o'zbek tilining izohli lug'atiga ko'ra, biz kundalik hayotda ko'p qo'llaydigan "metod" so'zi, aslida "usul", uslub", "agressiya" so'zi "tajovuzkorlik", "universal" so'zi "keng qamrovli" degan ma'nolarni anglatadi. Bunaqa misollar anchagina. Bu nimadan dalolat beradi? Bu o'zbek tilida juda ko'p so'zlar yo'qolib ketish yoki real hayotda o'z ahamiyatini yo'qotish xavfi mavjudligini anglatadi. Agarda, chetdan kirib kelayotgan so'zlarning millat tiliga tahdidi uncha yuqori bo'limganda edi, ba'zi mamlakatlarda aynan chetdan kirib kelayotgan so'zlarni milliy tildagi muqobil variantini topish va o'sha so'zning qo'llanilishini ta'minlash bilan shug'ullanadigan alohida tuzilmalar tashkil etilmas edi. Misol uchun, Turkiyada maxsus bir organ aynan shu masala bilan shug'ullanadi. Biz jahonning ko'plab tillarida, shu jumladan o'zbek tilida ham qo'llaydigan "aeroport" so'zi, turk tilining xususiyatlaridan kelib chiqib, turk tiliga "havalimani" tarzida qabul qilingan. O'zbekiston Respublikasida ham 1989-yil o'zbek tiliga davlat tili maqomi berilganidan keyin mazkur amaliyot ona tilimizga nisbatan ham qo'llab ko'rildi. Jumladan, Vazirlar Mahkamasi huzurida dastlab, Odil Yoqubov rahbarlik qilgan Atamalar qo'mitasi tashkil etilib, bir qancha xorijiy so'zlarning o'zbekona muqobil variantlari topishga doir ishlar olib borildi. Misol uchun, "avtobus" "ko'pkursi", "samolyot" "uchxoq", "aeroport" so'zi esa "tayyoragoh" tarzida o'zbek tiliga qabul qilindi. Lekin, afsuski, bu amaliyot o'zini oqlamaganligi sababli qo'mita faoliyati 2004-yilda tugatildi. Bu holat ko'p jihatdan, rus mustamlakasi davrida o'zbek tiliga rus tilining ta'siri va ko'plab millat va elat vakillari ko'chirib keltirilishi natijasida etnik va lingvistik tarkibning kengayishi bilan bog'liq bo'ldi. Chetdan kirib kelayotgan so'zlarning o'zbekona muqobilini topish uchun



nafaqat o'zbek tili va o'sha til hamda o'sha so'zning shakllanish tarixini ham chuqurroq bilish zarur.

Hozirgi vaqtida Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Atamalar komissiyasi va Davlat tilini rivojlantirish departamenti mavjud. Ularning asosiy vazifalaridan biri "zamonaviy atamalarning o'zbekona muqobillarini yaratish va bir xilda qo'llanilishini ta'minlash". Lekin, ma'lum bir obyektiv va subyektiv omillar sabab amalda sezilarli natijalar ko'rinxayapti. Buning sabablaridan biri globallashuv natijasida kirib kelayotgan so'zlarning ko'pligidir. Qolaversa, mazkur muammoni yechish, faqatgina bitta organ yoki tuzilma doirasida emas, balki butun jamiyat ishtiroki talab etiladigan masaladir. Masalan, bir nechta xorijiy tillarni va davlat tilini chuqurroq biladigan mutaxassislar ko'magidan foydalanishimiz kerak. Shuningdek, mas'ul organlar tomonidan xorijdan kirib kelayotgan so'zlar ro'yxatini shakllantirish va mazkur so'zлarni o'zbeklashtirish yuzasidan turli ommaviy tanlovlardan e'lon qilsa bo'ladi. Agar maxsus ekspertiza va komissiya xulosalaridan o'tgan va eng maqbul deb topilgan har bir o'zbeklashtirilgan so'z iste'molga kiritilsa va tanlov g'oliblar munosib taqdirlansa yuqori samaradorlikka erishish mumkin bo'ladi.

Hozirgi kundagi muammolarimizdan yana biri bu o'zbek adabiy tili qo'llanilishi kerak bo'lgan joylarda o'zbek adabiy tiliga qo'shib, sheva yoki ko'chaga xos so'zlar ham ishlatalayapti. Misol uchun, milliy telekanallarimizda uzatilayotgan ba'zi bir ko'rsatuvlarda o'zbek adabiy tilini buzib gapirish holatlari ko'p uchramoqda. Bunday holatlar o'zbek tiliga nisbatan humatsizlik hisoblanishi bilan bir qatorda ularni kuzatayotgan yosh avlod ongiga ham ta'sir etmasdan qolmayapti. Shu bilan birga xalqimiz orasida o'zbek adabiy tiliga bo'lgan hurmat ruhining pasayishiga olib kelmoqda. Buning oldini olish uchun, albatta, davlat tilini hurmat qilishning huquqiy kafolatlarini oshirish zarur. Misol uchun, Ozarbayjon tajribasiga qaraydigan bo'lsak, Ozarbayjon Respublikasining "Davlat tili to'g'risida" gi Qonunda "har bir



Ozarbayjon fuqarosi davlat tilini bilishi shart" ekanligi belgilab qo'yilgan. Ozarbajjonda davlat xizmatchilari, jurnalistlardan tortib oddiy fuqarolargacha davlat tilini bilish majburiy sanaladi. Natijada, bu davlatda shunday ajoyib an'ana odat tusiga kirganki, har bir ota-onha millatidan qati'y nazar o'z farzandini ozarbajjon tilida ta'lim beriladigan maktabga yetaklab borishadi. Milliy tillaridan davlat tilini ustun qo'yishadi.

Bugungi kunda yurtimizda xorijiy tillarni o'rganishga keng imkoniyatlar yaratilmoqda. Oxirgi yillarda jahon tili, ingliz tilini o'rganishga bo'lgan e'tiborning kuchayishi va ingliz tilini biladigan o'zbeklar soni kundan-kunga ko'payib bormoqda. Bir nechta tillarni chuqur biladigan vatandoshlarimiz ham anchani tashkil etadi. Bu yutuqlar kishini xursand qiladi, albatta. Biroq, bir nechta xorijiy tillarni chuqur o'rgangan ba'zi bir insonlar o'z tillarini unutib yuborishmoqda. Muloqotda ham o'zbek tilidan emas, xorijiy tillardan foydalanishmoqda. Mashhur dog'istonlik yozuvchi Rasul Gamzatov bir asarida shunday eslaydi: "Bir yigit xorijga, Fransiyaga o'qishga ketib, qaytib kelmaydi. Uni intiqib kutgan onaizor Fransiyaga borib kelgan hamqishlog'idan og'li haqida so'raydi.

- O'g'lim bilan ko'rishdingizmi?
- Ha.
- Siz bilan qaysi tilda gaplashdi?
- Fransuz tilida.
- Unda u mening o'glim emas!"

Mazkur vaziyatda yigit Fransiyada o'z ona tilidan chet tilini ustun qo'yanligi uchun oq bo'ldi. O'z yurtida turib, o'z tilidan xorijiy tilni ustun qo'yayotganlarni, milliy tilini unutayotganlarni nima deb atash mumkin? Yetar, o'z tilimizni qadrsizlantirishni to'xtataylik. Shunday muhit yarataylikki, O'zbekistondagi har bir inson o'zbek tilini o'rganishga intilishsin. Biz xorijga sayohatga boradigan bo'lsak, o'sha davlat tilini o'rganganimiz kabi xorijdan kelayotgan sayyoohlар ham o'zbek tilini o'rganib kelishga harakat qilishsin. Buning uchun nima qilish kerak? Buning uchun, avvalo,

DAVLAT TILIDA QONUN IJODKORLIGI:
MUAMMO VA YECHIMLAR



biz o'zimiz tilimizni hurmat qilishimiz kerak. Shundan keyingina boshqalar ham o'zbek tilini hurmat qila boshlaydi.

Bundan tashqari, o'zbek tilini o'rghanishga doir sodda grammatik, leksik, o'qib tushunish va tinglab tushunish ko'nikmalarini rivojlantiruvchi qulay usul va uslublarni o'z ichiga olgan dastur va loyihalar deyarli mavjud emas. Nima uchun, ko'p xorijiy davlat fuqarolari ingliz, rus, koreys, fransuz va nemis tillarni o'rghanishadi? Bu bir tarafdan ularning mashhurligi bilan bo'g'liq bo'lsa, ikkinchi tarafdan ularni o'rghanishga doir tizimli yuqori saviyadagi dastur va kitoblarning ko'pligida. Agar biz milliy tilimiz boshqa til vakillari tomonidan o'rghanilishini istasak, o'zbek va boshqa jahonning mashhur tillarida o'zbek tilini sodda va tizimli o'rgatadigan dasturlar ishlab chiqishimiz va ularni elektron shaklga o'tkazib, internet tarmog'iga joylashimiz kerak bo'ladi.

Yanabir muammolardan birbu alifbo masalasi. Mustaqillikdan ko'p o'tmay, 1993-yil 2-sentabrda O'zbekiston Respublikasining 931-XII son Qonuni bilan lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosi joriy etilidi. Biroq, oradan o'tgan, salkam, 30 yillik davr mobaynida krill yozuviga asoslangan o'zbek alifbosi amalda ustunlik mavqeyini saqlab keldi. Bu davrda yaratilgan va nashr etilgan kitob va adabiyotlarning katta qismi ham krill alifbosida. Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini yoyish borasida bir qator ishlar amalga oshirildi. Jumladan, biz mazkur alifboda ta'lim olgan yangi avlodni shakllantirishga erishdik. Mazkur alifboda nashr etilgan kitoblardan iborat kattagina kutubxonaga ega bo'ldik. Endigina, mazkur alifboga sekin-sekin ko'nika boshladik degan paytda alifbodagi bir nechta harflarning shaklini o'zgartish haqida takliflar chiqqani, ko'ngilni xira qiladi. Qani, bu yerda mantiq. Axir, hozir biz alifboni yana o'zgartirsak, unga moslashgunimizcha yana yillab vaqt ketadi. Qolaversa, hozirgi alifboda shakllangan kutubxonani ham tom ma'noda o'limiga sabab bo'lmaymizi? Jahonning bir mamlkatida olimlar tilning alifbodagi shakli bilan talaffuzdagi shakli keskin farq qilishi

DAVLAT TILIDA QONUN IJODKORLIGI:
MUAMMO VA YECHIMLAR



sabab yig'ilishib, alifboni isloh qilishmoqchi bo'lishibdi. Uzoq tortishuvlardan keyin tilning yozuvdagi va talaffuzidagi tavofutga qaramay alifbo o'z holicha qoldirilibdi. Nega deyishganda, sababi eski alifboda yaratilgan kitoblarni "zabonsiz" bitiklarga aylanib qolishning oldini olish uchunligi aytilibdi. Bu til jahoning mashhur tillaridan biri ingliz tili edi.

Mashhur jadidshunos o'zbek yozuvchisi, Cho'lpon "adabiyot yashasa, millat yashaydi" degan juda ma'noli so'zlarni aytib o'tgan. Shu o'rinda savol tug'iladi: "adabiyot qanday yashaydi?" Adabiyot til yordami ila mavjud. Til bo'lmasa, adabiyot yashamaydi. Adabiyot o'limi degani bu millat halokati demakdir. Qiyoslash mumkin bo'lsa, tili yo'q millat bu jonsiz tanaga o'xshaydi. Chunki, milliy tili bo'lmanagan millat qachondir halokatga uchraydi. Millatimizni taraqqiy ettirish ham uning halokatiga sabab bo'lish ham o'z qo'limizda.

Farangiz Eshturdiyeva,
Toshkent davlat yuridik universiteti
Ommaviy huquq fakulteti 3-kurs talabasi
farangizbahodirovna@gmail.com

HUQUQ VA TIL MUNOSABATI

Nima uchun ko'cha harakati qoidalarini buzgan kishiga
militsiya hushtak chaladi-yu, butun bir tilni buzayotgan
odamlarga hech kim hushtak chalmaydi.

Abdulla Qahhor

Annotatsiya. Ushbu maqolada bevosita tilning jamiyatdagi o'rni huquq bilan bog'langan holda yoritib beriladi. Shuningdek, til va huquqning o'zaro munosabatlaridagi rivojlanish uchun qilingan, qilinayotgan va qilinishi kerak bo'lgan asosiy masalalar haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: davlat tili, qonun, huquq, farmon, normativ-huquqiy hujjat, til siyosati, monitoring.

Аннотация. Эта статья напрямую иллюстрирует роль языка в обществе по отношению к праву. В нем также обсуждаются ключевые вопросы, которые были сделаны, выполняются и должны быть выполнены для развития отношений между языком и правом.

Abstract. This article directly illustrates the role of language in society relating to law. It also discusses the key issues that have been done, are being done and should be done for the development of the relationship between language and law.

Til – millatning ko'zgusi bo'lib, unda tarix - o'tmish va kelajak jonlanadi. Ma'lumki, eng katta xiyonat e'tiqodga bo'lgan xiyonatdir. Bizning e'tiqodimizning uzviy bir jihatni ham tilimizga

DAVLAT TILIDA QONUN IJODKORLIGI:
MUAMMO VA YECHIMLAR



bo'lgan e'tiborimiz bilandir. Ona tilimiz yurtimizdagi qadim va muqaddas, mo'jizaviy buloqlardek toza va musaffo, iste'molga doim yaroqli bo'lishi shart. Uning ichki imkoniyatlari cheksiz va mislsizdir. Ona tilimizning tabiiyligi uchun kurashish, og'zaki va yozma nutqda til me'yorlariga rioya qilish, uning tarovatini saqlab qolish barchamizning eng muqaddas va sharafli burchimizdir.

O'tgan davr mobaynida ona tilimizning mavqeini oshirish, sofligini saqlash, yo'qolib ketgan so'zlarni qayta tiklash, bu boradagi qonunchiligidan ma'no-mazmunini yosh avlod ongiga singdirish yo'lida ulkan ishlar amalga oshirildi. 1989-yil 21-oktyabr kuni qabul qilingan "Davlat tili to'g'risida"gi Qonun hamda mamlakatimizning Asosiy qonuni — Konstitusiyamizning o'zbek tilida yaratilishi tom ma'noda, uning nufuzini yuksaltirdi. "Davlat tili haqida"gi Qonun bilan o'zbek tiliga davlat tili maqomi berilishi O'zbekistonning mustaqillik sari qo'ygan ilk tamal toshi bo'ldi. Markazda va joylarda ushbu Qonunning amalga oshirilishi bo'yicha muvofiqlashtiruvchi komissiyalar tuzilib, qonunlar va boshqa normativ-huquqiy hujjalarning davlat tilida e'lon qilinishi, davlat boshqaruvi organlari, muassasalar, tashkilotlar va jamoat birlashmalarining muhrlari davlat tilida yuritilishi, respublikaning ma'muriy hududiy birliklari, maydonlari, ko'chalari va geografik ob'yektlarning nomlari davlat tilida aks ettirilishi ta'minlangan. Yana bir yutug'imiz shundaki, targ'ibotlar natijasida jamiyatimiz a'zolarining tilga bo'lgan munosabati o'zgarib, til madaniyati yuksalib boryapti. Shundan so'ng "O'zbekiston Respublikasining davlat tili haqida"gi Qonuniga o'zgartish va qo'shimchalar kiritib, uning yangi tahriri tasdiqlandi. Eng muhimi, ushbu qonun ko'p millatli xalqimiz manfaatlarini ko'zlagan holda bosqichma-bosqich amalga kiritildi va boshqa millat vakillarining davlat tilini o'rganishlari uchun barcha shart-sharoitlar yaratib berildi.

Lekin shuni tan olishimiz kerakki, yuqoridagi harakatlar orqali tilimizni mavqeyi nisbatan oshgan, tilimiz qonun bilan himoyalangan, ammo muammolarimiz hali ko'p. Ba'zilar: "O'zbek



tili haqida shuncha jon kuydirsangizlar ham nega uning qadri baland emas? Boshqa millatlar tiliga bunchalik qayg'urishmaydi-ku?" kabi savollar beradi. Bunga menda ikki xil javob bor: Avvalo, o'zbek tilidagi ta'lif sifati yetarli emas (Xalq ta'limi ayblashdan holiman), bu haqiqat. Qolaversa, o'zbek tili davlat tili sifatida majburiy tarzda mamlakatning yuridik, biznes va ilm manbalari tili maqomiga ega bo'lmash ekan, uning qadri o'smaydi. Ya'ni, O'zbekistonda har qanday shaxs yaxshi yashash va tirikchilik uchun o'zbek tilini o'r ganishi zarurligini o'ziga shart deb qabul qilishi kerak. Muammo shundaki, bunga haligacha kirishmadik (axir, oradan 31 yil o'tyapti)... [Umidjon Jabborov. "Til nomusi" ni qachon his qilamiz?]

Tilimiz, xususan davlat tili haqida gaplashar ekanmiz, uni asrash, hurmat qilish har bir fuqaroning burchi sanaladi deb yuqorida ham ko'p takrorladik. Lekin shu burchni hamma ham birdek his qilib, amal qilyapti deysizmi? Menimcha, ana shunday holatlarda aynan til va huquq munosabatlari yaqqol namoyon bo'lsa kerak deb o'ylayman. Har birimiz kundalik hayotimizda joy nomlarini atash, nom berish masalalarida ayrim qo'pol xatolar, xalqimiz qadriyatlariga mos bo'limgan atamalar, joy nomlarini uchratamiz, bu sir emas, albatta. Bularni ko'rib ko'ngil xira tortadi. Masalan, turli kafelar, oshxonalar, kiyim-kechak va savdo do'konlariagi reklama roliklarida, fitnes, kompyuter klublari singari aholi to'planadigan joylarning nomlari tilimizga yot bo'lgan atamalar bilan nomlanmoqda. Odamlarimiz orasida ona tilidagi nutqiy madaniyat ko'nikmalari yetarli darajada bo'limganlar ko'plab topiladi. Bunday salbiy holatlarni, davlat tiliga, o'z ona tiliga napisandlikni hech narsa bilan oqlab bo'lmaydi. Shu joyida Abdulla Qahhorning quyidagi gaplarini eslab o'tish joiz: " Nima uchun ko'cha harakati qoidallarini buzgan kishiga militsiya hushtak chaladi-yu, butun bir tilni buzayotgan odamlarga hech kim hushtak chalmaydi". To'g'ri, bu adibimiz yashab, ijod qilgan davr boshqa, bizda hozir o'zgarishlar ko'p deyishimiz mumkin. Misol uchun, O'zbekiston Respublikasi



Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 42-moddasida, xususan, "Davlat tili to'g'risida"gi Qonunning 24-moddasida davlat tili to'g'risidagi qonun hujjatlari qoidalarini buzganlik - O'zbekiston Respublikasida davlat tiliga yoki boshqa tillarga mensimay yoki xusumat bilan qarash, shuningdek fuqarolarning ta'lim va tarbiya berishda tilni erkin tanlashdan iborathuquqlarini buzish, tildan foydalanishda to'sqinlik qilganlik uchun ma'muriy javobgarlik belgilangan. Lekin hamma holatlarda ham normadagi dispozitsiya orqali javobgarlikka torta olmaymiz, aynan hushtak chalmaymiz. Shu sababli, til va huquq o'rtasida munosabat bevosita insonlarning ongi yanada aniqroq qilib aystsak, huquqiy ong va madaniyatini yuksaltirish kerakligiga borib taqaladi, albatta. Bu yo'lda ko'plab ishlar amalga oshirilmoqda, nasib, yaqin kelajakda yuksak natijalarga erishishga ham ishonamiz va bu yo'lda tinimsiz harakat olib boramiz.

Bo'lajak huquqshunos sifatida aytishimiz joizki, baridan avval, amaldagi «Davlat tili haqida»gi qonunni milliy manfaatlarimiz va mamlakat nufuzini ko'zlab takomillashtirish zarur. Bu haqida bir yil oldin «O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida» Prezident farmonida ham qayd etilgan edi. Haqiqatan, amaldagi Qonun moddalariga e'tibor qaratilsa, majburiyat qoidalaridagi "davlat tilida, shuningdek, boshqa tillarda ham..." iborasi o'zbek tilining haqiqiy maqomi mantiqiy soyada qolib ketganini ko'rsatgandek. Davlat tili o'zbek tili bo'lgach, ustun jihatlar ham bo'lishi shart. Harqalay, qardosh xalqlar - tojik, qirg'iz, qozoq va turkman davlatining shu qonunlarida bu ustun jihat aniq ifoda etilgan.

Albatta, qonunchilik jarayoni, ya'ni normativ-huquqiy hujjatlar loyihiilarini ishlab chiqish va qabul qilish jarayonlarida o'zbek tili imkoniyatlaridan foydalanish borasida muayyan kamchilik va xatoliklar uchrab turadi. Ko'p holatlarda fuqarolarimiz tomonidan qonunlar tushunarsiz tilda yozilgani va uni tushuna olmayotganliklarini ma'lum qilinadi. Amaliyotda ayrim holatlarda jamoatchilik muhokamasiga

DAVLAT TILIDA QONUN IJODKORLIGI:
MUAMMO VA YECHIMLAR



normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini ishlab chiquvchilar tomonidan loyihalarning davlat tilidagi matnini qo'ymaslik holatlari ham mavjud edi. Shu sababli jamoatchilikda "bizda qonunlar dastlab boshqa tilda yozilib so'ngra o'zbek tiliga tarjima qilinadi"- degan tushunchalar shakllanishiga olib keldi. Bildirilayotgan e'tirozlarni inkor etmagan holda aytish kerakki, hozirda parlament faoliyatida davlat tilini rivojlantirish, davlat tili to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishi ustidan monitoringni amalga oshirish masalalari eng ustuvor vazifa hisoblanadi. Bugungi kunda Qonunchilik palatasida ikkinchi o'qishga tayyorlanayotgan "Normativ huquqiy hujjatlar to'g'risida"gi yangi qonun loyihasida qonun hujjatlari loyihalari davlat tilida tayyorlanishi mustahkamlanmoqda. Shuningdek, tayyorlangan normativ-huquqiy hujjat loyihasi ushbu hujjatni qabul qilish huquqiga ega bo'lgan organga davlat tilida kiritilishi hamda davlat tilida qabul qilinishi nazarda tutilmoxda. Zaruriyat bo'lgan hollarda normativ-huquqiy hujjatning boshqa tillarga tarjimasi bilan qabul qilinadi. Davlat tilidagi normativ-huquqiy hujjat matni bilan uning boshqa tildagi matni o'rtasida tafovut bo'lgan taqdirda, normativ-huquqiy hujjatning davlat tilidagi matni qo'llanilishi kafolatlanmoqda.

Bundan tashqari ham tilimizni nufuzini yanada oshirish uchun kengroq ishlar olib boorish kerak, albatta! Xo'sh, bugun tilimiz nufuzini oshirish va uni targ'ib qilish uchun nimalar qilish kerak? Barcha sohalarda o'zbek tilidan to'laqonli foydalanish, lotin yozuviga asoslangan alifboni takomillashtirish va boshqa millat vakillarining til o'rganishi uchun qanday jihatlarga e'tibor qaratish lozim?

· Birinchidan, jahon adabiyoti durdonalarini o'zbek tiliga hamda o'zbek adabiyotining sara namunalarini chet tillarga tarjima qilish va nashr etish, bu yo'naliishda shakllangan ijodiy maktablarni rivojlantirish zarur.

· Ikkinchidan, xorijda istiqomat qiluvchi vatandoshlar va o'zbek tilini o'rganish istagida bo'lgan chet el fuqarolari uchun



o'zbek tili darsliklari, elektron dasturlarni ishlab chiqish va keng miqyosda tarqatish masalasiga e'tiborni yanada kuchaytirish lozim.

· Uchinchidan, o'zbek tilining jahon maydonida, xususan, Internet axborot tarmog'ida munosib o'rin egallashini ta'minlash, ona tilimizda ko'plab yangi kompyuter dasturlarini yaratish bo'yicha keng ko'lamli chora-tadbirlarni amalga oshirish darkor.

· To'rtinchidan, mamlakatimizda istiqomat qiladigan barcha millat va elatlar tillarini rivojlantirish maqsadida keng va teng imkoniyatlar hamda ularga davlat tilini o'rganish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish har qachongidan ham muhimroq.

Yana shuni ham aytib o'tish joizki, Prezidentimiz tomonidan joriy yil 20-oktyabr kuni imzolangan "Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmon o'zbek tilining xalqimiz ijtimoiy hayotida va xalqaro miqyosdagi obro'-e'tiborini tubdan oshirishga qaratilgan muhim hujjat bo'ldi. Unga binoan, mamlakatimizda davlat tilini to'laqonli joriy etishni ta'minlash, O'zbekistondagi millat va elatlarning tillarini saqlash va rivojlantirish, davlat tili sifatida o'zbek tilini o'rganish uchun shart-sharoitlar yaratish, til siyosatini rivojlantirishning strategik maqsadlari, ustuvor yo'nalish va istiqboldagi vazifalar belgilandi. Farmonga muvofiq, 2020 – 2030-yillarda o'zbek tilini rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish konsepsiyasining tashkil etilgani shubhasiz, ta'lim tashkilotlarida davlat tilini o'qitish tizimini yanada takomillashtirish, ayniqsa, davlat tilining sofligini saqlash, uni boyitib borish va aholining nutq madaniyatini oshirishga xizmat qiladi.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, tilimizning chinakam davlat tiliga aylanishi qonun yoki farmon chiqarilganligiga emas, ana shunga tayanib ish olib boradigan odamlarning amaliy faoliyatiga bog'liqligidir. Bundan ham avval, kattami-kichikmi, har bir korxona va tashkilot rahbarining millatparvarligiga bog'liq. Misol uchun, Ona xalqim degan har bir o'zbek rahbari

DAVLAT TILIDA QONUN IJODKORLIGI:
MUAMMO VA YECHIMLAR



Davlat tili to'g'risidagi qonunga loqayd qaray olmaydi. O'z tashkilotida uni ro'yobga chiqarishga intilmagan rahbarning xalqparvarligiga ishonch yo'q. Muxtasar aytganda, til faqat rasmiy hujjatlar, balandparvoz shiorlar bilan yuksalib qolmaydi. Har bir tashkilot, o'zini shu yurt taqdiriga daxldor deb bilgan har bir inson tilimiz nufuzi, obro'-e'tibori uchun kurashishi kerak. Uning kelajakda yanada yuksak mavqe va obro'-e'tibor qozonishiga hissa qo'shish nafaqat vazifamiz, balki har birimizning insoniy burchimizdir.

Foydalaniqan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi – T.: O'zbekiston, 2019. – 76 b.
2. O'zbekiston Respublikasining “ Davlat tili haqida”gi Qonunga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida”gi 1995-yil 21-dekabrdagi 167-1 sonli Qonuni
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “ O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish choratadbirlari to'g'risida”gi 2019-yil 29-oktabrdagi 5850-sonli farmoni
4. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – T.: “O'zbekiston”, 2017. -32 b.
5. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. – T.: “O'zbekiston”, 2017. – 32 b.

Odilbek Irisqulov,

Toshkent davlat yuridik universiteti

Xalqaro huquq va qiyosiy huquqshunoslik fakulteti

3-kurs talabasi

YURIDIK LINGVISTIKA: KECHA-BUGUN-ERTAGA

Yurislingvistika

Ko'pchilik, ehtimol, bu so'zni oldin eshitmagan bo'lishi mumkin. Yuridik-lingvistika - jamiyatda o'rnatilayotgan huquq normalari, qonun hujjatlarida til qonun-qoidalariга rioxalish, hujjatlarning til qoidalari doirasidan chiqmagan holda imkon qadar xalqchil bo'lishini ta'minlashga qaratilgan huquqshunoslik bo'limi. Boshqacha qilib aytganda, uridik-lingvistika huquqshunoslik va tilshunoslik kesishmasidan iborat mustaqil soha. Ushbu onlayn konferensiyaning tub mohiyati ham aslida shu sohani rivojlantirishga qaratilgan. Yurtimizda yuridik-lingvistikaga shu paytgacha bo'lgan e'tibor, hozirgi ko'rinishi va kelgusida hal qilinishi kerak bo'lgan masalalarni batafsil yoritish uchun ushbu maqolani, muvofiq ravishda, "kecha", "bugun", "ertaga" deb nomlangan uchta bo'limdan tashkil etishni lozim deb topdim.

Kecha

Tan olish kerakki, aynana shu yerda ham tajriba o'z so'zini aytdi. Qariyb yarim asrdan buyon qonunchilik ichida mehnat faoliyatini olib borayotgan Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati, normativ-huquqiy atamalar komissiyasi raisi o'rribbosari F.Ashmatovning qonunlar qabul qilinishi va amalgatatiq etilish jarayonidagi kuzatilgan yuridik terminlar bilan bog'liq muammolar, Vazirlar Mahkamasida qabul qilgan ba'zi qarorlarning qonunchilik hokimiyati qabul qilgan qonunlarga muvofiq kelmay qolganligi haqidagi missollari har o'rinda ham oshkor qilinavermaydigan masalalardan biri bo'ldi. Ayniqsa, ustozning qonunchilik (yuridik) texnikasi haqida bildirgan



fikrlari anchayin asosli bo'ldi. Ustoz ta'kidlab o'tdiki, ko'plab deputatlar, sudyalar, umuman, qonunchilik ichida yurgan shaxslar o'z faoliyati davomida bu jumлага juda ko'p ro'baro' kelishgan va ishlatishgan. Tabiiyki, bu atama juda keng qamrovli bo'lib, o'z ichiga qonun va qonun osti hujjatlari bilan tartibga solingan tartib-taomillar, qonunlar qabul qilinishi va ijrosining asosiy prinsiplari, qonun analogiyasi, huquq analogiyasi – umuman, juda ko'p huquqiy masalalarini o'z ichiga olishi mumkinligi, shu bois qonunchilik vakillari, xususan, deputat va senatorlarning o'zlarini ham qonunchilik texnikasi tushunchasini turfa xil tushunishlarini o'sha soha ichida yurgan shaxs sifatida tan oldilar va qonunchilik (yuridik) texnikasini tartibga soluvchi normativ huquqiy hujjat yoki qonun osti hujjati qabul qilish zaruriyatni borligini aytib o'tdilar.

Mavzu doirasidagi amalda bo'lib kelgan muammolar haqida Oliy Majlis Qonunchilik palatasi devoni lingvistik ekspertiza va tahririyat bo'limi mudiri S.Jurayevanining fikrlari ham anchayin keskin bo'ldi. Hech kimga sir emas, bizda qonunlar, asosan, ikki tilda (o'zbek va rus) chiqariladi. Qonunchilik tashabbuskorlari (O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 83-moddasi) ba'zida o'zlarini olib chiqayotgan normativ huquqqiy hujjatlari uchun boshqarivojlangandavlatlar qonunchiligidan ham foydalananishadi, bu esa o'z navbatida boshqa davlat qonunlarining muayyan qismini tarjima qilish zaruriyatiga olib keladi. Parlamentning bir palatalik davrini ham ko'rgan S.Jurayeva afsus bilan shuni aytdiki, ko'plab normativ huquqiy hujjat loyihalari huquqshunoslikka aloqasi yo'q bo'lgan shaxlar tomonidan tarjima qilinadi (ustoz bu o'rinda loyihalari tarjimonlar tomonidan tarjima qilintirilib olib kelinishidan ranjishini alohida ta'kidlab o'tdi). Vaholangki, loyiha boshqa tillardan tarjima qilinmagan holatda ham loyiha tili ko'p holatlarda huquqshunoslik tiliga tushmasligini va 90% holatlarda qaytadan ko'rib o'zgartirishlar kiritishga to'g'ri kelganligini aytib o'tdilar. Qonunchilik Palatasining vakillari bu achinarli holatlar bayon qilish bilan jamiaytimizda yurist-lingvistlar



yetishmasligini, to'g'riroq qilib aytganda bu soha deyarli mavjud emasligini aytib o'tishib, Toshkent davlat yuridik universitetida "O'zbek tili va adabiyoti" kafedrasi tashkil ekanligidan mamnun ekanliklarini, boshqa oliy ta'lim muassalarini ham muammoga befarq bo'lmasliklari kerakligini aytib o'tishdi.

Shu bilan birga ko'p yilllik tajribaga ega deputatlar o'tmishga nazar solar ekan, mustaqillikning ilk yillari qonunchilik tilining barchaga tushunarli, sodda lo'nda bo'lishida Atamashunoslik qo'mitasi, aniqroq aytganda ushbu qo'mitada faoliyat yuritgan ustoz ijodkorlar A.Oripov, E.Vohidovlarning ko'rsatgan xizmatlari haqida ham chuqur mammuniyat bilan eslab o'tishdi.

Bugun

Endi esa bevosita konferensiya davomida ushbu muammolarni hel qilish uchun olib borilayotgan ishlar ko'lami haqida aytib o'tsak, bu borada qardosh elatlar bilan olib borilayotgan hamkorlik aloqlari alohida tahsinga sazovor. Buning onlayn konferensiyada ham guvohi bo'ldik. Xususan, M.Auezov nomidagi Janubiy Qozog'iston universiteti o'qituvchilari L.Turabayevaning "Omma oldida nutq so'zlashni o'rgatishning lingvistik asoslari" (*Шешендиқ өнерге үйретудің лингвистикалық негіздері*), G.Tanabaevaning "Lotin grafikasidan foydalanish tarixi" (*Латын графикасының қолдану тарихы*), mavzularida tayyorlagan ma'ruzalar, Ozorboyjon Respublikasi Nizomiy Ganjaviy nomidagi adabiyot universiteti vakili A.Binnatovaning "Alisher Navoiy asarlaridagi qonun va hujjatlarni rasmiylashtirishning huquqiy asoslari" (*Әlişir Nəvai yaratıcılığında sənəd və sənədləşmə məsələlərinin hüquqi əsasları*) mavzusida tayyorlagan ma'ruzasi tinglandi, fikrlar almashinildi. To'g'risini aytganda, bu ma'ruzalar biroz umumiyroq ma'lumotlarni o'z ichiga olgan, konferensiya tub markazida yotgan muammadan bir qaraganda yiroqdek tuyulsa-da, anchayin foydali bo'ldi.

Men ayniqsa, Toshkent davlat yuridik universiteti O'zbek tili va adabiyoti kafedrasi professori, ustoz Sh.Ko'chimovning



“O’zbekistonda qonun ijodkorligi va yurislingvistika masalalari” mavzusida qilgan ma’ruzasi, haqiqatda, mavzu mohiyatiga bag’ishlangan, foydali takliflarga boy bo’ldi deb hisoblayman. So’zlari boshida ustoz shuni alohida ta’kidlab o’tdilar: xalqaro miqyosida amalga oshirilgan izlanishlar shuni ko’rsatibdiki, jami dunyo tillari bo'yicha qonun yaratish uchun eng maqbul tillar, asosan, Hind-Yevropa tillar oilasiga kiradigan tillar (ingliz, fransuz, rus, fors va shu qator tillar) hisoblanar ekan. Buni asosiy sababiga to’xtalganlarida, ustoz ushbu tillardagi gaplarda so’zlarning kelish tartibi, ya’ni dastlab gap egasi va to’g’ridan-to’g’ri gap kesimi kelishi (gapning asosiy mazmuni gap kesimida jamlanishi hech kimga sir bo’lmasa kerak), undan keyin boshqa ikkinchi darajali bo’laklarning joylashishini aytib o’tdilar. To’liqroq qilib aytadigan bo’lsak, har qandan huquqiy ahamiyatga ega hujjat tushunarli va lo’nda bo’lishi kerak. Gaplarning tushunarligi aksari holatlarda gap kesimida hal bo’ladi, boshqacha aytganda gapning kesimini o’qimaguncha gap nima haqida ketayotganligini bilish qiyin. Bizning til ham tarkibi bo’lgan turkiy tillar oilasida, sizga ma’lumki, gap kesimi gap oxirida keladi bu esa, tabiiyki, to gap oxirigacha bormaguncha gap nima haqida ketayotganligini tushunishni qiyinlashtiradi. Aynan ma’na shu omil sabab, aksari holatlarda rus manbalaridan o’zlashtirilgan qonunchiligidan tushunishdagi qiyinchiliklar yuzaga chiqadi.

Shu sabab ustoz Sh. Ko’chimov qonun loyihalaring imkon qadar qisqa-qisqa gaplardan tuzish kerakligini taklif sifatida aytib o’tdilar. O’zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksidagi ba’zi moddalar 60 va undan ham ko’proq so’zdan iborat ekanligi, bu moddani o’qiyotgan fuqarolar to gap oxirigacha yetgunicha boshidagi fikr nima haqida ekanligini unitib qo’yishlari bor haqiqat. O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati, normativ-huquqiy atamalar komissiyasidan mas’ullar ishtirok etgan konferensiyada bu kabi takliflar shunchaki gap bo’lib qolmaydi degan umiddamiz.



Ertaga

Doim ertangi kun bugundan boshlangani kabi, konferensiya davomida bildirilgan fikrlar, takliflar, o'ylaymanki, yuridikingvistikaning ertangi ko'rinishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Bu sohaning o'tmishi ayanchli ahvolda bo'lganligi, bugungi ko'rinishida ham yetarlicha xato-kamchiliklar mavjudligi yashirib bo'lmas fakt. Suhbat mavzusini bir ma'noda yangi bo'lgan ushbu sohadagi kamchiliklarni quruq bayon qilishdangina iborat emas, albatta. Onlayn konferensiyaning asosiy diqqat markazida bu muammolarga muqobil yechim ham yotadi. Har qanday yechim boshlanishida taklif ko'rinishida bo'ladi, albatta. Konferensiya esa bu kabi takliflarga to'la bo'ldi.

O'zbek tili va adabiyoti kafedrasi mudiri, onlayn konferensiya moderatori N.Ramazonovning huquqshunoslik oliygochlari, xususan, Toshkent davlat yuridik universitetida boshlanishiga magistratura ta'limga shaklida, keyinchalik bakalavriat ta'linda ham yurislingvistika yo'naliishi tashkil etilishi, bo'lajak yurist kadrlar tayyorlashga ixtisoslashgan OTMlarda "Davlat tilida ish yuritish", "Protsessual hujjatlar tili", "Akademik yuridik yozuv", "Yuristning nutqiy kommunikatsiyasi" fanlarini joriy qilish lozimligi haqidagi fikri, o'ylaymanki, ushbu muammoni hal qilishda asosiy omillardan biri bo'ladi. Ya'ni bu sohada yangi kadrlar avlodini yetkazib beruvchi institut yaratilishi yuridik lingvistikaning ertasi uchun tamal toshi bo'lib xizmat qiladi.

Shuningdek, qonunchilikdagi til masalalariga yanada chuqurroq yondashish uchun huquqshunoslarni tilshunoslik sohasini, filologlarni huquqshunoslik sohasini ikkinchi mutaxassislik sifatida tanlashga chorlash masalasi ham istiqbolli bo'lishidan umidvormiz.

Tabiiyki, bu ba'zi bir tashkiliy, moliyaviy, ilmiy muammolarni, qiyinchiliklarni yuzaga chiqaradi. Afsuski, bu qochib bo'lmas haqiqat. Qaysi bir huquqshunoslik yoki filologiya oliygochlari talabalari yurislingvist yoki lingvisyurist bo'lishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan? Nazarimda, sanoqli ham emas. Ko'pchilik

DAVLAT TILIDA QONUN IJODKORLIGI:
MUAMMO VA YECHIMLAR



talabalar bu atamaning ma'nosiga ham tushunishmaydi. Qonunlarning lo'nda, sodda, bexato, barchaga birdek tushunarli shaklda va formatda chiqarilishi, hech shubhasiz, uning ijrosiga ham o'z ta'sirini ko'rsatadi; shunchaki o'ylab ko'ring, o'zingiz to'liq tushuna olmagan qonun normalariga qanday bo'yusunasiz yoki kafolatlangan huquqlaringizdan qanday foydalanasiz. Bularning barchasi konferensiya diqqat markazida bo'lgan mavzuning: "Davlat tilida qonun ijodkorligi: muammo va yechimlar" naqadar muhim ahamiyatga ega ekanligini isbotlaydi.

To'g'ri, yurislingvistikaning bugungi darajasi takomil va tadrijga muhtoj. Lekin shu kabi ilmiy anjumanlar, mutaxassis hamda mas'ullar ishtirokidagi konferensiyalar, aloqa va fikr almashinuvlar bir kun, albatta, o'z natijasini ko'rsatishiga ishonamiz.

«DAVLAT TILIDA QONUN IJODKORLIGI: MUAMMO VA YECHIMLAR» MAVZUSIDAGI I XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASINING YAKUNIY XULOSALARI (TDYU, 2021-yil 28-oktabr)

2021-yil 28-oktyabr kuni Toshkent davlat yuridik universitetida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi, Muxtor Avezov nomidagi Janubiy Qozog'iston universiteti, Ozarboyjon Fanlar akademiyasi Nizomiy Ganjaviy nomidagi Adabiyot instituti hamda respublikamiz va boshqa xorijiy mamlakatlar olimlari, amaliyotchi mutaxassislari ishtirokida «Davlat tilida qonun ijodkorligi: muammo va yechimlar» mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy onlayn konferensiya bo'lib o'tdi.

Konferensiyada Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati, normativ-huquqiy atamalar komissiyasi raisi Jumanazar Otajonov, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati, normativ-huquqiy atamalar komissiyasi raisi o'rinnbosari Farhod Ashmatov, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi devoni yuridik boshqarmasi katta referenti Tohir Shohnazarov, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi devoni lingvistik ekspertiza va tahririyat bo'limi mudiri Saida Jo'rayeva, TDYU O'zbek tili va adabiyoti kafedrasi professori, filologiya fanlari doktori Shuhrat Ko'chimov, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi kafedra mudiri, yuridik fanlar doktori, dotsent Xushvaqt Xayitovlarning qonun loyihibalarida normativ-huquqiy atamalarning to'g'ri qo'llanilishini ta'minlash, O'zbekistonda qonun ijodkorligi va yurislingvistika masalalari, qonun loyihibalarini yuridik lingvistika ekspertizasidan o'tkazish, yuridik til va terminologiya muammolariga bag'ishlangan ma'ruzalari ishtirokchilarda katta taassurot qoldirdi. Bundan tashqari, Muxtor Avezov nomidagi Janubiy Qozog'iston universiteti professor-o'qituvchilari Lazzat Turabayeva, Gulzira Tanabayeva, Gulzira Utegenovalarning ta'lim jarayonida talabalarni notiqlik



san'atiga o'rgatish, lotin grafikasining qo'llanilish tarixi, o'rta asrlar manbalarida morfologiya masalalalari, Ozarboyjon Fanlar akademiyasi Nizomiy Ganjaviy nomidagi Adabiyot instituti sho"ba mudiri Almaz Binnatovaning Alisher Navoiy asarlarida hujjatchilik masalalarining huquqiy asoslari mavzularidagi ma'ruzalar katta qiziqish bilan kutib olindi.

Shuningdek, konferensiyada davlat tilida ish yuritish, huquq sohasida terminologik va izohli lug'atlarni tuzish, yuridik tilning zamonaviy istiqbollari, ta'lim jarayonida qonun ijodkorligi tili me'yorlarini o'rganish kabi muammolar doirasida qizg'in bahs va fikr almashinuvi bo'lib o'tdi.

Konferensiyada muhokama qilingan masalalar yuzasidan quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

- TDYUda qonun tilini o'rgatadigan maxsus yo'nalish ochilishi tavsiya etiladi;

- bo'lajak yurist kadrlar tayyorlashga ixtisoslashgan OTMlarda "Davlat tilida ish yuritish", "Protsessual hujjatlar tili", "Akademikyuridikyozuv", "Yuristning nutqiy kommunikatsiyasi" fanlarini joriy qilish maqsadga muvofiqdir;

- "Qonunchilik texnikasi to'g'risida"gi Qonun yoki maxsus normativ hujjatni ishlab chiqish;

- qonun tashabbuskorligi huquqi berilgan tashkilot, vazirlik va idoralarda qonun loyihibalarini dastlabki lingvistik ekspertizadan o'tkazadigan maxsus bo'limlar tashkil etilishi maqsadga muvofiqdir;

- yuridik atamalar lug'atlarining yangi avlodini yaratish va bunda muayyan atamaning qaysi qonun normasida qanday ma'no ifodalab kelishini aniq misollar bilan tushuntirib beradigan "Huquqiy atamalar tezaurusi"ni ishlab chiqish hamda maxsus resurs (sayt) orqali foydalanishga topshirish;

- Ma'naviyat va davlat tilini rivojlantirish masalalari departamenti Atamashunoslik komissiyasi faoliyatini jonlantirish va kerak bo'lsa, Atamalar qo'mitasi shaklida qayta yo'lga qo'yish;

DAVLAT TILIDA QONUN IJODKORLIGI:
MUAMMO VA YECHIMLAR



- O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va TDYU O'zbek tili va adabiyoti kafedrasini aloqalarini muntazam yo'lga qo'yish, kafedrani qonunlar lingvistik ekspertizasi jarayoniga ko'proq jalb etish;
- O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasida "Til xizmati" deb nomlanuvchi tuzilma faoliyatini yo'lga qo'yish;
- normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini lingvistik ekspertizadan o'tkazish bo'yicha "Metodik tavsiyalar" ishlab chiqish;
- Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti, Toshkent davlat yuridik universitetida Yurislingvistika magistratura mutaxassisligini ochish.

“DAVLAT TILIDA QONUN IJODKORLIGI: MUAMMO VA YECHIMLAR

ЗАКОНОТВОРЧЕСТВО НА ГОСУДАРСТВЕННОМ ЯЗЫКЕ: ПРОБЛЕМЫ И РЕШЕНИЯ

LAWMAKING IN THE STATE LANGUAGE: PROBLEMS AND SOLUTIONS”

I xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to‘plami

O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi Toshkent davlat yuridik universiteti O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi yig‘ilishi qarori bilan nashrga tavsiya etilgan

Muharrirlar:	N. Niyazova, O. Choriyev
Musahhihlar:	D. Rasulmuhamedova, U. Po‘latova
Texnik muharrir:	N. Niyazova
Sahifalovchi:	U. Sapayev

Sahifalashga berildi 29.10.2021. Bosishga ruxsat etildi 30.12.2021. Qog‘oz bichimi 60X84 $\frac{1}{16}$. Times garniturasi. Nashriyot-hisob tabaqi 20,0. Bosma-shartli tabaqi 20,46. Tiraji 100 nusxa. Kelishilgan narxda

TDYU O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi.
100047, Toshkent shahri, Amir Temur ko‘chasi, 13-uy.
Tel. (0-371) 233-66-36, 233-14-09, faks 233-37-48.
E-mail: n.ramazanov@tsul.uz

TDYU O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi original-maketidan chop etildi.
100047, Toshkent shahri, Amir Temur ko‘chasi, 13-uy.